

ISSN 2181-922X

# O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2022 Vol. 2(2)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosarlari:** Nurboy Jabborov  
Bahodir Karimov

**Mas'ul kotib:** Sohiba Madirimova

### **Tahrir kengashi**

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Dilnavoz Yusupova, Abdulla Ulug'ov, Islom Yoqubov, Qo'ldosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Abdumurod Tilavov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Ilhom Sayitqulov, Orzigul Hamroyeva, Oybarchin Abdulhakimova, Sohiba Umarova, Yulduz Muhamadiyeva, Gulrux Xudoyorova, Yulduz Abdulhakimova.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

**“Adabiyotshunoslik”** – “O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnalining adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi seriyasi bo‘lib, yilda ikki marta nashr etiladi.

Jurnalning **“Adabiyotshunoslik”** seriyasida o‘zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o‘zbek mumtoz adabiyotining qo‘lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e‘lon qilinadi. O‘zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so‘nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo‘lishiga e‘tibor beriladi.

**“Adabiyotshunoslik”** seriyasida O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning e‘tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

**“Adabiyotshunoslik”** seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

**Email:** [adabiyotshunoslik2022@gmail.com](mailto:adabiyotshunoslik2022@gmail.com)

**Website:** [www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

## MUNDARIJA

### Mumtoz adabiyot tarixi

#### **Dilnavoz Yusupova**

Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy "Layli va Majnun"  
dostonlarining qiyosiy tahlili.....4

#### **Sohiba Umarova**

Xorazm adabiy muhitida devonchilik an'anasi.....14

#### **Shahnoza Raxmonova**

Falsafiy-irfoniy dostonlarda vazn va mazmun munosabati.....26

#### **Yoqubova Sevinchoy**

Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri.....42

### Zamonaviy adabiyot muammolari

#### **Ruxsora Tulabayeva**

Yozuvchi biografiyasi va bola ruhiyati o'ziga xosligi.....54

#### **Oybarchin Abdulhakimova**

Abdulla Oripov she'riyatida xalqona uslub va milliy ruh uyg'unligi.....63

#### **Gulrux Xudoyorova**

Abdulla Oripovning xorijda yaratilgan she'rlarida obrazlar  
tasnifi va tadriji.....72

#### **Dilfuza Avazova**

She'riyatda Me'roj kechasi tasviri (Alisher Navoiy, Furqat va  
Abdulla Oripov ijodi misolida).....85

## MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

**Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy  
“Layli va Majnun” dostonlarining qiyosiy tahlili**Dilnavoz Yusupova<sup>1</sup>**Abstrakt**

Usmonli turk adabiyotida “Layli va Majnun” dostonlarini yozgan shoirlarning soni 20 dan ortadi. Ular orasida Lorendeli Hamdiyning 1542 yilda yaratilgan “Layli va Majnun” dostoni o‘ziga xos o‘ringa ega. Doston forsiy xamsanavislar dostonlariga javoban yozilibgina qolmay, “Dostonning yozilish sababi” bobida Hamdiy o‘zbek ijodkori Alisher Navoiyning nomini ham tilga oladi. Hamdiyning ushbu dostoni adabiyotshunoslikda forsiyo‘y salafarlari: Nizomiy, Dehlaviy va Jomiylarning dostonlari bilan qiyosan o‘rganilgan, lekin Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni bilan maxsus muqoyasa etilmagan. Har ikki dostonning syujet xususiyatlari, qahramonlar tasviri va voqealar rivojida mushtarakliklar ko‘zga tashlanadi. Lekin kompozitsion qurilish, janriy tarkib va dostonlarda qo‘llanilgan vazn nuqtai nazaridan farqlar ko‘zga tashlanadi. Alisher Navoiy dostoni 38 bob, 3623 baytdan iborat bo‘lsa, Lorendeli Hamdiyning masnaviysi hajman anchagina katta: 5441 baytdan iborat. Hamdiy o‘z dostonini faqat masnaviyda yozib qolmay, uning tarkibiga g‘azal, qasida kabi janrlarni ham kiritgan. Alisher Navoiy esa, turkiy tilda ilk “Xamsa”ni yaratgani uchun xamsanavislikning barcha an‘analarini to‘la saqlab qolgan. Hamdiy dostonini tadqiq qilish asnosida unda Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoniga o‘xshash jihatlar ham borligi ma‘lum bo‘ldi.

**Kalit so‘zlar:** *doston, syujet, kompozitsiya, vazn, masnaviy, qasida.*

**Kirish**

Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari orasida eng ko‘p tarqalgan ishqiyy qissalardan biri bu “Layli va Majnun” qissasidir. Qissaning kelib chiqish manbai qadim arablar hayoti bilan aloqador voqealarga borib taqaladi. Ayrim arab manbalarining ma‘lumot berishicha, Majnun tarixiy shaxs bo‘lib, Shimoliy Arabistondagi Bani Omir qa-

<sup>1</sup>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

**E-mail:** mumtoza\_dil@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-8609-6351

**Iqtibos uchun:** Yusupova, D. 2022. “Alisher Navoiy lorendeli hamdiy “Layli va Majnun” dostonlarining qiyosiy tahlili”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 2(2): 4-13.

bilasiga mansub. Uning ismi manbalarda Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, al-Aqra va ba'zan al-Buhturiy ibn al-Ja'd tarzida keltiriladi. Majnun o'z qabilasidan Layli ismli qizni sevib, unga bag'ishlab g'amgin she'rlar to'qigan. Uning she'rlari qabiladoshlari va boshqa qabila kishilari orasida keng tarqalganligi haqida Ibn Qutayba ad-Dinovariy (9-a.)ning "Kitob ush-she'r va shuaro" ("She'r va shoirlar kitobi") asarida ma'lumotlar keltiriladi. Lekin shu b-n birga ayrim tarixchilar, xususan, Abu Faraj al-Isfahoniy, Avon ibn Hakim al-Qalbiy (8-a.), Hishom al-Qalbiy (9-a.) Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziy, mavjud she'rlar o'z amakisining qizini sevib qolgan ummaviy bir yigitning she'rlari, u she'rlarida Majnun taxallusini qo'llagan deb aytadilar. Majnun tarixiy shaxsligi bahsli masala bo'lgani sin gari unga nisbat berilgan she'rlarning muallifligi masalasi ham munozaralidir. yettinchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab she'riyatida Majnun taxallusi bilan ishqiy mavzuda yozilgan she'rlar paydo bo'lgan. Arab olimlari al-Johiz (9-a.) va Ibn al-Mu'tazzning yozishicha, o'sha davrda Layli nomi bilan bog'liq barcha she'rlarni Majnun nomiga nisbat berganlar [Krachkovskiy 1946, 31]. Abu Bakr al-Volibiy esa Majnun nomiga nisbat beriluvchi she'rlarni to'plab, "Devoni Majnun"ni tuzgan. Mana shu she'rlar zaminida IX ga kelib, Layli va Majnun muhabbati haqidagi rivoyatlar xalq orasida keng tarqalib ketadi va asta-sekin xalq og'zaki ijodidan yozma adabiyotga o'tadi.

### **Fors adabiyotida "Layli va Majnun"lar**

Bu qissani badiiy adabiyotda ilk bor doston shaklida Nizomiy Ganjaviy 1188-yilda qalamga olgan. Nizomiy xalq orasida tarqalgan rivoyatlardan ijodiy foydalangan holda "Layli va Majnun" qissasini g'oyaviy jihatdan mukammal va badiiy jihatdan yuksak asar darajasiga ko'tardi. Nizomiy dostoni Sharq xalqlari adabiyotida keng shuhrat qozondi va oradan bir asrdan ziyodroq vaqt o'tgach, Amir Xusrav Dehlaviy unga javob yozdi. Dehlaviy dostoni 1299-yilda yaratilgan bo'lib, "Majnun va Layli" deb ataladi. Muallif doston qahramonlari nomini almashtirish bilan yangilikka, o'z salafidan o'zgachalikka intilganligini ta'kidlaydi hamda ushbu qissaning arab xalqlari orasida dastavval "Majnun va Layli" shaklida ommalashganligiga e'tibor qaratadi. U Nizomiy dostonining kompozision qurilishini asosan saqlab qolgan holda uning syujetiga ba'zi o'zgartirishlar kiritadi (munajjimning Majnun taqdiri haqidagi bashorati, Navfalning o'z qizini Majnunga nikohlab berishi va b.) Xusrav Dehlaviy ushbu dostoni bilan Sharq xalqlari adabiyotida "Layli va Majnun" mavzusida

gi dostonga javob yozish an'anasini boshlab berdi [Aliyev 1985, 52; Yusupova 2016, 247]. Dehlaviydan keyin forsiy adabiyotda, xususan, Hirot adabiy muhitida Ashraf Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Kotibi Turshiziy, Shayxim Suhayliy, Abdulloh Hotifiy, Badriddin Hiloliy, Xoja Imod Loriy va boshqalar mazkur mavzuda asar yozdilar.

Layli va Majnun orasidagi ishq afsonasi turkiy ijodkorlarning ham sevimli mavzusiga aylandi. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni o'zbek tilida ushbu mavzuda yaratilgan ilk doston bo'lib, Navoiy uni yaratishdan avval arab rivoyatlari bilan bir qator-da Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog'iy va Shayxim Suhayliy dostonlarini chuqur o'rganadi. U xamsanavislikda o'zigacha mavjud an'analardan ijodiy foydalangan holda o'z dostoniga yangicha ruh bag'ishlaydi, o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, "afsonaga yangi libos kiygizadi".

"Layli va Majnun" afsonasi qardosh turkiy xalqlar adabiyotida ham keng tarqalgan. Turk olimi O.S.Levendning yozishicha, usmonli turk adabiyotida "Layli va Majnun" dostonlari yozgan shoirlarning soni 20 dan ortadi [Levend]. Garchi bu dostonlarning barchasi ham bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, lekin manbalar va tazkiralarda ijodkorlar nomlarining keltirilishiyoq mazkur mavzuga munosabat ushbu muhit shoirlari orasida yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Bu asarlar orasida Lorendeli Hamdiyning "Layli va Majnun" dostoni o'ziga xos o'ringa ega.

Leandeli Hamdiyning hayoti haqida tarixiy manbalarda aniq ma'lumotlar mavjud emas. Hozircha bizga ma'lum bo'lgani Karaman voliysi bo'lgan sulton Selim II ning shahzodalik vaqtida, shoir hali ushbu asarni yoza olishlik salohiyati va imkoniyatida ega ekanligidir. Ali Nihad Tarlan bu haqida "Bizdagi manbalardan shuni xulosa qilish mumkinki, shoirning iqtidori juda yuksak bo'lgan. Bundan tashqari agar shunday iqtidor egasi bo'lmaganida viloyat shoiri maqomiga eri sha olmas edi." – degan fikrlarni keltiradi.

Doston 1542-yilda yaratilgan bo'lib, uning fanga ma'lum yagona nusxasi Sulaymoniyanning Fotih kutubxonasida 3740 inventar raqam ostida saqlanadi [Levend 1959, 110]<sup>1</sup>. Doston forsiy xamsanavislar dostonlariga javoban yozilibgina qolmay, "Dostonning yozi lish sababi" bobida Hamdiy o'zbek ijodkori Alisher Navoiyning nomini ham tilga oladi:

*Kopar bâg-i sühande bir nevâyı*

<sup>1</sup>Agah Sirri Levend. Arab, fors ve türk edebiyatlarında Leyla ve Mecnun hikayesi. Ankara, 1959. – S. 110.

*K'ishitse âferîn ide Nevâyî.*

Hamdiyning ushbu dostoni bo'yicha adabiyotshunoslikda ayrim tadqiqotlar mavjud. Bevosita biz o'rganayotgan mavzuga yaqin tadqiqot Belal Saber tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u o'zining "Arab, fors va turk adabiyotida "Leyla bilan Majnun" masnaviyining ishlanishi va Larendali Hamdiyning asari" ("Leylâ ile Mecnûn Mesnevisinin Arap, Fars Ve Türk Edebiyatı'nda Ele Alınış Biçimi ve Larendeli Hamdî'nin Eseri") nomli doktorlik dissertasiyasida "Layli va Majnun" mavzusida arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan asarlarni sanab o'tar ekan, Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoniga ham o'rin ajratadi [Saber 2004; Balci 2020]. Lekin ushbu tadqiqotda bu ikki dostonning kompozisiya, syujet va poetik xususiyatlari o'zaro muqoyasa etilmagan.

### **Dostonlarning kompozision qurilishi**

Garchi har ikki dostonning syujet xususiyatlari, qahramonlar tasviri va voqealar rivojida mushtarakliklar ko'zga tashlansa-da, lekin kompozision qurilish, janriy tarkib va dostonlarda qo'llanilgan vazn nuqtai nazaridan farqlar ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiy dostoni 38 bob, 3623 baytdan iborat bo'lsa, Lorendeli Hamdiyning masnaviyisi hajman anchagina katta: 5441 baytdan iborat.

Navoiy dostonida muqaddima 9 bob, 604 baytni, Hamdiy dostonida esa 14 bob, 731 baytni tashkil etadi.

Navoiy dostonida boblarning (birinchi bob bundan mustasno) barchasi sarlavhaga ega bo'lib, sarlavhalar saj' usulida turkiy tilda bitilgan. Hamdiy dostonida esa sarlavhalar forsiy tilde ekanligini kuzatish mumkin, shu o'rinda turk shoirining ulug' forsiy salafлари Nizomiy va Jomiydan ta'sirlangani ko'rinadi. Qiyoslaymiz:

### **Navoiy dostonida sarlavha (13-bob):**

"Qaysning hajr shabistonida shabnam gulobi yuziga **sochilg'onidin** ko'zi **ochilg'oni** va bulbuli shabxez bila ishq dostonlari adosida nola **qilg'oni** va bulbul soyasidek tufroqqa **yiqlig'oni** va atosi aning bulbuldek fig'onlarin eshitib boshig'a **yetgoni** va mahmil qafasiga solib olib **ketgoni**"

### **Hamdiy dostonida sarlavha (18-bob):**

"Dîden-i Mecnûn Sûret-i Leylî-râ Der Hâb"

Har ikki dostondagi muqaddimaviy boblarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Alisher Navoiy dostonida		Lorendeli Hamdiy dostonida	
1-bob	Hamd	1-bob	Basmala
		2-3-boblar	Hamd (tavhid)
			<i>Qasida</i>
2-bob	Munojot	4-bob	Munojot
3-bob	Na't	5-bob	Na't
			<i>Qasida</i>
4-bob	Me'roj tuni ta'rifi	6-bob	Me'roj tuni ta'rifi
		7-11-boblar	Abu Bakr (r.a.), Umar (r.a.), Usmon (r.a.), Ali (r.a) hamda Hasan va Husan (r.a)lar madhi
5-bob	So'z ta'rifi, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy madhi	12-bob	
6-bob	Abdurahmon Jomiy madhi		
7-bob	Sulton Husayn Boyqaro madhi	13-bob	Sulton Sulaymon madhi
			<i>Qasida</i>
8-bob	Shahzoda Badi-uzzamon Mirzo madhi	14-bob	Shahzoda Salim madhi
9-bob	Tun ta'rifi		<i>Qasida</i>

Lorendeli Hamdiy asaridan farq qilib, Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni o‘zaro qofiyalanuvchi masnaviy shaklida yozilgan. Unda boshqa she’riy shakldagi janrlarni uchratmaymiz. Umuman olganda, Navoiy beshligi, xususan, “Layli va Majnun”da xamsanavislikning shakl bilan bog‘liq barcha shartlariga qat’iy amal qilinganlik kuzatiladi, jumladan, dostonlarda qo‘llanilgan vazn, qofiyalanish usuli Nizomiy beshligi o‘lchovlariga mos keladi. Chunki xamsanavislik shartlaridan bir oz bo‘lsa-da chekinish turkiy tilda xamsa yaratib bo‘lmaydi, degan xulosaga olib kelishi mumkin edi [Yusupova 2011, 50-51].

Agar xamsanavislik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Alisher Navoiy “Xamsa”si yaratilgandan keyin oradan yarim asr vaqt o‘tmay, xamsanavislik an’anasidan uzoqlashish holatlarini kuzatamiz. Bu, ayniqsa, usmonli va ozarbayjon shoirlari uchun xos ekanligi bilan xarakterlanadi. “Qayd etmoq lozimdirki, turk adabiyotida “Xamsa” yozmoq an’anasi birmuncha farqli inkishof etdi va turk shoirlari o‘z “Xamsa”laridagi dostonlar mavzularining o‘zgachaligi bilan Nizomiydan farqlandilar” [Arasli 1980, 80]. Endi bu davrga kelib, turkiy adabiyotda “Xamsa” dostonlari mavzularini



o'zgartirish, vaznlardan chekinish, dostonlar tarkibiga yangi shakl va janrlarni kiritish tamoyili paydo bo'la boshladi. "... aytish mumkinki, Navoiy forsiy zabon shoirlarga turkiy tilda "Xamsa" yozish mumkinligini isbotlab bergan va murakkab adabiy vazifani ado etib bo'lgandan keyin, turk dunyosi endi bemalol an'naviylikdan chekinib, o'zi istagan shaklda beshlik yaratish imkoniga ega bo'ldi" [Yusupova 2021, 65].

Lorendeli Hamdiyning "Layli va Majnun" dostoniga nisbatan ham shunday fikrni aytish mumkin. Hamdiy o'z dostonini faqat masnaviyda yozib qolmay, uning tarkibiga qasida va g'azal kabi janrlarni ham kiritgan. Doston muqaddimasidan to'rt qasida o'rin olgan bo'lib, ular masnaviy shaklida emas, balki mumtoz qasida singari – *aa, ba, da* tarzida qofiyalangan. Qasidalarining birinchisi Allohga hamd yo'nalishida bo'lib, 3-bobga ilova tarzida keltirilgan. Qasida 19 baytdan iborat. Aruz tizimining Ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilon) vaznida yozilgan. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Ïy Kerîm-i kâr-sâz u zü'l-celâl ü bî-zevâl  
V'iy Âlîm-i bî-niyâz ü lâ-yezâl ü zü'l-cemâl.*

Payg'ambar (s.a.v) madhiga bag'ishlangan qasida esa 32 baytdan iborat bo'lib, muzori' bahrida yozilgan (maf'ulu foilotun maf'ulu foilon).

Keyingi qasidalar sulton Sulaymon va shahzoda Salim madhiga bag'ishlangan bo'lib, biri Ramali musammani maxbuni maqtu', biri Ramali musammani maqsur vaznida bitilgan.

Dostonning asosiy qismidan 5 g'azal o'rin olgan bo'lib, ular aruz tizimining turli bahrlarida yaratilgan.

*Bosh qahramonlar qiyosi*

<b>Qiyoslanuvchi jihatlar</b>	<b>Alisher Navoiy</b>	<b>Lorendeli Hamdiy</b>
<b>Oiladagi o'rni</b>	Bani Omir qabilasi boshlig'ining yagona o'g'li	Arab amirining yagona o'g'li
<b>Bolaligi</b>	Tug'ilishidan boshlab batafsil tasvirlanadi	Tug'ilishidan boshlab batafsil tasvirlanadi. Majnunning sunnat qilinish lavhasi mavjud.
<b>Laylini ilk bor uchratishi</b>	Hay qabilasiga maktabga borib, gulshanda Laylini uchratadi	Tushida Laylini uchratadi.
<b>Maktabga borish vaqti</b>	To'rt yoshida	To'rt yoshida

<b>Ka'ba epizodi</b>	Haj mavsumida otasi uni Ka'ba ziyoratiga olib boradi	Otasi uni dardiga shifo bo'lar degan maqsadda Ka'ba ziyoratiga olib boradi
<b>Uylanishi bilan bog'liq holat</b>	Otasining iltimosi bilan Navfalning qiziga uylanadi, lekin qiz boshqa insonni sevishini aytgach, dashtga chiqib ketadi	Uylanish voqeasi yo'q
<b>Ota-onasining vafoti bilan bog'liq o'rinlar</b>	Ota-onasi vafotini tush orqali bilib, ularning qabriga boradi	Otasi o'g'lini izlab, cho'lga keladi va vafot etadi. Bir oz o'tgach, onasi ham vafot etadi
<b>O'limi bilan bog'liq holatlar</b>	Laylining o'limini ilohiy xabar (Surush) orqali sezib, uning qabilasi tomon keladi va Laylining ruhsiz tanasi oldida jon beradi	Laylining o'limini onasidan eshitadi va Laylining qabri oldida jon beradi

### Navoiyning "Farhod va Shirin" va Hamdiyning "Layli Majnun" dostoni

Hamdiy dostonini tadqiq qilish asnosida unda Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoniga o'xshash jihatlar ham borligi ma'lum bo'ldi. Dastlab dostonlarning ilk baytlariga e'tibor qaratsak. Navoiyda:

*Bihamdik fath avbob ul-maoni,  
Nasib et ko'ngluma fath o'lmak oni.*

Hamdiyda:

*Bihamdi'l-Kâdiri'l-Ferdi'l-Alîm  
Ve bi'smillâhi Rahmâni-r'Rahîm.*

Har ikkala shoir ham dostonni yozishdan oldin ularga hotif orqali g'oyibdan ovoz kelganligini aytadilar.

Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida:

*Chu hotifdin yetishti bu navidim,  
O'zumdin o'zga nav' o'ldi umidim,*

Hamdiyda:

*Göñül olmiş-iken bu fikre dem-sâz  
İşitdüm sûy-ı hâtifden bir âvâz.*

Navoiy ham, Hamdiy ham dostonning yozilish sababi bilan bog'liq bobda baxtu iqbol ularga yor bo'lgani uchun ushbu dostonni yozishga muayassar bo'lganliklarini aytadilar. Agar Navoiy

*Hanuz etmay qalam yozmoqni odat,  
Eshikdin kirdi iqbol-u saodat,*

deb yozgan bo'lsa, usmonli turk shoiri

*Bu emri çün baña feyz itdi ikbâl  
Ümîdüüm bâdesinden toldı zifâl*

deb yozadi.

Xamsanavislik an'anasi orqali ma'lumki, "Layli va Majnun" yo'nalishidagi dostonlar hazaj bahrining axrab tarmog'idagi vaznda bitilishi shart bo'lgan va Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni ana shu an'ana asosida *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* vaznda yozilgan. Lorendeli Hamdiy esa o'z dostonini "Xusrav va Shirin" ("Farhod va Shirin")lar uchun mo'ljallangan *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida bitadi. Bu holat ham Hamdiyning ushbu dostoni bilan Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni orasida o'zaro aloqadorlik borligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy ning "Layli va Majnun" dostonlari syujet va kompozitsiyasi, obrazlar tizimi hamda poetik xususiyatlari nuqtayi nazaridan yuksak badiiyat namunalari bo'lib, biri turkiy tilning qarluq lahjasida, ikkinchisi o'g'uz lahjasida ushbu mavzularni jahon adabiyotining ajralmas qismiga aylantira olganlar. Hamdiy o'z dostonini bitishda Alisher Navoiy ning nafaqat "Layli va Majnun" dostonidan, ayni damda "Farhod va Shirin" dostonidan ham ta'sirlangan.

### **Adabiyotlar**

- Aliyev, Gazanfar. 1985. *Temy i syujety Nizami v literaturax narodov vostoka*. Moskova: Nauka.
- Arasli, Hamid. 1980. *Nizami va turk edabyati*. – Baku: Elm.
- Balci, Orhan. 2020. *Lârendeli Hamdî'nin Leyla Vü Mecnûn Mesnevisi (Bağlamli Dizin Ve İşlevsel Sözlük)*. Doktora Tezi. Eskişehir.
- Krachkovskiy, Ignatiy. 1946. *Rannaya istoriya povesti o Medjnune i Leyli v arabskoy literature. Alisher Navoi*. Moskova: Nauka.
- Levend Agah Sirri. 1959. *Arab, fors ve türk edebiyatlarında Leyla ve Mecnun hikayesi*. Ankara.
- Saber, Belal. 2004. *Leylâ İle Mecnûn Mesnevisinin Arap, Fars Ve Türk Edebiyatı'nda Ele Alınış Biçimi ve Lorendeli Hamdî'nin Eseri*. Doktora Tezi. İstanbul.
- Yusupova, Dilnavoz. 2011. *Alisher Navoiy "Xamsa" sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi*. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Yusupova, Dilnavoz. 2016. *Layli va Majnun. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at*. 1-jild. Toshkent: Sharq
- Yusupova, Dilnavoz. 2021. *"Xamsa" poetikasi: vazn, qofiya va mazmun mushtarakligi*. Toshkent: Tamaddun.

# Comparative analysis of the poems “Leyli and Majnun” by Alisher Navoi and Laurendeli Khamdi

Dilnavoz Yusupova<sup>1</sup>

## Abstract

In Ottoman-Turkish literature, the number of poets who wrote the epic “Leyli and Majnun” exceeds 20. Among them, the epic “Leyli and Majnun” by Laurendeli Hamdi, created in 1542, occupies a special place. The epic was written not only in response to the epics of Persian authors, but in the chapter “The reason for writing the epic” Hamdi also mentions the name of the Uzbek writer Alisher Navoi. This epic of Hamdi was studied in literary criticism with the epics of Persian predecessors: Nizami, Dehlavi and Jami, but was not specifically compared with the epic of Alisher Navoi “Leyli va Majnun”. In the features of the story of both poems, the description of the characters and the development of events, similarities are found. However, there are noticeable differences in compositional construction, genre content and in the metrics used in the epics. The epic of Alisher Navoi consists of 38 chapters and 3623 verses, while the masnavi of Laurendeli Hamdi is much larger: it consists of 5441 verses. Hamdi not only wrote his epic in masnavi, but also included genres such as ghazal and qasida in it. Alisher Navoi, who created the first Hamsa in Turkish, completely preserved all the traditions of the Hamsa.

During the study of the epic Hamdi, it became known that it has similar features with the epic of Alisher Navoi “Farhad and Shirin”.

**Key words:** *epic, story, composition, poetic meter, masnavi, khasida.*

## References

- Aliyev, Gazanfar. 1985. *Temy i syujety Nizami v literaturax narodov vostoka*. Moskova: Nauka.
- Arasli, Hamid. 1980. *Nizami va turk edabyati*. Baku: Elm.
- Balci, Orhan. 2020. *Lârendeli Hamdî'nin Leyla Vü Mecnûn Mesnevisi (Bağlamli Dizin Ve İşlevsel Sözlük)*. Doktora Tezi. Eskişehir.

---

<sup>1</sup>*Dilnavoz R. Yusupova* – Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, doctor of philology.

**E-mail:** mumtoza\_dil@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-8609-6351

**For citation:** Yusupova, D.R. 2022. “Comparative analysis of the poems “Leyli and Majnun” by Alisher Navoi and Laurendeli Khamdi”. *Uzbekistan: language and culture* 2(2): 4-13.

- Krachkovskiy, Ignatij. 1946. *Rannaya istoriya povesti o Medjnune i Leyli v arabskoy literature. Alisher Navoi*. Moskova: Nauka.
- Levend Agah Sirri. 1959. *Arab, fors ve türk edebiyatlarinda Leyla ve Mecnun hikayesi*. Ankara.
- Saber, Belal. 2004. *Leylâ İle Mecnûn Mesnevisinin Arap, Fars Ve Türk Edebiyati'nda Ele Alinış Biçimi ve Lorendeli Hamdi'nin Eseri*. Doktora Tezi. İstanbul.
- Yusupova, Dilnavoz. 2011. *Alisher Navoiy "Xamsa"sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi*. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Yusupova, Dilnavoz. 2016. *Layli va Majnun. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at*. 1-jild. Toshkent: Sharq
- Yusupova, Dilnavoz. 2021. *"Xamsa" poetikasi: vazn, qofiya va mazmun mushtarakligi*. Toshkent: Tamaddun.

## Xorazm adabiy muhitida devonchilik an'anasi

Sohiba Umarova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Muhammad Rahimxon II Feruz asos solgan Xorazm adabiy muhiti devonchilik an'anasining o'ziga xos shakllari, shahzoda shoirlardan Sultoniy va Sa'diy ijodi va ular tomonidan tartib berilgan devonlar, devonlardagi ba'zi she'rlar, xususan, g'azal, mustazod, muxammaslaridan numunalar keltiriladi, qo'lyozmalardagi she'rlar matni O'zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan manbalar asosida tahlil etiladi. Xorazm devonchilik an'analari o'rganish, shahzoda shoirlar, xususan, Sultoniy, Sa'diy, G'oziy, Asadlar tomonidan tartib berilgan devonlar qo'lyozmalarining o'zaro matniy-qiyosiy tadqiqi va tahlilini amalga oshirish o'zbek adabiyoti tarixini to'ldiradi hamda bu davrning tarixiy, madaniy, adabiy muhitini o'rganish muhim manba bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** *Xorazm adabiy muhiti, devonchilik, devon, qo'lyozma, majmua, shahzoda, shoir, Sultoniy, Sa'diy, G'oziy, Asad, g'azal, muxammas.*

### Kirish

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazmda an'analarni davom ettirish, ustozlarga munosib izdosh bo'lish hamda yangilikka intilish maqsadida yurtdagi barca ijodkorlarni jalb etgan yirik adabiy-madaniy muhit vujudga keldi. Xiva hukmdori Muhammad Rahimxon II Feruz qalam ahlini tazkira tuzish, majmua yozish, tarjima etish, bayozlar tuzish, devonlar tartib berishga rag'batlantiradi, hatto bu jarayonga qarindoshlari, shahzodalar va saroydagi ko'plab mansabdor kishilarni ham jalb etib, muntazam ijodiy kechalar tashkil etadi. Albatta, shoh va shoir qoshidagi bunday anjumanlar shunchaki she'rxonlik bilan kifoyalanmay, balki shorlarning ijod mahsuli o'qib, eshittirilgandan so'ng ular yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan, xususan, xon oila a'zolari tomonidan aytilgan har bir bayt, undagi

---

<sup>1</sup>*Umarova Sohiba Zakirovna* – filologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** [sohibahon@mail.ru](mailto:sohibahon@mail.ru)

**ORCID ID:** 0000-0002-8733-8973

**Iqtibos uchun:** Umarova, S. 2022. "Xorazm adabiy muhitida devonchilik an'anasi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2(2): 14-25.

mazmun, badiiyat va vazn uyg'unligiga yig'ilganlar tomonidan alohida e'tibor qaratilgan. Shubhasiz, bunday vaziyatlarda Feruzning fikr-mulohazalari birinchi o'rinda turgan va xon anjumanlardan tashqari vaqtlarda ham o'z yaqinlarining ijodiga qiziqqan, shahzoda shoirlarning tarbiyasi, ta'lim olishi uchun ustozlar tayinlagan, ijodkorlarning taxallus tanlashi, she'rlarini devon holiga keltirish va ko'chirilishiga rahnamolik qilgan. Bu haqida Laffasiyning "Tazkirayi shuaro", Bayoniyning "Haft shuaro", Bobojon Tarrohning "Xorazm navozandalari" kabi asarlarda ko'plab ma'lumotlar beriladi. Rus sharqshunosi A.N.Samoylovich 1908-yili Xivaga qilgan ilmiy ekspeditsiyasi haqida yozgan tadqiqot ishlaridan birida shoir Tabibiy va uning «Majmuat ush-shuaro Feruzshohiy» tazkirasiga e'tibor qaratarkan, asarda Feruz oilasi vakillari borligini ham yozadi [Самойлович 1909, 200]. "Majmuat ush-shuaro Feruzshohiy"ga kiritilgan ijodkorlarning 10 ga yaqini xonzodalar bo'lib, ularning g'azallari tazkiraning asosiy qismida beriladi. Feruz topshirig'i bilan shahzoda shoirlar she'rlaridan majmualar ham tuzilgan. Shulardan biri "Haft shuaro" deb nomlanadi. "Haft shuaro"ga xonning buyrug'i bilan Bayoniy tartib bergan va unda Murodiy, Sultoniy, Sa'diy, Oqil, Farrux, Sodiq va Bayoniy o'zining ijodidan namunalar kiritadi. "XX asr xorazm adabiy muhitida "Haft shuaro" majmuasi alohida o'rin tutadi. U o'sha davrdagi madaniy ko'tarilish, ma'rifat tarqatish va kitobxonlikni kengaytirish zaruriyati tufayli san'atsevar shoh Feruz topshirig'i va rahnomoligida maydonga keldi hamda shahzoda shoirlar she'rlarini qamrab oldi. U an'anaviy bayoz va to'plamlardan farqli o'laroq, sulolaviy tamoyil bo'yicha tuzilib, asosan majmua, qisman tazkira xususiyatlarini mujassamlashtirgan manbadir" [Hajiyeva 2008, 21].

Shahzoda shoirlar hayoti va ijodiy merosiga doir ba'zi fikrlar bildirilgan, maqolalar e'lon qilingan [Abdullayev 1982, 7]. So'nggi yillarda Xorazm adabiy muhiti, xon oilasi vakillari ijodi maxsus tadqiqotlar doirasida ham o'rganilmoqda [Jo'rayev 2012]. "Feruz gulshani" nomli kitobda esa Feruz oilasidagi she'riyat muhiti vakillaridan Bayoniy, Xusrav, Murodiy, Komyob, Farrux, Oqil, Sultoniy, Asad, G'oziy, Sa'diy, Sodiq va ayol ijodkorlardan Kishjonbikalarning she'rlari tazkira, bayoz, majmualardagi matni asosida tuzib chiqilgan. Nashrga tayyorlovchilar tomonidan qayd etilganidek, "ushbu nashr imkoni darajasida qalamkashlarning turli mavzu, janr va she'riy san'atlar asosida yozilgan asarlaridan namunalar"ni jamlaydi [Feruz gulshani 2016, 7].

## Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida P.N.909-V inventar raqamli "Devoni Sultoniy. Devoni Sa'diy. Devoni Sodiq. Devoni G'oziy. Devoni Asad" kabi devonlardan tashkil topgan she'riy majmua saqlanadi. Majmua "Haft shuaro" singari alohida nomlanmagan. Qo'lyozma o'lchovi 17,5/22 shaklida, Qo'qon fabrika silliq qog'ozida nasta'liq xatida qora siyoh bilan yozilgan. Kotibning xati aniq, qatorlari tekis tushgan. Ba'zi o'rinlar, asosan, sarlavhalar, she'rlar soni qizil siyoh bilan ajratib berilgan. Majmua qattiq qog'oz bilan muqovalangan, dastlabki varoq ochiq qolgan. She'riy to'plamdan joy olgan birinchi devon muallifi "Sayyid Muhammad Nosir to'ra (zoyyidahu umrohu) al-mutaxallos ba Sultoniy ibn Sayid Muhammadyor To'ra ibn Sulaymoniy nishon Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni Soniy doma davlatahu va shavkatahu" [Inv. raqami: P.N.909-V, 1], deb ko'rsatiladi va shoir Sultoniy she'rlari matni beriladi. Bobojon Tarroh Xodimning "Xorazm shoir va navozandalari" kitobidan ma'lum bo'ladiki, shoir Sultoniyning asli ismi Nosir to'ra bo'lib, Muhammadyor to'raning o'g'li, Muhammadyor to'ra Muhammad Rahimxon Feruzning ikkinchi o'g'li bo'lgan [Xodim 2011, 40]. Sultoniy eski maktabni bitirgan, shoirlikda asosan Bayoniydan darslar olgan. Sultoniy devon tartib bergan, devonida g'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, tarje'band, masnaviy, ruboiy, muammo va qasida kabi janrlar jamlangan.

Biz matni bilan tanishib chiqqan, ushbu she'riy majmuadagi "Devoni Sultoniy"da va hech bir shoir devonida maxsus debocha ajratilmagani sabab ularni "Terma devon"lar deb nomlasak, to'g'ri bo'ladi. Aslida devon – biron shoirning lirik janrga mansub barcha she'rlarini o'z ichiga olgan she'riy to'plam ekan, o'zbek adabiyoti tarixida eng mukammal devon Alisher Navoiyning "Xazoyin ulmaoniy" kulliyoti bo'ladi. "Shoirning she'rlaridan saralab tuzilgan majmua "Terma devon" deb ataladi. Mukammal devonda debocha bo'lishi mumkin [Is'hoqov 2014, 35-37].

Majmuadagi birinchi "Terma devon"da Sultoniy she'rlari mumtoz devonchilik an'anasini saqlagan holda "Zihi qodirki sun'iddin qilib arzu samo paydo..." deb boshlanuvchi hamd g'azal bilan ochiladi, keyin "Ahli olam faxri – sensan ey, habibi kibriyo..." misrasi bilan davom etgan na't g'azal keladi. Devon ichida yana hamd va na't g'azallar uchraydi.

Devondagi Sultoniy g'azallarining aksariyati ishq-muhabbat



mavzusida yozilgan. Shoirning oshiqona g'azallaridagi obrazlar an'anaviy bo'lib, ular: oshiq, mahbuba va ag'yor(raqib)dir. Ular talqinida esa shoirning ijodiy salohiyati aks etadi. Jumladan:

*Yuzingdur bir guli jannat, ne jannat jannatul-ma'vo,  
Labingdur ey pari g'uncha ne g'uncha g'unchai humro.  
Ikki qoshing chu mohi nav, ne mohi nav hiloli iyd,  
Ikki ko'zingdur ro'zi nargis, ne nargis nargisi shahlo.  
Erur zulfing saning sunbul, ne sunbul sunbuli rayhon,  
Ko'zingdur zulmgar kofir, ne kofir kofiri tarso.  
Erursan xush ajab manzar, ne manzar manzari xubiy,  
Qadingdur rashki chun sarvi, ne sarvi, sarviyi zebo.  
Ko'zing mujgonlari xanjar, ne xanjar xanjari xunrez,  
Soching bo'yi erur anbar, ne anbar anbari soro.  
Xati la'ling erur axzar, ne axzar axzari rizvon,  
Tishingdur po'rsamin gavhar, ne gavhar gavhari yakto.  
Sango Sultoniydur banda, ne banda bandai farmon,  
Erur diyoringga oshiq, ne oshiq oshiqi shaydo.*

Sultoniyning ushbu oshiqona g'azalida ma'shuqa obrazini yaratish, uni tasvirlash va unga murojaat etishda an'anaviy badiiy tasvir vositalaridan mohirona qo'llash barobarida o'ziga xoslikka ham erishilgan. G'azalda tashbeh, ruju' san'atlaridan unumli foydalanilgan.

Sultoniy yana bir g'azalida lirik qahramonini ishq dardiga muhtalo oshiq o'z sevgilisini ko'rgach, yorining suhbatiga musharraf bo'lishga umid qiladi, ma'shuqasining nozu karashmasi esa oshiqni yanada o'rtashini shunday yozadi:

*Umidi lutf etarman ul mahliqoni ko'rgach,  
Ul qilgusi sitamlar man muhtaloni ko'rgach.  
Qolgaymu sabr-toqat, ahli jahonda ahhob,  
Ul sho'xi mahliqodin nozu iboni ko'rgach...*

Sultoniyning ushbu misralarida "mahluqo", "muhtalo", "nozu ibo" singari qofiyadosh so'zlar tanlanishi she'rning musiqiyiligiga o'zgacha ritm bergan va oshiqning holati go'zal bayon etilishiga olib kelgan. Sultoniy g'azallari ohangdor, tasviriy-ifodaviy bo'yoqlarga boy va shaklan rang-barangligi bilan ajraladi.

"Terma devon"dagi Sultoniy g'azallarining umumiy soni 297, hoshiyada yana g'azallar keladi. Kitobning 121-sahifasi 61a varag'ida g'azaldan keyin bitta mustazod berilgan. Sultoniy mustazodidan parcha keltirsak, shunday boshlanadi:

*Bog' ichra fido qomatig'a ey shohi xubon,  
shamshod ila arar,  
Bazmimni yuzing mehridin et, ey guli xandon,  
bir kecha munavvar.  
Hajring tunida qo'yma, meni visolingga yetkur,  
rahm aylabon ey gul,  
Jallodi ko'zing ko'rib bir nazor, ey yori vafodor,  
bo'ldim base shaydo.  
Zulfingni isidin aylagil, bu kecha jonon,  
bir nasimni muattar,  
Hajr oqshomining shomini dur etma, huvaydo,  
man zoru horingga.*

Sultoniyl mustazodidagi oshiq husnu jamol ichra tengi yo'q, talat shohi bo'lmish yorining bog'dagi qadi qomati shamshod, sarvdek, yuzining nuri munavvar, ko'zlari jallod ekanligini aytish bilan birga undan e'tibor, iltifot va vafo qilishini so'raydi.

“Terma devon” matnidan Sultoniyl muxammaslari asosan Feruz, Ogahiy, Fuzuliy va Alisher Navoiy g'azallariga hamda mustaqil (bar g'azali xud) yozilganligi ma'lum bo'ladi. Jumladan, to'plamning 135-sahifasida Sultoniylning 10-muxammasi Alisher Navoiylning “Ko'nglim o'rtansun agar g'ayringg'a parvo aylasa...” deb boshlanuvchi 10 baytli g'azaliga bitilgan. Muxammasi Sultoniyl shunday boshlanadi:

*O'tga kuysun jonu dil sandin tabarro aylasa,  
Ya'ni sandin o'zga bir dilbar tamanno aylasa,  
Bulsun ovora xirad ishqingni ifsho aylasa,  
Ko'nglum o'rtansin agar g'ayringg'a parvo aylasa,  
Har ko'ngul hamkim sening shavqingni paydo aylasa.*

*Sayri gulni do'stlar sarvi xiromonni netay,  
Gul yuzi yodida afg'onim falakka teguray,  
Men nechuk huru parini vuslatidin dam uray,  
O'zgalar vaslin tamanno aylasa navmid o'lay,  
Har kishi ham sening vasling tamanno aylasa.*

Sultoniyl nazira bog'lashni niyat qilgan Alisher Navoiylning oshiqona-orifona mazmundagi ushbu g'azalida oshiqning ma'shuqasini boshqalardan qizg'onishi, ag'yorlardan asrashi ifoda etiladi. Professor N.Komilov yozganidek, ushbu g'azaldagi “oshiqning o'z ma'shuqsiga ishq shunchalik kuchliki, u hech kimni unga yaqinlashtirgisi kelmaydi, iloji bo'lsa-yu, mahubasini barcha g'ayr

va begona kishilardan yashirsa, hech kim u haqda gapirma, hatto nomini tilga olmasa. Shu bois har bir bayt bir iltijoli qasamday jaranglaydi, ya'ni oshiqning o'zi ham yordan o'zgaga boqmaslikka ont ichadi" [Komilov 2012, 38]. Sultoniy muxammasi misralarida ko'proq oshiqona hissiyotlar, holatlar ifoda etiladi, Navoiy g'azalida esa oshiqona she'rga orifona fikrlar ham singdirgan.

Shu o'rinda aytish kerakki, Sultoniy muxammasida Navoiy g'azalining ba'zi baytlari tushib qoldirilgani ma'lum bo'ladi. Jumladan, biz muxammas matnida g'azalning 3-bayti, ya'ni, "Har kishi vaslin tamanno aylasam, navmid o'lay, Har kishi hamkim sening vasling tamanno aylasa" misralarini uchratmadik. Taxminimizcha, Sultoniy ko'rgan qo'lyozmada Navoiy g'azalidagi ushbu bayt bo'lmagan, yoki muxammas ko'chirilishida kotib tomonidan chalkashlikka yo'l qo'yilgan. Bunga aniqlik kiritish "Devoniy Sultoniy"ning alohida ko'chirilgan nusxalariga murojaat etish bilan amalga oshiriladi. Navoiyning ushbu g'azalining to'liq matnida esa bu misralar mavjud [Navoiy 1987, 66]. Sultoniy muxammasi 3-bandi shunday davom etadi:

*Maskan aylab ul parivash hajrida tog' tuzum,  
Hajr za'fidin bo'lubdur guhar yanglig' nurum,  
Gar ishonmassan sanga ravshan qilay oyg'on so'zim,  
O'zgarlar husnun tomosho aylasa, chiqsun yuzum,  
O'zga ko'zga ham seni husnung tomosha aylasa* [Majmua, 1325 h.q., 135].

G'azalning 4-baytidagi "ko'zum" so'zi o'rniga "yuzum", "bir ko'z hamki" o'rniga "ko'zga ham", "husnungni" o'rniga "husnung" kabi holatlar biroz chalkash yozilgani uchun ma'noda noaniqlik seziladi. G'azal aslida:

*O'zgarlar husnin tamosho aylasam, chiqsun ko'zum,  
O'zga bir ko'z hamki husnungni tamosho aylasa,* - tarzida yozilgan [Navoiy 1987, 66].

Sultoniy "Terma devon"ida g'azal, mustazod, muxammaslar bilan birga murabba', masnaviy, ruboiy, muammo, ta'rix, qit'a, qasida kabi janrdagi she'rlaridan ham namunalar beriladi. Majmuaning 172-sahifasida kolofoni "Zihi Subhonholifatur-rahmon boisi amnulan amon ya'ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodirhoni doma davlati huva shavkata huning farmoni vojib iz'onlari bila ushbu Devoni Sultoniy bir ming uch yuz dog'i yigirma beshinchi. Domulla Bobojon Tarro ibn Abdulaziz maxdum marhumiyning qo'lida itmomi sarhadig'a yetdi", - deb berilgan. She'riy majmuadagi "Devoni Sa'diy", "Devoni

Sodiq”, “Devoni G’oziy”, “Devoni Asad”larda ham shoirlar ijodidan she’riy namunalar jamlangan. Umuman, ushbu she’riy majmuadagi “Terma devon” lar matni bilan boshqa qo’lyozma nusxalarni solishtish, shahzoda shorlar ijodi o’rganish va nashrga tayyorlashda muhim manba vazifasini bajaradi.

O’zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondida shahzoda shoirlarning she’rlari alohida devon shaklida kitob qilingan manbalari ham saqlanadi. Shulardan biri A.P-7092 inventar raqamli “Devoni Sa’diy” qo’lyozma asardir.

Qo’lyozma 106 bet, 53 sahifadan iborat bo’lib, kitob to’q ko’k rangli qatiq qog’oz bilan muqovalangan, dastlabki varoq ochiq qolgan. Qo’qon fabrika nisbatan dag’alroq qog’ozida nasta’liq xatida qora siyoh bilan yozilgan. Ba’zi o’rinlar, asosan, sarlavhalar, sonlar qizil siyoh bilan ajratib berilgan. Qo’lyozmaning ba’zi varoqlari cheti bukilib, uringan. Kotibning xati aniq, qatorlari tekis tushgan.

Sa’dulloh to’ra Sa’diy Xivaning so’nggi xoni Said Abdullaxon (1918-1920-yillar Xiva xoni)ning o’g’li bo’lib, bobosi Muhammad Rahimxon II Feruz saroyida o’sib, ulg’aygan. Sa’dulloh to’ra Sa’diy yoshligidan adabiyotga qiziqqan, sharq mumtoz ijodkorlarining asarlarini o’qib chiqqan. Sa’dulloh to’ra Sa’diy taniqli muarrix va shoir Bayoniyga shogird tushgan, 20 yoshligidan she’r mashq qila boshlagan. Sa’dulloh to’ra Sa’diy arab, fors tillarini bilgan. Sa’dulloh to’ra Sa’diy haqida Bobojon Tarroh – Xodim shunday yozadi: “Sa’dulloh to’ra podshozoda oilasidan chiqqan. U juda zehni o’tkir odam edi. Bir ko’rgan narsasini, xoh arabiy bo’lsin, xoh forsiy bo’lsin, darrov yodlab olar edi” [Tarroh 1994, 35].

Sa’dulloh to’ra Sa’diyning “Devon”idan tashqari boshqa asarlari ham ma’lum. Sa’diy fors adabiyoti ta’sirida turkiy tildagi “Mufarrixi qulub” deb nomlangan asarida inson hayotida tarbiyaning o’rni, inson xulq-atvori va insoniylik fazilatlarini ulug’lashga ahamiyat qaratadi. “Mufarrixi qulub” nazmda yozilgan bo’lib, 10 bobdan iborat, har bir bob o’z nomiga ega, asardagi hikoyatlar, sarguzashtlar muallifning fikr-mulohazalarini yanada aniqroq bayon etish uchun xizmat qilgan. Ushbu asarning qo’lyozma nusxalari mavjud.

“Devoni Sa’diy” haqida gapiradigan bo’lsak, devon an’anaga muvofiq avval hamd, keyin na’t g’azallar beriladi. Devonda Sa’diy qalamiga mansub g’azal, mustazod, muxammas, qasida kabi janrlarga keng o’rin berilgan.

Biz yuqoridagi Sultoniy muxammasi tahlilini davom etirgan holda, Sa’diyning Alisher Navoiy g’azaliga yozgan muxammasini

keltirishni lozim topamiz. Muxammas Navoiyning “Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar navro‘z ila bayram” deb boshlanuvchi g‘azaliga bitilgan. Muxammasi Sa‘diy shunday boshlanadi:

*Zihi altofi Haq bo‘lmish man bechorag‘a hamdam,  
Ki tiyra majlisimg‘a ul pariroyim kelib bu dam,  
Maning holimg‘a afzun aylamish lutfu karam har dam,  
Muvofiq keldilar kiymish magar Navro‘z ila bayram,  
Chaman sarvi yoshil xil‘at maning sarvi ravonim ham* [Devoni

Sa‘diy. 1327 h.q., 79-81].

Ya‘ni, Sa‘diy muxammasidagi oshiqning “Ajabo, Haq Taoloning lutfu marhamati mendek bechoraga yo‘ldosh bo‘lib, g‘amli kunlarimda yorim suhbatimga keldi, lutfu karamini ziyoda qildi”, degan holatini Navoiyning g‘azalidagi oshiqning “Navro‘z bayramiga mos yashil kiygan sarvi ravon” yoriga murojaati bilan o‘zining fikrini uyg‘unlashtirishga erishadi.

G‘azal matnidagi ba‘zi so‘zlarga e‘tibor qiladigan bo‘lsak, Navoiy g‘azalining birinchi misrasidagi “muvofiq kiydilar, bo‘lmish” so‘zi o‘rniga “muvofiq keldilar kiymish” birikmasi olingan. G‘azalning birinchi misrasini tahlil etadigan bo‘lsak, Navoiy aytmoqchiki, agar Navro‘z bilan bayram bo‘lganida muvofiq tarzida kiyindilar”. Sa‘diy muxammasidagi Navoiy g‘azalining birinchi misrasidan: “agar Navro‘z bilan bayramda kiyganlari muvofiq keldi”, degan mazmunni tushunishimiz mumkin bo‘ladi. Bularning qaysi aniqroq degan savolga albatta, baytning ikkinchi misrasidagi ma‘no tashuvchi so‘zlar aniqlik kiritadi. “Chaman sarvi yoshil xil‘at maning sarvi ravonim ham”, ya‘ni: chamandagi sarv ham yashil, mening qaddi qomati tik yorim ham yashil kiyingan. Demak, baytda gap kishinish, yasanish haqida ketayotgan bo‘lsa, “muvofiq kiydilar” birikmasi to‘g‘ri bo‘ladi.

Biz Sa‘diy devonidagi she‘rlardan biri matni bilan o‘quvchini tanishtish maqsadida muxammasning keyingi bandlarini quyida keltiramiz:

*Chu bo‘lsa sayr uchun jonon agarchi ozimi bo‘ston,  
Chiqorg‘oy ul ko‘zi fatton bori el jonidin afg‘on,  
G‘alat dedimki afg‘on balki qilg‘oy yer bila yakson,  
Chaman sarvi qolib hayron maning sarvim qilib javlon,  
Aning shaydosi bir dehqon munga shaydo bori olam.*

*Jamolin garchi ul sarvar qilur bo‘ston aro mazhar,  
Guli ra‘noni zor aylar g‘amida ul yuzi anvar,  
Yuzini sham‘idin gullar bo‘lur po‘r zarra xokistar,*

*Chaman sarvi qolib bebar mening sarvim bo'lub dilbar,  
Oni yil aylabon muztar bu yeldek sekretib adham.*

*Agarchi ul pari xushdil parishon aylasa kokil,  
Bo'lur oshiq gulu sunbul onga o'zni aylar qul,  
Bo'lurman-mu debon qobil o'zini qilmoqq'a maqbul,  
Qo'nub ul gul uza bulbul chekib gul shavqida g'ul-g'ul,  
Bu sarv uzra chekib gul terdin tushub shabnam.*

*Na qilmishman sanga oyo ki qilmassan karam aslo,  
Firoq o'tig'a ey barno kul etmishsan mani go'yo,  
Mani jonimg'a ey yakto jafolar aylading paydo,  
Qilib ohim sori sarvo buyon mayl etmading qat'an,  
Sabodin ey qadi ra'no bo'lur ham sarv ham ko'k xam.*

*Chu yetsa ko'yi tufroqi qilurda surma ushshoqi,  
Tasalliy xotir o'lmoqi olarning bo'ldi behroqi,  
Ko'nguldin g'amni chiqmoqi qo'lungdin boda olmoqi,  
Bu bog' ichra mayi soqiy ki borman asru mushtoqi,  
Ki onda sarv ham boqiy emas gul ahdi muhkam.*

*Bo'lursan Sa'd yo Oqil esang yor ollida maqbul,  
Ko'nguldin g'am bo'lub zoyil bo'lur rohat manga shomil,  
Esa sidqing saning komil bo'lur oson bori mushkul,  
Navoiy ko'yin et manzil yuzu qaddig'a bo'l moyil,  
Ki bog' etmas sani xushdil gul sarv aylamas xurram*

[Devoni Sa'diy, 1327 h.q., 79-81].

Aytish kerakki, shahzoda shoirlar ijodida nazira, tatabbu bitish an'anasi ko'p uchraydi. Sa'diy juda o'rinli g'azalning ohangi, mazmunidan foydalangan, o'zining fikrini tasviriy vositalar orqali Navoiy baytlari bilan asoslagan. Shu bilan birga shoir muxammasida yangi tafsilotlar, tashbehlar beriladiki, bu shoirning qanchalik daraja ijodiy salohiyatga ega bo'lgani, mumtoz asarlar poetikasini tushuna olganligini ko'rsatadi.

“Devoni Sa'diy” Feruzga bag'ishlangan qasida bilan tugatilgan. Devonning kolofoni mavjud. Yani: “Alhamdulillah valg' minnahu: ushbu devoni Sa'diy, kim bo amri Sultonuz zamon va nodir ud davron, a'ni Abul Muzaffar val mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy doma davlatahu va shavkatahuning farmoni oliylari bila sanai 1327 lanji yili mohi shavvolning o'nlanjisi, chahorshanba kuni erdikim, Mullo Boltaniyoz

al Mutaxallas bin Nadimiy valadi Usto Qurbonniyoz yozib itmomig'a yetkurdy. Tammatul kitob bi avni Maklikul Vahhob" [Devoni Sa'diy, 1327 h.q. 106].

### **Xulosa**

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhiting Munis, Ogahiy, Bayoniy, Avaz O'tar, Komyob, Mutrib kabi namoyandalari hayoti va ijodini tadqiq etish yuzasidan adabiyotshunoslikda muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ular bilan zamondosh, bir adabiy muhitda faoliyat olib borgan Sultoniy, Sa'diy, G'oziy, Asad, Murodiy, Sodiq, Farrux, Oqil kabi xon oilasidan yetishib chiqqan ijodkorlar devonlari qo'lyozmalari hanuzgacha o'rganilmagan. Bugungi kunda shahzoda shoirlarning devonlari O'zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida, Xorazm Ichan qal'a qo'lyozma fondida va Sankt-Peterburgdagi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik fondida saqlanmoqda.

Xorazm devonchilik an'analarini o'rganish, shahzoda shoirlar tomonidan tartib berilgan devonlar qo'lyozmalarining o'zaro matniy-qiyosiy tadqiqi va tahlilini amalga oshirish o'zbek adabiyoti tarixini to'ldiradi hamda bu davrning tarixiy, madaniy, adabiy muhitini o'rganadigan tadqiqotlar uchun muhim manba bo'ladi.

### **Adabiyotlar**

- Абдуллаев, Воҳид. 1982. *Сайланма*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Алишер, Навоий. 1987. *Бадойиъ ул-бидоуа*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Биринчи том. Т.: Фан.
- Бобожон, Тарроҳ. 1994. *Хоразм навозандалари*. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Бобожон Тарроҳ – Ходим. 2011. *Хоразм шоир ва навозандалари*. Т.: Tafakkur qanoti.
- سعدى ديوان Qo'lyozma. Inv.raqami: A.P-7092.
- سلطانی ديوان Majmua. Qo'lyozma. Inv.raqami: P.N.909-V.
- Исҳоқов, Ёқубжон. 2014. *Сўз санъати сўзлиги*. Т.
- Жўраев, Жамолиддин. 2012. *Комёб ҳаёти ва ижодий мероси манбалари тадқиқи*. Филол. фан. номз. дисс... автореф. Тошкент.
- Комилов, Нажмиддин. 2012. *Маънолар оламига сафар*. Т.: Tamaddun.
- Самойлович, Александр Николаевич. 1909. *Записки Восточного отделения Императорского Русского археологического общества*. Т. XIX. С. Петербург.
- Феруз гулшани. 2016. Нашрга тайёрловчилар: Ж.Жўраев, С.Дўстова. Т.: MUMTOZ SO'Z.
- Хажиева, Ирода. 2008. *“Ҳафт шуаро” мажмуасининг Хоразм адабий*



## The tradion of devanism in the Khorezm literary environment

Sohiba Umarova<sup>1</sup>

### Abstract

In this article, in the late 19<sup>th</sup>-early 20<sup>th</sup> century Khorezm, Muhammad Rahim Khan II Feruz, the unique forms of the devanism tradition, the works of prince poets Sultani and Saadi, and the devans ordered by them, some poems in the devans, in particular, examples of ghazal, mustazod, mukhammas are presented, the text of poems in manuscripts is analyzed. Based on the sources stored in the manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhon Beruni of the Republic of Uzbekistan will be analyzed. The study of the Devonian traditions of Khorezm, the implementation of a cross-textual comparative study and analysis of Devonian manuscripts ordered by princely poets, in particular Sultani, Saadi, Ghazi, Asads, complement the history of Uzbek literature, and an important source of study of the historical, cultural, literary environment of this period.

**Key words:** *Khorezm literary environment, poetry collection, manuscript, complex, the prince, a poet, Sultani, Saadi, Ghazi, Asad, ghazal, mukhammas.*

### References

- Abdullayev, Vohid. 1982. *Saylanma*. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Alisher, Navoiy. 1987. *Badoyi' ul-bidoya*. Mukammal asarlar to'plami. Birinchi tom. T.: Fan.
- Bobojon, Tarroh. 1994. *Xorazm navozandalari*. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Bobojon Tarroh – Xodim. 2011. *Xorazm shoir va navozandalari*. T.: Tafakkur qanoti.
- سعدى ديوان Manuscript inv. № A.P-7092.
- ناوىدىن اطلس Manuscript inv. № P.N.909-V.

<sup>1</sup>Umarova Sokhiba Zakirovna – doctor of philosophy PhD, Uzbek Language and literature University named after Alisher Navoi.

**E-pochta:** sohibahon@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-8733-8973

**For citation:** Umarova, S. Z. 2022. "The tradion of devanism in the Khorezm literary environment". *Uzbekistan: Language and Culture* 2(2): 14-25.



Is'hoqov, Yoqubjon. 2014. *So'z san'ati so'zligi*. T.

Jo'rayev, Jamoliddin. *Komyob hayoti va ijodiy merosi manbalari tadqiqi*.  
Filol. fan. nomz. avtoref. Toshkent, 2012.

Komilov, Najmiddin. 2012. *Ma'nolar olamiga safar*. T.: Tamaddun.

Samoylovich, Aleksandr Nikolayevich. 1909. *Zapiski Vostochnogo otdeleniya Imperatorskogo Russkogo arxeologicheskogo obshestvo*. T. XIX. S.Peterburg.

*Feruz gulshani*. 2016. Nashrga tayyorlovchilar: J.Jo'rayev, J.Jo'rayev, S.Do'stova. T.: MUMTOZ SO'Z.

Xajiyeva, Iroda. 2008. *"Haft shuaro" majmuasining Xorazm adabiy muhitidagi o'rni*. Filol. fan. nomz. avtoref. Toshkent.

## Falsafiy-irfoniy dostonlarda vazn va mazmun munosabati

Shahnoza Raxmonova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada irfoniy dostonlarning kelib chiqishi, genezisi, tadrijiy taraqqiyoti, turkiy va forsiy adabiyotdagi rivojlanish tamoyillari tadqiq etilgan. Fariduddin Attor, Gulshahriy, Alisher Navoiy, Rizoiy Payvandiy, Salohiylarning dostonlari tahlilga tortilgan. Ushbu ijodkorlar dostonlaridagi vazn xususiyatlari, o'lchov imkoniyatlari, she'riy san'atlar, qofiyalar tizimi o'rganilgan, tahlil qilingan. Maqolada irfoniy dostonlarda vazn va mazmun munosabati ham ochib berilgan. Shuningdek, maqolada adabiyotshunoslikdagi mavjud qarashlarga, fikrlarga munosabat bildirilgan. Dostonlar baytlarini ifodali o'qish uchun vasl, imola, tag'yir, taslim hodisalariga oydinlik kiritiladi. Tadqiqotni yozish jarayonida B.Valixo'jaevning "O'zbek epik poeziyasi tarixidan" kitobi, Arasli No'shobaning "Gulshahriy va Navoi" maqolasi, Sh.Sharipovning "Lison ut-tayr" dostonining genezisi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari" kitobi, Sh.Hasanovanning "Mavlono Xoji Qozi Payvandiy Rizoiyning "Qush tili" dostoni va uning qiyosiy-tekstologik tadqiqi" monografiyasi, Z.Mamadaliyevaning "Lison ut-tayr" obrazlari: ramz va majoz" singari tadqiqotlaridagi nazariy qarashlarga tayanildi. Irfoniy dostonlar yo'nalishidagi asarlar uchun ramali musaddasi mahzuf, ramali musaddasi maqsur vaznlari qulayligi ochiqlandi.

**Kalit so'zlar:** *janr, doston, masnaviy, vazn, ramal.*

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida irfoniy-tasavvufiy dostonlar o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, bunday dostonlarda mualliflar majoziy timsollar va ramzlar orqali ob'ektiv borliq hamda ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etganlar. Bu yo'nalishdagi dostonlar ko'proq ramziy-allegorik qissa va hikoyatlar asosida yoki qushlar tilidan bayon qilib berilganligiga boshqacha aytganda qushlar sayri bilan bog'liq ravishda aks ettirilganiga guvoh bo'lish mumkin. Garchi ramziy-allegorik qissa va hikoyatlarning tarixiy ildizlari juda qadim

---

<sup>1</sup>Raxmonova Shahnoza Muxitdinovna – filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**E-pochta:** shahnoza.raxmonova86@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-4521-8754

**Iqtibos uchun:** Raxmonova, Sh.M. 2022. "Irfoniy dostonlarda vazn va mazmun munosabati". *O'zbekiston: til va madaniyat*. 2 (2): 26-41.

davrlarga borib taqalsa ham, musulmon Sharqi adabiyotida dastavval qushlar sayri bilan bog'liq ilk asar sifatida Ibn Sinoning "Tayr" qissasi ya'ni "Qushlar haqida"gi qissasi tilga olinadi.

Adabiyotshunoslikda olimlar N.Arasli, M.Imomnazarov, Sh.Hasanova tomonidan Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr", Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr", Mavlono Xoji Qozi Payvandiy Rizoiyning "Qush tili" dostonlari qiyosiy o'rganilgan hamda Rizoiyning "Qush tili" dostonining qiyosiy-tekstologik tadqiqi yaratilgan. Shu munosabat bilan biz ushbu faslda asosan falsafiy-irfoniy dostonlarning vazni, ularning mazmun bilan munosabatiga to'xtalib o'tamiz.

Qushlar timsoli boshqa ko'pgina xalqlardagi singari turkiy xalqlar mifologiyasida ham ilohiy olam bilan muloqot qiluvchi vosita sifatida ifodalangan. Odam o'lganidan keyin yoki uyqusida ruhi qushga aylanib uchib ketishi haqidagi tasavvurlar xalq odatlari va folklorda, ertaklarda o'z aksini topgan. Haqiqatan ham xalqimizning eng qadimgi animistik tasavvurlariga qaraganda, odamning joni qush va chivin ko'rinishiga inish xususiyatiga ega ekan. Bu kabi tasavvurlar yozma adabiyotga ta'sir qilmay qolmadi, albatta [Mamadaliyeva 2015, 96]. Ibn Sino "Tayr" qissasida shunga o'xshash xalq folklori motivlaridan ta'sirlangan holda insonlarning ruhlarini qushlar shaklida tasvirlaydi. Mazkur qissada qushlar ovchidan qochib, Podshoh huzuriga borganlari hikoya qilinadi. Abu Homid G'azzoliyning "Risalat at-tayr" ("Qush risolasi") asari "Tayr" qissasiga raddiya sifatida yaratilgan. Biroq asar g'oyasida o'zgarishlar sodir bo'lishiga qaramasdan syujet va kompozitsiya saqlanib qolgan.

"Mazkur mavzu yozma adabiyotda ilk bor Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari orqali yaxlit va mukammal syujetga ega bo'lgan badiiy doston holiga keltirildi. Unda syujet chiziqlari qayta ishlanishi bilan birga asarga tolib qushlar va yetakchi qush – Hudhud obrazi kiritildi" [Sirojiddinov va boshq., 2019, 170]. Doston 24 maqola, 200dan ortiq hikoyalar va xotimadan tashkil topgan bo'lib, hajman 4290 baytdan iborat. Asar Hudhudning Simurg'ni topish maqsadida yo'lga tushishga chorlovchi nutqi bilan boshlanadi. O'ttizta qush o'z maqsadlari yo'lida turli mashaqqatlarni chekib, charchab Simurg'ning oldiga keladilar va uning timsolida o'zlarini ko'radilar. "Mantiq ut-tayr"dagi hikoyatlar asosida Attor o'zining tasavvuf ta'limotiga oid qarashlarini ochiqalaydi va mana shu mavzu doirasida hikoyatlar bayon etiladi.

Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoni *ramali musaddasi mahzuf* (ruknlari va taqti'i: *foilotun foilotun foilun*

-V - -/-V - -/-V -) vaznida yozilgan. Vaznning asosini birinchi va ikkinchi ruknlarda foilotun aslining solim ko‘rinishi hamda uchinchi ruknda ushbu aslning mahzuf tarmog‘i *foilun* ruknlari tashkil etadi. Aruzshunos A.Hojiahmedov ruknlar, ularning tarkibidagi cho‘ziq va qisqa hijolarning shu xildagi takrori yoqimli, yengil va musiqabop ohangni vujudga keltirishini ta‘kidlaydi [Hojiahmedov, 1998, 119]. Adabiyotshunoslikda shu sababli shoirlarimiz mazkur o‘lchovdan juda keng foydalanishgan.

Dastlab Hudhud obrazini “Lison ut-tayr” yo‘nalishidagi dostonlarga fors tasavvuf adabiyotining yetakchi vakili Farididdin Attor o‘zining “Mantiq ut-tayr”iga markaziy qahramon sifatida olib kirdi: “Shoirning mazkur mavzuni rivojlantirishga qo‘shgan ulushini belgilovchi omillardan yana biri dostonda Hudhud obrazining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Hudhud asarning yetakchi qahramonlaridan biri bo‘lib, asarda tasvir etilgan barcha voqea-hodisalar bevosita uning faoliyati bilan bog‘liq holda berilgan... Attor Hudhud obrazini ushbu mavzu doirasiga olib kirar ekan, birinchi galda u haqdagi Sharq folklori va Qur‘onda mavjud (XXVII sura 20 oyat) ayrim tasavvurlarga asoslanadi [Sharipov 1982, 14]. Dostonda shoir Qof tog‘ida yashaydigan afsonaviy qush – Anqoning ta‘rifi quyidagicha keltiradi:

Jondi-n+istar-	sa, bo‘lur An-	qoga yor,
— V — —	— V — —	— V ~
Kimki kechgay	jonidin mar-	donavor. [Attor, 2012, 13]
— V — —	— V — —	— V ~

Ko‘rinadiki, keltirilgan bayt *ramali musaddasi maqsurda* yaratilgan. Baytning sadr, ibtido, hashvi foilotun aslining *solimiga*, aruz, zarbi esa shu aslining maqsur tarmog‘i – *foilonga* teng. Baytda vazn talabi bilan vasl qo‘llanilgan. Unga ko‘ra birinchi misradagi “jondi-n+istar” so‘zlari qo‘shilib o‘qiladi. Shuningdek, baytda qo‘llanilgan ridfi asliylik murdaf qofiya uning vaznini belgilovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan.

Farididdin Attor oshiqqa agar ishqning siriga muhtalo bo‘lsang, undan yuz balo kelsa ham teskari o‘girilmaslikni ta‘kid etadi. Shoir baytda irsoli masal, tajnisdan foydalanib, uning ta‘sirchanligini oshirgan. Dastlabki “yuz” teskari qayrilib ketmaslikni anglatsa, ikkinchi “yuz” esa sanoqni bildirgan. Bu esa *ramali musaddasi mahzuf* o‘lchoviga hamohang qo‘llanilgan.

*Gar esang asrori ishqqa muhtalo,  
Yuz o‘girma kelsa hamki yuz balo* [Attor 2012, 13]

Mumtoz adabiyotda Attorga javob tarzida yozilgan ilk turkiy doston turk adibi Gulshahriyning “Mantiq ut-tayr”i hisoblanadi. Doston 1317-yilda yaratilgan. Adabiyotshunos olim Sh.Hasanova Gulshahriyning “Mantiq ut-tayr” dostonida an’anaviy syujet bayon qilinishi bilan birga, bir qator yangi g’oya va epizodlar ham kiritilganki, bu uning original asarligidan dalolat berishini ta’kidlaydi [Hasanova 2016, 25]. Ozarbayjonlik olim esa No’shoba Arasli o’zining “Gulshahriy va Navoiy” nomli maqolasida Navoiy va Gulshahriy dostonlarining bir-biriga yaqin jihatlari haqida to’xtalib o’tadi va Navoiyning “Lison ut-tayr”i faqat Gulshahriy asaridagina emas, balki bu mavzu asosida yaratilgan boshqa dostonlardan ham farqlanib turishini ta’kidlaydi [Arasli 1980, 17–22]. Gulshahriyning “Mantiq ut-tayr”da ham Hudhud – qushlar yo’lboshchisi timsolida gavdalanadi. Muallif ushbu dostonida Hudhudni aql timsoli, deb baholaydi [Sharipov 1982, 21].

Original matn [Gulshahriyning “Mantiq ut-tayr” asarining ilk ikki sahifasi. Turkiya Sulaymoniya kutubxonasi. Fotih № 2557, 159<sup>b</sup>-160<sup>a</sup>].

*16. Hudhudu qushlaru Simurg’u ajal  
Aqlu hulqu Tangriyo qildi masal.*

*17. Giru Gulshahri so’zi soz ayladi  
Mantiq ut-tayri hush og’oz ayladi.*

Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr”iga javoban Alisher Navoiy ham o’zining o’zbek tilida “Lison ut-tayr” dostonini yozadi. Doston so’nggida shoir tomonidan uning qachon yozilganligi haqidagi tarix keltiriladi:

*Menki, xilvat ichra yo’ndum xomani,  
Naqsh aylarga bu dilkash nomani...*

*Yil to’qiz yuz o’tmish erdi dag’i to’rt,  
Kim ulusning ko’nglig’a soldi bu o’rt.*

*Ham bu tarix ichrakim qildim shuru’,  
Ixtitomig’a dog’i bo’ldi vuqu’ [Navoiy 1996, 337].*

Demak, Navoiyning bu dostoni umrining so’nggi yillarida 1499-yilda bitilgan. Doston irfoniy mavzuda yozilgan bo’lib, 193 bob, 3666 bayt, 7332 misradan tashkil topgan. Doston turkiy tilda bo’lsa-da, Alisher Navoiy uni yaratishda o’zining “Foniy” taxallusidan foydalangan. “Lison ut-tayr” murakkab irfoniy doston bo’lib, Navoiy

majoziy obrazlar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali ob'ektiv borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadi, shu bilan birgalikda dostonda real hayot lavhalari, kishilarning xatti-harakati, fe'l-atvoridagi ijobiy va salbiy xususiyatlar ham tasvirlangan" [Sirojiddinov va boshq., 2019, 170]. Doston qushlarning to'planishi va adolatli shoh izlashi qarori bilan boshlanadi.

Ma'lumki, "Lison ut-tayr" "Mantiq ut-tayr"ga javob tarzida bitilgan asardir. Mana shu haqiqatga asosan, "Lison ut-tayr" tasavvuf nazariyasi, amaliyoti va adabiyoti o'z cho'qqisiga ko'tarilgan davrning mutafakkir farzandi bo'lmish Navoiyning, tasavvuf nuqtayi nazaridan turib qaragan Yaratgan va yaralmish, olam va odam, fano va baqo hamda boshqa masalalar to'g'risidagi fikrlarining asosi ifodalangan dostonidir. Ushbu dostonning markaziy qahramoni hisoblanmish Hudhud obraziga esa, hech bir istisnosiz, mana shu asos fikrlarning-da qaymog'ini bayon etish, ya'ni shoir estetik idealini badiiy tasvirlash vazifasi yuklatilgan [Mamadaliyeva 2015, 28]. Dostonda Navoiy o'zining jamiyat hayotiga, xususan inson tarbiyasiga, uning ma'naviy takomiliga oid fikrlarini qushlar obrazi orqali, ya'ni majoziy yo'l bilan ifodalagan.

"Lison ut-tayr" an'anaga mos ravishda "Mantiq ut-tayr"ning vaznida bitilgan. Turkiy she'riyat misolida fikr yuritadigan bo'lsak, *ramali musaddasi mahzuf* tuyuq janrining vazni hisoblanadi. Zero, mumtoz shoirlarimiz o'z tuyuqlarini shu vaznda yaratganlar. Alisher Navoiy ushbu vaznni turkiy epik poeziyaga olib kirib, uning imkoniyatlarini "Lison ut-tayr" dostonida sinab ko'rdi. Bu bilan Navoiy an'anaga ham asos soldi va *ramali musaddasi mahzuf* vaznida irfoniy doston ham yozdi.

Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida qushlarning Hudhud boshchiligida Simurg' tomon qilgan safari ramziy uslubda, Hudhudning hikoyatlari esa romantik uslubda bayon qilingan real voqealarning hayotdagi aksi ekanligi qayd etiladi [Hasanova, 2016, 22]. Dostondagi voqealar rivojida kunlarning birida bir guruh qushlar majlis qurmoq uchun yig'iladilar, keyin oradan nizo chiqadi. Bu nizoni bartaraf qilish uchun bir odil shohga ehtiyoj paydo bo'ladi. Shunda Hudhud Simurg' daragini aytadi va to'plangan qushlarni uni izlashga chorlaydi. Hudhud Simurg' olamdagi qushlarning podshohi ekanligini, u har bir qushning holidan birma-bir ogohligini aytadi:

Borcha olam	qushlarig'a	shoh(i) ul,
— V — —	— V — —	— V —
Holingizdin	mo'-bamo' o-	goh(i) ul [Navoiy, 1996, 32]

— V — —	— V — —	— V —
---------	---------	-------

deb, Simurg'ning "Anqo" degan laqabi ham borligini hamda uning oshiyoni Qof tog'ida joylashganini ham ta'kidlaydi:

*Ham nishiman Qofi istig'no ango,*  
*Ham laqab ul Qof uza Anqo ango* [Navoiy 1996, 32]

Keltirilgan baytlar *ramali musaddasi mahzuv* vaznida yozilgan. Hudhuddan Simurg'ning ta'rifini eshitgan qushlarda unga nisbatan havas uyg'onadi. Ular Hudhuddan Simurg'ni oldiga borishda yo'lboshchi bo'lishini iltimos qilishadi. Hudhud ham o'z navbatida To'ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Kaklik, Tazarv, Durroj, Kabutar, Shohboz, Shunqor kabi qushlar bilan birga yo'lga ravona bo'ladi. Biroq ko'p o'tmay yo'ldagi qiyinchiliklar sabab ular Hudhudga o'zlarining uzrlarini ayta boshlaydi.

Bulbul gulga dil izhorini, muhabbatini aytsa, Hudhud gul abadiy emas, sening ishqing chin bo'lolmaydi; Tovus o'z husni bilan bog'larni ziyatlashini aytsa, Hudhud "tashqi husn"ni rad etadi; Kabutar odamlarga o'rganganini aytsa, Hudhud ularni qoralaydi; Qarchig'ay qushlarning shohi ekanini aytsa, Hudhud uni bema'nilikda ayblaydi va hokoza [Mallayev 2021, 408]. Shu tarzda Hudhud qushlarning barcha uzrlariga javob qiladi. U o'zining fikrlarini dalillash maqsadida esa turli hikoyatlar keltiradi.

Hikoyatlar orasida Simurg'ning mufassal ta'rifini ham aytib o'tadi. Hudhuddan qushlar Simurg'ning oshiyoniga qanday borishni so'rashganida: "Hudhud – bu ishq yo'lidir" – deb javob beradi. Hudhudga qushlardan yana biri "Asl manzilga qachon yetib boramiz?", – degan savol beradi. Shunda Hudhud hali oldinda yettita vodiy bor deb javob beradi. Dostonda shoir Hudhud tilidan Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqru fano vodiylarining ham ta'rifini keltiradi. Shu tariqa ular birin ketin olti vodiyni bosib o'tishadi.

*Kim uzun erdi yo'lu ko'p ofati,*  
*Benihoyat dardu ranju shiddati.*  
*Ba'zi ul qushlardin o'ldilar halok,*  
*Ba'zi ettilar bo'lub ko'p dardnok.*  
*Oqibat yuz ming tumandin necha qush,*  
*Kim alarg'a yuz tuman ranj o'ldi tush.*  
*Urdilar o'ttuz qush ul yerda qanot,*  
*Tanlarida qolmay oyini hayot.*  
*Jism aro bir parlari qolmay butun,*  
*Pora-pora, o'ylakim qoqshol o'tun.*



*Tanlari yo'l ranjidan beto'shu tob,  
Jonlari dardu mashaqqatdin xarob.* [Navoiy 1996, 209]

Va nihoyat ko'zlangan manzilga yetib kelishadi. Ular oxirgi – yettinchi Faqru fano vodiysiga kirib keladilar:

*Har gul ul gulshanda bir ko'zgu edi,  
Kim qayon boqsa alar o'tru edi...  
Ko'runur erdi nazarda mo'-bamo';  
Aks ko'rguzgon kibi ko'zguyu su.  
Kim qilib Simurg' o'ttuz qush havas,  
O'zlarin ko'rdilar ul si murg'u bas* [Navoiy 1996, 300]

Qarasalar ular axtargan Simurg' o'zlari – o'ttiz qush bo'lib chiqadi. Ularning o'zi o'sha Simurg'ning zarrasi, uning zuhuri edi. Umuman, dostonda Simurg'ni izlab uzoq yo'lga otlangan qushlarning holi tasvirlangan baytlar, Shayx San'on, eshagini xudoga omonat topshirgan devona, suvga cho'kib o'lgan xasis haqidagi hikoyalar kabi o'nlab manzumalar teran falsafiy mushohadalarni yuksak badiiyat bilan ifodalashga ta'kid etilgan vaznlar muhim o'rin tutadi. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"da tarsi', zulqofiyatayn, tardu aks singari she'riy san'atlarni qo'llash orqali baytlarni har ikki vazn ohangida yaratdi.

XVIII asrda yashab ijod etgan Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Rizoiy "Mantiq ut-tayr" va "Lison ut-tayr"ga ergashib, "Qush tili" asarini yozgan [Ochilov 2012, 8]. Ushbu asar 1171-hijriy, 1756–1757-milodiy yilda yaratilgan. Bu haqida doston so'nggida ma'lumot keltiriladi. Tarixi kitob:

*Chun qush tilidin kinoyat erdi bu kitob,  
Turkiy bila bo'ldi "Mantiq ut-tayr" xitob.  
Tarixini jon bulbulidin so'rdum esa,  
8486 "Qush tili" bila navo chekib qildi javob*[Rizoiy 2009, 369]

Demak, Rizoiyning kitobi qush tilidan kinoyat bo'lib, u turkiy tilda "Mantiq ut-tayr"ga murojaat qilgan. Tarixini jon bulbulidan so'rganida, "Qush tili" bilan navo chekib javob qilganligini zikr etadi. Shoir Farididdin Attor, Gulshahriy, Alisher Navoiylar boshlab bergan an'anani turkiy adabiyotda davom ettirdi.

U yaratgan "Qush tili" dostonining qo'lyozmasini o'zbek sharqshunos olimi M.Imomnazarov ilk bor o'rganib, doston haqida maxsus ilmiy maqola e'lon qilgan [Imomnazarov 1998, 78]. Maqola muallifi o'zbek tasavvuf adabiyotining vakillaridan biri bo'lgan Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Rizoiy qalamiga mansub 127-raqam



ostida saqlanayotgan “Qush tili” asari qo‘lyozmasi bilan Hamid Sulaymon nomidagi qo‘lyozmalar institutida qadimgi qo‘lyozmalarni o‘rganish asnosida tanishib chiqqanligini aytadi. Olim o‘zbek adabiyoti tarixi uchun bu ijodkor hamda uning asari noma‘lum ekanligini alohida ta‘kidlaydi.

M.Imomnazarov Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” va Rizoiyning “Qush tili” dostonlarining syujeti, kompozitsion qurilishi va qo‘lyozmalarni qiyoslab, ular o‘rtasidagi tafovutlarni ko‘rsatadi. “Har uch asar o‘z mustaqil mazmuniy va hissiy yo‘nalishiga ega, ularni hech bir shaklda bir-birining tarjimasi yoki taqlidi deb bo‘lmasligini bayon etadi. Shuningdek, mo‘tadil: ammo o‘zi tanlagan yo‘nalishni izchil tutadigan, ko‘proq irfoniy tushunchalarning badiiy ommabop bayoniga urg‘u beradigan adabiyot yaratildiki, bu ham sof tasavvuf she‘riyatiga mansubdir”, – degan xulosaga keladi [Imomnazarov 1998, 77].

Olima Sh.Hasanova ham Rizoiyning “Qush tili” dostonini maxsus o‘rganib, o‘z tadqiqotlarida Rizoiy haqida qoniqarli manbalar topmaganligini zikr etadi. Shuningdek, “O‘zbek adabiyoti tarixi” 3 jildida (1978) XIX asrda Xorazmda yashab o‘tgan shoir Rizoiy haqida eslab o‘tilganligi va uning “Xurshid va Malikai Dilorom” va “Gulfarax” nomli dostonlar yozganligi haqida qayd etadi. 2009-yilda Sh.Hasanova Rizoiyning “Qush tili” dostonini ilk marta nashrini e‘lon qiladi. Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga turkiy tilda bitilgan Gulshahriy (XVI asr) va Alisher Navoiy tatabbulari qatoriga yana bir doston, ushbu Rizoiy asari ham qo‘shildi.

Xoja Qozi Payvandiy Rizoiyning “Qush tili” dostonida hammasi bo‘lib 156 sarlaha mavjud. Bulardan 66 tasi dostonning asosiy boblari sarlavhalaridan iborat bo‘lsa, 33 tasi hikoyat nomlarini tashkil etgan. 53 ta sarlavha Qur‘on suralari va hadislardan keltirilgan arab tilidagi iqtiboslardan iboratdir. Sarlavhalarning hammasi surx bilan ajratib yozilgan. Doston jami 8474 misra, 4237 baytdan iborat [Hasanova, 2016, 12]. Rizoiy dostonning xotima qismida o‘zining asarini tarjima kitob ekanligini qayd etadi:

*Qush tilidan tarjumondur bu kitob,*

*Ko‘rguzur Anqo sori rohi savob* [Rizoiy, 2009, 33]

deb, kitobning qush tilidan tarjima ekanligini va Anqo sari savobli yo‘lni ko‘rsatishini bayon etadi. Biroq maxsus tadqiqot olib borgan olim Sh.Hasanova Rizoiyning ushbu dostoni tarjima emasligini qayd etadi. Asarning o‘ziga xos syujet va kompozitsiyasi, obrazlar

silsilasiga va o‘z g‘oyaviy-falsafiy mazmuni, badiiy-poetik uslubi Rizoiygagina xos asar, deyishga to‘la asos beradi. Chunki bu doston boshqalarnikidan tamomila farq qiladi. Rizoiy mavzuni yoritishda o‘ziga xos yo‘l tutib, uni majoziy talqin usuli orqali bayon qiladi. U so‘fiyona-falsafiy masalalarni qushlar obrazlari orqali yoritib beradi [Hasanova 2016, 33]. Bu o‘rinda biz olimaning fikriga qo‘shilamiz. Chunki asar o‘zigacha yaratilgan dostonlarning syujet chizig‘idan tubdan farq qiladi.

Rizoiy dostonida o‘zigacha yaratilgan asarlar singari qushlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri vodiylarni bosib o‘tmaydi. Uning asarida bu vodiylar iqlim deb atalib, ularga qadam qo‘yishdan oldin o‘nta to‘shani bosib o‘tishlari lozim bo‘ladi. Bular – tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqiblik va rizo to‘shalaridir. “Bu to‘shalarni bosib o‘tgan har bir solik oldida Haq vasliga erishmoq uchun yana yetti iqlimni, ya‘ni yetti botiniy hislatlarni egallashi vojib qilib qo‘yiladi” [Rizoiy 2009, 12]. Doston irfoniy dostonlar uchun xos bo‘lgan *ramali musaddasi mahzuf* vaznida yozilgan.

Asardagi dastlabki to‘sha – tavbadir. Bunda solik shariat man‘ etgan barcha yomon illatlardan voz kechib, yaxshilarini o‘z botinida mujassamlashtirishi lozim bo‘ladi. Mazkur to‘shada Nasuh ismli kishi to‘g‘risidagi hikoya keltiriladi. Bunda Qur‘oniy iqtiboslar va Rasuli Akram sollallohu alayhi vasallamning hadislarini orqali tavba to‘shasida ko‘tarilgan mavzu o‘z yechimini topadi. Zero, tariqat yo‘liga kirgan har bir solikning ilk qadami – tavbadir.

Dedi: – Yo Rab,/ **zulm(i)** qildim,/ bilmadim,

— V — —/ — V — —/ — V —

Kim saning am/ring bila ish/ qilmadim.

— V — —/ — V — —/ — V —

Nasuh iltijo bilan zulm qilganini bilmaganini ham, yaratganning amri bilan ish qilmaganini ham tan oladi va tavba qiladi. Bayt uchun tanlangan **bilmadim, qilmadim** qofiyadosh so‘zlari ayni vaqtda vaznni belgilovchi asosiy vosita hisoblanadi. Chunki **bilmadim, qilmadim** qofiyadosh so‘zlari *foilotun* asliy ruknining *foilun* tarmog‘ida yozilishni taqozo etadi. Birinchi misradagi “**zulm**” so‘zi qator undoshi bilan tugaganligi sababli vazn talabi bilan bitta qisqa “**i**” unlisi orttiriladi.

Ikkinchi to‘sha – zuhddir. Bu maqomning talablari:

*Dunyoning johu jamolindin kechib,*

*Balki bori mulku molindin kechib.*

*Faqr faqo aylamaklik ixtiyor,*

*Puri Adhamtakkim uldir mardikor* [Rizoiy, 2009, 13]

jumlasidandir. Bunga ko'ra haqiqiy solik o'zini dunyoning johu jamolindin, molu boylıklaridan kechib, faqru kambag'allik, sabru toqatlikni ixtiyor qilishdir. Shu tartibda qushlar har bir to'shada soliklik maqomini egallab boraveradi. Lekin bu yo'ldan turli bahonalar bilan qaytgan qushlar ham bor. 30 ta (dostonda 11 ta qush keltiriladi) qushning barchasining ham irodasi bunga yetmaydi. Birinchilardan bo'lib bulbul, keyin to'ti o'z uzrini aytadi. Garchi Rizoiy Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr"ini o'z dostonida tilga olmasa-da, mavzu jihatidan asarlarning bir-biriga yaqinligi sezilib turadi. Dostonda vazn bilan bog'liq saktaliklar kuzatiladi.

Shoirning ushbu dostoni turkiy tildagi allegorik-falsafiy dostonchilikning Gulshahriy va Alisher Navoiy boshlab bergan an'analarining keyingi davrlarda ham samarali davom ettirilganligidan dalolat beradi. O'zbek adabiyoti tarixida Rizoiyning "Qush tili" dostoni qushlar obrazlari orqali o'zida irfoniy qarashlarni aks ettirib, asarda salafining tajribasi ijodiy rivojlantirilganligi va badiiy ijodning yangi namunalari bayon etilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yo'nalishdagi keyingi doston Salohiyning "Bulbul va Gul" dostoni hisoblanadi. Salohiy haqida adabiyotshunoslikda deyarli ma'lumotlar kam uchraydi. "Nurmuhammad Nasafiyning bizgacha yetib kelgan yakkayu yagona asari "Mazhar ul-musannifin" tazkirasidagi ma'lumotlarda keltirilishicha, Salohiy o'zbek tilida "Gul va Bulbul" hamda tojik tilida "Yusuf va Zulayho" dostonlarini yaratgan" [Shodiyeva 2022, 560]. Salohiy "Gul va Bulbul"ning kirish qismida o'z asarini G'urbatiyning "Gulu Bulbul"i ruhida yozganligini qayd etadi:

*Aytib G'urbatiykim bir kitobe,*

*Qo'yub otin Gulu Bulbul kitobi* [Salohiy, №3402. 2b.].

Olim Sharafiddinov tomonidan 1945-yilda tuzilgan "O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi"da Salohiyning "Gul va bulbul" dostonidagi ayrim parchalar kiritilgan. Mazkur parcha 1959-yilda nashr etilgan to'rt tomlik "O'zbek adabiyoti" to'plamining uchinchi tomiga ham qisqartirilgan holatda berilgan. Doston haqida B.Valixo'jayevning "O'zbek epik poeziyasi tarixidan" (1974), X.Rasulovning "O'zbek epik she'riyatida xalqchillik" (1973) kitoblarida nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Adabiyotshunoslikda Salohiyning dostoni "Gul va bulbul" deb nomlanib kelingan. Bu haqida B.Valixo'jayev, X.Rasulovlar ham o'z mulohazalarini bildirishgan. Olimlar mazkur dostonni "Bulbul va Gul" deb atash zarurligini ta'kid etadi. Shoirning o'zi ham dostonni "Bulbul va Gul" deb ataydi:

*Bo'lub ma'shuqu oshiq Bulbulu Gul,  
Bu nazm oti erur ham Bulbulu Gul.*

Yoxud:

*Bayon aylayki ishq i Bulbulu Gul,  
Eshitgil dostoni Bulbulu Gul [Salohiy. №3402. 3b.]*

Anglashiladiki, doston “Gul va bulbul” emas, balki “Bulbul va Gul” deb nomlangan. “Bulbul va Gul” dostonining toshbosma nusxalari O‘zFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 343, 576, 577, 578, 579, 4002, 4248, 4249, 4250, 9143, 9593, 9594, 9595, 11021, 13857, 13858, 13859-raqamli inventarlar bilan toshbosma nusxalari, 3402, 5354-sonli qo‘lyozma kitoblari ham saqlanadi. Shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida ham 420 hamda 1295 raqamli toshbosma nusxalari mavjud. Salohiyning ushbu dostoni hijriy 1153, milodiy 1740-yilda yaratilgan. Bu haqida muallifning o‘zi ma‘lumot beradi:

*Bu kitob tarixi qo‘yningg‘a san quch,  
Bo‘lubon bir ming u yuz yellik uch. [Salohiy, №577. 48b.]*

“Bulbul va Gul” dostoni 44 bob, 732 baytni tashkil etadi. Biroq dostonning 731 bayti tojikcha, 732 bayti esa arabchada bitilgan. Demak, Salohiy ikki tilda emas, balki uch tilda ijod qilgan. Shuningdek asarda 7 ta g‘azal hamda 1 ta munojot ham keltirilgan bo‘lib, ular 39 baytdan iborat.

Dostonda, asosan, Bulbulning Qizil gulga oshiq bo‘lishi va shu syujet bilan bog‘liq epizodlar, Bulbulning qushlar bilan uchrashib, savol-javob qilishi va asar so‘nggida qafasga tushib vafot etishi tasvirlanadi. “Bulbul va Gul” dostonida Bulbul va sakkizta qush (Humoyun, Tovus, To‘ti, Kabk, Qumri, Foxta, So‘fiyo va Hudhud) o‘rtasidagi savol-javobga keng o‘rin berilgan. Bu syujet esa biz yuqorida o‘rgangan dostonlarga begona emas. Balki shuning uchundir Salohiy “Bulbul va Gul” dostonining xotima qismida, asar Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asariga javob tarzida yaratilganligi aytiladi:

*Savoli hol bo‘ldi Mantiq ut-tayr,  
Tamom o‘ldi javobi tammam ul-xayr. [Salohiy, №577. 40b.]*

Shoir bu tarixda “Mantiq ut-tayr”ning so‘rog‘i yaxshi bo‘lganini, asar yaxshilik bilan yakun topganligini aytadi. Faqat doston “Mantiq ut-tayr” yo‘nalishidagi dostonlar o‘lchovida emas, balki “Muhabbatnoma” vaznida yozilgan. Nazarimizda, bu bilan shoir “Mantiq ut-tayr” dostoniga javob yozishni orzu qilganu, lekin uning

vazniga e'tibor bermagan bo'lishi mumkin. X.Rasulov esa "O'zbek epik she'riyatida xalqchillik" risolasida doston hazaji musaddasi maxbun vaznida yaratilganligini qayd etadi [Rasulov, 1973, 27]. Bu ham yanglish fikr. Biz bu o'rinda dostonidan parcha olib, uning tahlilini keltiramiz:

*Jahon ra'no/sig'a bo'lma/ giriftor,*  
V — — —/V — — —/V — ~  
*Aning ishqida bo'lma zo/ru afgor...*  
V — — —/V — — —/V — ~  
*Jahon ra'no/sining yo'qdir/ baqosi,*  
V — — —/ V — — —/V — —  
*Baqosi yo'q/ aning hamda/ vafosi.* [Salohiy, №3402. 82b]  
V — — —/V — — —/V — —

Keltirilgan baytlar ham hazaji musaddasi maqsur, ham hazaji musaddasi mahzuf vaznlarida bitilgan. Har ikki vazn uchun ularga mos o'zak qofiya turlaridan foydalangan. Hazaji musaddasi maqsurda yozilgan baytda ridfi asliyli murdaf qofiyadan (**giriftor, afgor**) foydalansa, hazaji musaddasi mahzuf o'lchovida yaratilgan bayt uchun esa raviy harfi cho'ziq unidan iborat bo'lgan mujarrad qofiyani (**baqo, vafo**) qo'llaydi. Bu bilan shoir har ikki vazn tabiatini dostonida almashtirib istifoda etadi. Shoir vazn ohangini ta'sirli ko'rsatishda tashbih, tanosub, tasbi' she'riy san'atlaridan ham mahorat bilan foydalangan.

Salohiy ushbu asari o'zining mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va obrazlarning talqini nuqtai nazaridan ham shu yo'nalishdagi asarlardan tubdan farq qiladi. Doston obrazlaridagi allegoriya ancha kuchli, chunki asar ma'lum darajada irfoniy falsafa bilan sug'orilgan. Buning uchun Bulbulning qushlar bilan munozarasi epizodiga e'tibor qaratisa, asarda shoir tomonidan ko'zlangan maqsad – uning "ishqi ilohiyga" bo'lgan e'tiqodi va Bulbulning shu yo'lda vafot etgani oydinlashadi. Shu jihatdan "poemadagi Sabo – pir, Bulbul – murid va Gul "haqiqiy" muhabbat sifatida talqin qilingan" [Valixojayev, 1974, 66]. Bulbul "Saboga sen mening pirimsan hamda yo'l boshlaguvchi rahbarimsan" deb o'zining maslahatgo'yi sifatida ko'rsatadi:

*Dedi Bulbul Saboni: "San pirimsan,  
Mani yo'l boshlag'uchi rahbarimsan".*

Dostondagi Humoyun, Tovus, To'ti, Kabk, Qumri, Foxta, So'fiyo va Hudhud kabi qushlar majoziy personajlar bo'lib, ular asardagi turli xarakterdagi, hulq-atvordagi insonlar obrazlarini

gavdalandiradi. Bu bilan shoir o'zi yashagan muhitni to'la to'kis ko'rsatib bermoqchi bo'ladi. Ana shunday tipdagi dastlabki qush – Humoyundir. “Afsonalarga ko'ra Humoyun (qush) noyob, oz uchraydigan qush bo'lib, uning soyasi kimning boshiga tushsa, u odam podsho bo'lar emish” [Rasulov 1973, 17]. Asarda Humoyun o'z xalqini o'ylamaydigan, badnafs, himmatsiz shoh sifatida gavdalanadi. Hatto Bulbul unga qarata: “G'ajirsan it kabi eski so'ngakni, Jarohat aylabon jonu yurakni” – deydi. U garchi shoh bo'lsada, xalqini azoblab, jonu yuragiga jarohat aylab o'z maqsadiga yetishishi bayon etiladi. Shunda Bulbul Humoyunga qarata o'z nafsining xohishiga qarab bormaslikni, qanoatli bo'lishini uqtiradi:

*Hazar qil, borma nafsing xohishig'a,  
Qanoat shamshirin chopg'il boshig'a.*

Salohiy Humoyun timsolida o'zi yashagan muhitning og'irligini anglatmoqchi hamda jamiyatning shunga o'xshash obrazlarni turli qushlar vosita ko'rsatib bermoqchi bo'ladi. Bunda shoir har bir qushga vazifa yuklar ekan ularning tashqi ko'rinishiga ham e'tibor beradi. Xususan, Ziynatga berilgan boy – Tovus, maqtanchoq tabib – To'ti, o'ziga bino qo'ygan hofiz – Kabk (Kaklik), riyokor shayx – Qumri, lof uruvchi oshiq – Foxtak (Qashqarg'urak), yolg'onchi so'fi – So'fiyo (So'fitor'g'ay), Hudhud (Popishak) esa tasbih o'girib o'tiruvchi xudbinlarning tipik vakili bo'lgan insonlarni gavdalandiradi. Bulbul qushlarning siridan ogoh bo'lganidan so'ng, ulardan ajraladi. Sabo bilan birgalikda yori tomon talpinadi.

Dostonda “Bulbulning oxirda qafasga tushib qolib, oh urib o'lgani esa tamoman so'fiyona mohiyat kasb qiladi, ya'ni Bulbul – jasad qafasda uning komil muhabbatining nishonasi – ohi tan – qafasdan qutuladi va o'z muhabbati bilan qorishib ketadi [Valixo'jayev 1974, 66]. Salohiy ham Navoiy singari o'z dunyoqarashini, qarashlarini Bulbul va Sabo orqali ifodalashga harakat qilgan.

Umuman, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Gulshahriyning “Mantiq ut-tayr”, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”, Mavlono Xoji Qozi Payvandiy Rizoyniing “Qush tili”, Salohiyning “Bulbul va Gul” kabi irfoniy dostonlarda vazn va mazmun munosabati o'ziga xos o'ringa ega. Fors adabiyotining yirik vakili Farididdin Attor boshlab bergan an'anani sobit qadamlik bilan Gulshahriy, Alisher Navoiy, Qozi Payvandiy Rizoiy, Salohiy davom ettirdi. Gulshahriy, Alisher Navoiy, Qozi Payvandiy Rizoiy o'zlarining irfoniy dostonlarini an'anaviy ramali musaddasi mahzuf, ramali musaddasi maqsur vaznlarida yaratdi. Faqat, Salohiygina bu an'anadan biroz chekinganday bo'ldi. U o'z dostoniga hazaj bahrining musaddas vaznlarini tanladi.



Shuningdek, "Bulbul va Gul" tarkibiga 3 ta g'azal va bitta munojot singari lirik janrlarni ham kiritdi. Ungacha yaratilgan dostonlarda bu hol kuzatilmagan edi. Balki Salohiy yashagan davrda XVII asrning oxirlariga kelib bu hol tabiiy deb qaralgandir.

### **Adabiyotlar**

Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. 2019. *Navoiyshunoslik*. 520. T.: TAMADDUN.

Алишер Навоий. 1996. *Лисон ут-тайр*. 20 томлик. 12 том. 337. Т.: Фан. Арасли Нўшоба. 1980. *Гулшаҳрий ва Навои*. Адабий мерос, 17-22. №13. Тошкент.

Валихўжаев, Ботир. 1974. *Ўзбек эпик поэзияси тарихидан*. 166. Т.: Фан. *Гулшаҳрийнинг "Мантиқ ут-тайр" асарининг илк икки саҳифаси*. Фотиҳ №2557. Туркия Сулаймония кутубхонаси. 1596-160a. <https://islamansiklopedisi.org.tr/gulsehri.02.09.2022>.

Имомназаров, Муҳаммаджон. 1998. *Хожа Қози Пайвандий Ризоий*. Адабиёт кўзгуси. 76-81. № 1. Тошкент.

Мавлоно Хожа Қози Пайвандий Ризоий. 2009. *Қуш тили*. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Ш.Ҳасанова. 369. Т.: Tezkor-Press Print.

Маллаев, Натан. 2021. *Ўзбек адабиёти тарихи*. 408. Т.: Kafolat print company.

Мамадалиева, Зухра. 2021. *"Лисон ут-тайр" образлари: рамз ва мажоз*. Тошкент.

Мамадалиева, Зухра. 2015. *Ибн Сино ва Ғаззолий: анъана ва ўзига ҳослик*. 96-98. №5. Шарқ юлдузи. Тошкент.

Очилов, Эргаш. 2012. *Заковат бўстони. Фаридиддин Аттор*. Ҳикматлар. 8-9. Т.: O'ZBEKISTON.

Расулов, Холид. 1973. *Ўзбек эпик шеъриятида халқчиллик*. 148. Т.: ФАН. Салоҳий. *Гул ва Булбул тасвири*. O'zRFASHI, қўлёзма инв №3402.

Салоҳий. *Гул ва Булбул тасвири*. O'zRFASHI, тошбосма инв 577.

Аттор, Фаридиддин. 2012. *Ҳикматлар*. 113. Т.: O'ZBEKISTON.

Ҳасанова, Шафоат. *"Тўтинома" ва "Қуш тили" туркумидаги асарларнинг қиёсий-типологик ва текстологик тадқиқи*. Фил.ф.д...дисс. Т.: 2016.

Ҳасанова, Шафоат. 2006. *Мавлоно Хожи Қози Пайвандий Ризоийнинг "Қуш тили" достони ва унинг қиёсий-текстологик тадқиқи*. 104. Т.: ЎЗР ФА Давлат адабиёт музейи.

Ҳожиаҳмедов, Анвар. 1998. *Ўзбек арузи луғати*. Т.: ШАРҚ.

Шарипов, Шарафиддин. 1982. *"Лисон ут-тайр" достонининг генезиси ва ғоявий-бадиий хусусиятлари*. 166. Тошкент: Фан.

Юсупова, Дилнавоз. 2011. *Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги*. Т.: MUMTOZ SO 'Z.

## The relationship of meter and content in philosophical and irfoniy epics

Shahnoza Rakhmonova<sup>1</sup>

### Abstrakt

In this article, the origin, genesis, gradual development of irfoniy epics, principles of development in Turkish and Persian literature are researched. The epics of Fariduddin Attar, Gulshahri, Alisher Navoi, Rezai Payvandi, and Salahi were analyzed. The characteristics of vazn, measurement possibilities, poetic arts, rhyme system in the epics of these creators were studied and analyzed. The article also reveals the relationship between weight and content in irfoniy epics. Also, the article expresses the reaction to the existing views and opinions in literary studies. In order to read epic verses expressively, the events of vasl, imola, tag'yir, and taslim are clarified. In the process of writing the research, the book «From the history of Uzbek epic poetry» by B. Valikho'jaev, the article «Gulshahri and Navoi» by Arasli Noshoba, the book «Genesis and ideological-artistic features of the epic «Lison ut-Tair»» by Sh. Sharipov, Sh. Hasanova's «Bird» by Maulana Khoji Qazi Payvandi Rezai» language» epic and its comparative-textological study» monograph, Z. Mamadaliyeva's «Images of Lison ut-Tair: symbol and metaphor» based on theoretical views. The convenience of Ramali musaddasi mahzuf and Ramali musaddasi maksur vazns for works in the direction of irfoniy epics has been revealed.

**Key words:** *Epic, genre, masnavi, meter, ramal.*

### References

- Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. 2019. *Navoiyshunoslik*. 520. T.: TAMADDUN.
- Alisher Navoiy. 1996. *Lison ut-tayr*. 20 tomlik. 12 tom. 337. T.: Fan.
- Arasli No'shoba. 1980. *Gulshahriy va Navoi*. Adabiy meros, 17-22. №13. Toshkent.

---

<sup>1</sup>*Rakhmonova Shahnoza Muhitdinovna* – Alisher Nava'i Tashkent state university of the Uzbek language and literature Doktorant, PhD.

**E-pochta:** shahnoza.raxmonova86@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-4521-8754

**For citation:** Rakhmonova Sh.M. 2022. "The relationship of meter and content in philosophical and irfoniy epics". *Uzbekistan: Language and Culture* 2 (2): 26-41.



- Valixojayev, Botir. 1974. *O'zbek epik poeziyasi tarixidan*. T.: Fan.
- Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr" asarining ilk ikki sahifasi. Fotih №2557. Turkiya Sulaymoniya kutubxonasi. 159b-160a. <https://islamansiklopedisi.org.tr/gulsehri>. 02.09.2022.
- Imomnazarov, Muhammadjon. 1998. *Xoja Qozi Payvandiy Rizoiy*. Adabiyot ko'zgusi. 76-81. № 1. Toshkent.
- Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Rizoiy. 2009. *Qush tili*. Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi Sh.Hasanova. 369. T.: Tezkor-Press Print.
- Mallaev, Natan. 2021. *O'zbek adabiyoti tarixi*. 408. T.: Kafolat print company.
- Mamadaliyeva, Zuhra. 2021. "Lison ut-tayr" obrazlari: ramz va majoz. Toshkent.
- Mamadaliyeva, Zuhra. 2015. *Ibn Sino va G'azzoliy: an'ana va o'ziga xoslik*. 96-98. №5. Sharq yulduzi. Toshkent.
- Ochilov, Ergash. 2012. *Zakovat bo'stoni. Farididdin Attor*. Hikmatlar. 8-9. T.: O'ZBEKISTON.
- Rasulov, Xolid. 1973. *O'zbek epik she'riyatida xalqchilik*. 148. T.: FAN.
- Salohiy. *Gul va Bulbul tasviri*. O'zRFASHI, qo'lyozma inv №3402.
- Salohiy. *Gul va Bulbul tasviri*. O'zRFASHI, toshbosma inv 577.
- Attor, Farididdin. 2012. *Hikmatlar*. 113. T.: O'ZBEKISTON.
- Hasanova, Shafoat. "To'tinoma" va "Qush tili" turkumidagi asarlarning qiyosiy-tipologik va tekstologik tadqiqi. Fil.f.d...diss. T.: 2016.
- Hasanova, Shafoat. 2006. *Mavlono Xoji Qozi Payvandiy Rizoiyning "Qush tili" dostoni va uning qiyosiy-tekstologik tadqiqi*. 104. T.: O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi.
- Hojiahmedov, Anvar. 1998. *O'zbek aruzi lug'ati*. T.: SHARQ.
- Sharipov, Sharafiddin. 1982. "Lison ut-tayr" dostonining genezisi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. 166. Toshkent: Fan.
- Yusupova, Dilnavoz. 2011. *Alisher Navoiy "Xamsa"sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi*. T.: MUMTOZ SO 'Z.

## Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri

Yoqubova Sevinchoy<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligidagi dolzarb masalalardan biri peyzaj bilan bog'liq badiiy obrazning jadid she'riyatida qo'llanilishi, badiiy-estetik vazifalari tahlil etilgan. Unda mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan peyzaj bilan bog'liq badiiy obrazlar tadqiq etilib, jadid shoirlari ijodida mazkur obrazlarga yangi ma'no va mazmun yuklanganligi yoritib berilgan. Bu esa maqola muallifiga jadid she'riyatining dunyoviy va ijtimoiy mohiyatini chuqurroq anglash va tushunishga imkon yaratgan.

Maqolada Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy she'rlari misolida peyzaj bilan bog'liq obrazlarning XX asr boshlari o'zbek she'riyatidagi o'rni o'rganilgan. Jadid shoirlari ijodida ko'p uchraydigan "quyosh", "oy", "yulduz", "bulut", "barg", "gul", "yo'l", "tong yeli", "shamol", "binafsha", "qish", "ko'klam" singari ko'plab obrazlarning zohiriy va botiniy qirralari kuzatilib, muayyan umumlashmalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** *She'riy asar, adabiy janr, tuyg'u va kechinma, lirik qahramon, badiylik, tasvir, ifoda, obrazlilik, ramz, o'ziga xoslik.*

### Kirish

Istiqloq yillarida xalqimizning ma'naviy yuksalish yo'lidagi imkoniyatlarini kengaytirish, XX asr boshlarida yashab o'tgan ma'rifatparvar ijodkorlar adabiy merosini holisona o'rganishga e'tibor kuchaytirildi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoevning: "Ulug' ajdodlarimizning aql-zakovati va badiiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar, xususan, matematika, mineralogiya, astronomiya, kimyo, tibbiyot, farmatsevtika, me'morlik, tarix, adabiyot, san'at, ilohiyot, falsafa va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki, jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi" [Mirziyoyev 2018, 18], - degan so'zlari milliy ma'naviyatimiz, xususan, adabiy merosimiz

<sup>1</sup>Yoqubova Sevinchoy Islomjonovna - tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** sevinchoy.yakubova@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-4299-0730

**Iqtibos uchun:** Yoqubova, S.I. 2022. "Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2(2): 42-53.

namunalarini o'rganishda o'ziga xos yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi. Shu ma'noda o'zbek va jahon xalqlarining noyob adabiy merosi hisoblangan jadid adabiyotini, xususan, she'riyatini turli nuqtai nazardan tadqiq etish alohida ahamiyatga molikdir.

XX asrning 20-yillariga kelib real hayotga yaqinlashgan badiiy adabiyot millatning ruhini uyg'otishga qaratilgan edi. Adabiyotshunos B.Qosimov Abdulla Avloniyning "Tanlangan asarlar"iga yozgan so'zboshisida shoir ijodini kuzatib, jadid she'riyatiga xos muhim va o'ziga xos yangilanishlarni keltirib o'tadi. Bular: vaznning yangilanishi; poetik janrlarning yangilanishi; poetik obrazlarning yangilanishi; she'rlarning sarlavhalanishi; an'anaviy "hamd" va "na't"lar mazmunining o'zgarishidir [Avloniy 2020, 61]. Ustoz adabiyotshunos tomonidan tasniflangan ushbu xususiyatlar nafaqat, Abdulla Avloniy, balki o'sha paytda yashab ijod etgan ko'pgina jadid shoirlari she'riyati uchun xosdir.

Bu davrda jadid she'riyatining shakli va mazmuni bilan bir qatorda obrazlar olamida ham o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbek mumtoz she'riyatida asrlar osha qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy obrazlar doirasida XX asr boshlariga kelib, evrilish va yangilanishlar yuz bera boshladi. Uzoq yillar davomida ilohiy ishq, inson ma'naviy kamoloti bilan bog'liq tuyg'u-kechinmalarni ifodalashga xizmat qilib kelgan bir qator poetik obrazlar jadid shoirlari she'riyatida ijtimoiy hayot bilan bog'liq muammolarni ifodalashga yo'naltirildi.

Jajji bir tadqiqot doirasida jadid shoirlari she'riyatidagi poetik obrazlarni to'la holda tahlil qilish imkoniga ega bo'lmaganligimiz sababli ushbu maqolada peyzaj bilan bog'liq obrazlarni o'rganib, muayyan umumlashmalarimizni ifodalashga harakat qildik.

### **Asosiy qism**

Adabiyotshunos N.Afoqova aytganidek: "Jadid adabiyoti - an'ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyotdir... Ammo eskilik va yangilik aynan jadid adiblari ijodida - she'riyatda ro'baro' keldi" [Afoqova N. 2006, 9]. Buni biz poetik obrazlar misolida yanada aniqroq tasavvur qilishimiz mumkin.

Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari shoirlar ijodida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar o'ziga xos tarzda qo'llanilgan. Ular she'rlarida bu poetik obrazlarning yangilanishi ko'zga tashlanadi.

Peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar Abdulhamid Cho'lpon she'riyatida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunga shoirning "Somon parcha", "Yorug' yulduzga", "Ko'klam qayg'usi", "Po'rtana", "Binafsha",

“Kuz”, “Tun” va boshqa bir qator she’rlarini misol qilishimiz mumkin. Shoirning peyzaj lirikasida o’zbek jadid she’riyatiga xos “quyosh”, “oy”, “yulduz”, “bulut”, “barg”, “gul”, “yo’l”, “tong yeli”, “shamol”, “binafsha”, “qish”, “ko’klam” singari ko’plab obrazlar ramziy ma’noda qo’llaniladi. Bunday obrazlar mohiyatiga shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari mohirona singdirilgan.

Cho’lpon “Sharq nuri” nomli she’rida shunday deydi:

*Kun ham Sharqdan, oy ham Sharqdan chiqadir,*

*Biroq bir sen G’arbda chiqding va botding;*

*Shuning uchun mening sharqlik ruhimda.*

*Ajib mudhish, qo’rqinch tuyg’u uyg’otding.*

*Sharqning kuni kirsam bulut ostiga,*

*Sening so’nuk kunlaringni o’ylayman.*

*Botib borgan oyga qarab: “Ay yo’qsul,*

*U ulug’ nur senmasmu?” - deb so’rayman [Cho’lpon 1991, 378].*

Avvalo, she’rni o’qir ekanmiz, kunning va oyning qaerda chiqib, qaerda botishi, uning shoir ruhiyatida mudhish, qo’rqinch tuyg’ularni uyg’otishi sababi nimada ekanligi kishini o’yga toldiradi. Biz ushbu misralarni botiniga e’tibor bersak, unda ifoda etilgan ramziylikni tushunishimiz biroz osonlashadi.

She’r 1918-yilda yozilgan bo’lib, unda inqilobdan umidvor shoirning millatni ozod va erkin ko’rish haqidagi orzulari sarobga aylangani badiiy tasvirlangan. Ilm-ma’rifatning azaliy maskani Sharq deb bilgan, o’zini shu o’lkaga daxldorigidan faxr etgan shoir ushbu she’rida millat, uning kelajagi uchun iztirob chekayotgan, XX asrning taloto’mlaridan tashvishga tushgan lirik qahramon dard-kechinmalarini shoirona tasvir etgan. Ushbu she’rda Cho’lpon Misrdan Chin-mochingacha bo’lgan hududlarni tilga oladi. Shoir talmeh san’ati vositasida Umar Xayyom, Bedil singari ulug’ shoirlarni esga olib o’zining Sharq she’riyatining maftuni ekanligini badiiy ifodalaydi.

Cho’lpon bulut, nur, oy kabi an’anaviy ramziy obrazlar vositasida millat boshiga kelgan qora kunlardan chuqur iztirob chekadi. She’rda yurtining qayg’uli kunlari botayotgan kunga, ya’ni, quyoshga, bulut to’la osmonga qiyoslanadi. Sharqli inson sifatida fikr yuritayotgan shoir nafaqat o’zbek millati, balki butun Sharq xalqi uchun qayg’uradi. Nido san’ati vositasida tuyg’u va kechinmalar ta’sirchan yoritilgan.

She’rning lirik qahramoni taqdir oldida taslim bo’lishni istamay “ulug’ nur” dan, ya’ni vataning yorug’ kunlaridan umidvorlik

tuyg'usini hamisha his qilib yashaydi.

*To'g'rilik quyoshi chiqqanda bo'shalib,  
O'z uchmohimga o'zim kirayin!... [Cho'lpon 1991, 381].*

“Mening tovushim” she'ridan olingan ushbu misralarda esa shoir quyosh ramzidan foydalanganini ko'rishimiz mumkin. O'zini xalqdan ajratmay, uning bir zarrasi deb bilgan shoir lirik “men”i qachonlardir, to'g'rilik quyoshi chiqishini, millat o'z orzusidagi hayotga erishishini chin yurakdan tilaydi va anashu kunlar kelganda o'zini jannatdagidek his qilishiga ishonadi. Ushbu misralar mohiyatiga kelajakka umidvorlik tuyg'ulari mohirona singdirilgan.

Cho'lponning tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlarining botinida erk haqidagi orzularini ko'rishimiz mumkin:

*Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri,  
Bu yerdan ko'klarga uchgil [Cho'lpon 1991, 452].*

Cho'lpon tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik va hamohanglik zarurligini, bu jamiyat va insoniyat uchun tabiiy ehtiyoj ekanligini kuyunib yozadi.

“Somon parcha” she'rida ham shu holat yaqqol namoyon bo'ladi:

*Muhit girdobida bir somon parcha,  
Bir poxol cho'pidek oqib boraman  
Har amal, har ishni “haq” deb boraman,  
Vazminim qolmadi bir uzuq qilcha [Cho'lpon 1991, 481].*

Shoirning ushbu she'rida tushkunlik kayfiyati ustunlik qiladi. Unda lirik qahramon ruhiyatida umidsizlik va ilojsizlik tufayli paydo bo'lgan iztiroblar namayon bo'ladi. Ammo bu uniig yo'lidagi oxirgi nuqta, so'nggi to'siq emas. She'rdagi “muhit girdobi” obrazi XX asrning birinchi yarmidagi ko'pgina odamlarning umri zavoli, gunohu adashuvlari, armonlari, afsus-nadomatlarini ifodalashga qaratilgan. O'zini bir somon parcha deb bilgan lirik qahramon ham endilikda o'z davri-muhitining girdobida bir poxol cho'pdek oqib boradi. U endi «har amal, har ishni «haq» deb» yashamoqqa mahkumdir. Chunki kurashlardan charchab, o'zini muhit erkiga topshirgan.

Shoir “Barg” she'rida esa shunday yozadi:

*Ariqda suvlarning o'ynoqi qo'shig'i  
Shoxlarda uxlagan barglarni uyg'otdi,  
Ayniqsa, shamolning u yumshoq sho'xligi  
Shoxlarda barglarni titratdi, o'ynatdi...*

*O'pmayman shu chog'da farishta malakni,  
O'paman butoqda titragan bir bargni* [Cho'lpon 1991, 436].

Tabiat sirlarini tushunish insonga hayot hodisalarining mohiyatini anglashda ham katta yordam berishini yaxshi tushungan shoir o'z she'rlarida xilma-xil betakror tabiat lavhalarini yaratadi.

Cho'lponning ushbu she'rida ko'tarinki kayfiyat, hayot-sevarlik, kelajakka umidvorlik ruhi ustivordir. U bahor paytida tabiatning uyg'onishidan ajib go'zallikni his qila oladi. Ariqlarda suvlarning shildirab oqishi lirik qahramon qalbiga o'ynoqi qo'shiqdek ta'sir ko'rsatadi. Uning ohangi esa shoxlardagi barglarni uyg'otadi, shamolning sho'xligi esa barnglarni titratib, o'ynatib yuboradi. Bunda shoir tashxis san'ati vositasida tabiatdagi ro'y bergan o'zgarishlarni nozik tasvirlaydi. She'rning oxirgi misralarida shoir go'zallikda tengsiz farishta malaklardan ko'ra butoqda titrab turgan bargni afzal ko'radi.

Ko'rinadiki, she'rdagi barg - tiriklik, yasharish faslining, umrning eng go'zal payti ramzidir. Shoir u orqali hayotni qariga yetish, uning go'zalligidan bahra olish haqida fikr yuritadi.

Cho'lpon she'riyatining o'ziga xosligi shundaki, uning lirik qahramoni barning shitirlashidan ham musiqiy ohangdorlikni tuya oladi.

*Yo'llaringda "shitir" etsa so'lgan barg,  
Qulog'imga musiqalar keltirur;  
Qachon sening musiqali ovozing,  
Sening meni "suyganingni" bildirur?...* [Cho'lpon 2016, 3].

Shoir yorni go'zallarning malikasi, samoviy chiroyga ega qiyofada tasvirlaydi. Mashuqa qadam tashlagan yo'llardagi so'lgan barning shitirlashi ham oshiqqa musiqaday eshitaladi. Zotan, shoirning lirik qahramoni - umidvor va vijdoni pok oshiq. U so'nggi umidlariga ishonib, ishqining asl manbai - ilohiy qudratdan, ko'ngil tilaklaridan kuch oladi.

Cho'lponning peyzaj lirikasida "Ko'klam qayg'usi" she'ri alohida ajralib turadi. Qish xayolidan endigina qutila boshlagan lirik qahramon ko'klam payti uqubatli uzun qish kechalarini eslashniyam xohlamaydi. Ammo orziqib kutgan ko'klam ham unchalik quvonchli emas. Shoir bu holatni "Ko'klam chog'i ... Sayroq bulbul sayramas, Na uchunkim, tanburimning tili yo'q" - deya tasvirlaydi. She'rning keyingi misralari nafaqat g'oyaviy yo'nalishi, balki obraz va ifodalarga boyligi bilan ham e'tiborga molikdir.

*Yolg'iz menmi ko'klam chog'i yig'lagan?  
Yolg'iz menmi har umidda aldangan?  
Yolg'iz menmi ko'kragimni tig'lagan?  
Yolg'iz menmi sevinch bilan bo'lmagan?  
Ey ko'klamning ko'z tortg'uvchi kelini,  
Nima uchun yig'latasan bir meni? ... [Cho'lpon 1991, 451].*

She'rda ko'klam paytidagi tushkun holat bilan bahorning betakror go'zalligi o'zaro parallel holda tasvirlangan. Iztirob, yig'i, aldanish singari tuyg'ular lirik qahramon qalbiga azob beradi. Ko'klamdan katta umidlar kutgan lirik qahramon o'z maqsadiga erisha olmaydi. Uning orzusi xalqini erkin va ozod ko'rishdir. Mazkur o'rinda ko'klam, qish singari poetik obrazlar ramziy ma'noda kelgan bo'lib, ular orqali shoir o'z qarashlarini shoirona ifoda etgan. Ushbu misralarda tTajohilu orif va anafora mahorat bilan qo'llanilgan.

Jadid shoirlarining peyzaj lirikasida yil fasllari tasviriga ham alohida ahamiyat berilgan.

Mumtoz she'riyatda uzoq asrlar davom etib kelgan yil fasllari tasviri bilan bog'liq an'analar mavjud bo'lib, shoirlarimiz ijodida bahor, yoz, kuz, qish tasviriga maxsus she'rlar yaratilgan. Yil fasllari shoirlarimiz uchun tabiat ko'rki-jamolini tasvirlash bilan bir qatorda inson ruhiy olamini yoritish, muayyan ijtimoiy muammoni aks ettirishda vosita rolini o'tagan. Bunday o'rinlarda adabiyotshunos Yo.Is'hoqov ta'kidlaganlaridek: "...peyzaj tasviri falsafiy, didaktik yoki ijtimoiy ruhdagi biror g'oya, maqsadni ifoda etish uchun o'ziga xos vosita rolini o'taydi" ...[Is'hoqov 1983, 22].

Nafaqat lirik she'riyat, balki katta ko'lamdagi asarlarda ham tabiat tasviriga keng murojaat etilgan. Bunga Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlaridan misollar keltirish mumkin. Alisher Navoiy Farhod, Layli, Majnun, Bahrom, Iskandar kabi qahramonlarining ruhiyatini ochishda peyzajdan mohirona foydalangan.

XIX asr Xorazm adabiy muhitining yetuk vakili Ogahiy ham peyzaj yaratish an'anasini mahorat bilan davom ettiradi, ayniqsa, uning fasllar vasfiga bag'ishlangan she'rlari e'tiborga molikdir:

*"Navbahor ayyomi bo'lsa har kim aysh-u bog'siz,  
Loladek bir lahza g'amdin ko'ngli ermas dog'siz.*

*Kimsa bo'lsa bog'-u bo'stonsiz, agar fasli bahor,  
O'yla nahlidurki bo'lg'oy shohau yafrog'siz [Ogahiy 1971, 220].*

Ogahiyning bahor tasviriga bag'ishlangan mazkur g'azalida g'amginlik ruhi mujassamdir. Undagi navbahor, lola, bog', bo'ston,



shox, yaproq soʻz-tushunchalar orqali gʻamginlik, mahzunlik, shuningdek muayyan darajada norozilik tuygʻulari ham ifodalanadi. Sheʻrda tabiatning bahor ayyomidagi goʻzal manzarasiyu, jamiyatdagi iqtisodiy nochor insonlar bir-biriga qarshi qoʻyiladi. Tabiat manzarasi va inson taqdiri bogʻliqlikda aks ettiriladi [Matyoqubova 2010, 130].

XX boshlari oʻzbek sheʻriyatida asosan, inson dardini tabiat voqea-hodisalariga bogʻlab tasvirlagan koʻplab sheʻrlarni uchratamiz. Bu anʻanalar jadid shoirlarining koʻpchiligi sheʻriyatida ham ijodiy davom ettirildi.

Avloniy sheʻriy merosida yil fasllariga bagʻishlangan alohida turkum sheʻrlar mavjud. Ularning har biri yuksak eʻtirofga loyiqdir. Jumladan, “Bahor” sheʻrida shoir mehnat va harakatda boʻlishning foydalari haqida soʻz yuritadi:

*Har kim nima eksa, albat, shuni oʻrodur,  
Ekmagʻanlar oʻzgalargʻa muhtoj boʻlodur.  
Keling, biz ham ekinimiz boshlab ekamiz,  
Imtihonda ekgʻanimiz oʻrib yigʻamiz.*

*Har kim avval bahorini oʻtkarsa bekor,  
Yoz kelganda Hijron boʻlur, ul Tangri bezor* [Avloniy 2006, 201].

Maʻrifatparvarlik ruhi yetakchilik qilgan ushbu sheʻrdagi bahor va yoz obrazlari shubhasiz, ijtimoiy hayot bilan bogʻliq maʻno-mazmun ifodalaydi. Xalq maqollaridan unumli foydalana olishi ham shoirning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Shoir “Har kim ekanini oʻradi” maqoli vositasida fikrni taʻsirchan ifoda etgan. Sheʻrdagi bahor – mehnat, ilm egallash, oʻqib-oʻrganish, yoz – imtihon, sarhisob ramzini ifodalab kelgan. Shoir ushbu obrazlar orqali bolalarni bilimlarni chuqur egallashga, maʻrifatga daʻvat etadi.

Avloniyning “Yoz” nomli sheʻr esa yuqoridagi sheʻrning mantiqiy davomidek tuyuladi:

*Gʻayratlilar gʻamini er vaqtinda,  
Tirtishub ishlaydur gʻanimat kunda.  
Ishyoqmaslar yozda yurar guldurab,*

*Qish kelganda qolgay koʻzi moʻltirab* [Avloniy 2006, 201].

Shoir ushbu sheʻrida mehnatsevarlik ruhi ustuvorlik qilib, tinimsiz mehnat qilib, ter toʻkkan inson albatta, shodlikka erishishini, zahmatkash inson undan rohat topishlari haqida fikr yuritadi. Gʻayratli va ishyoqmas bir biriga zid qoʻyilib, tazod sanʻati



qo'llanilgan.

“Kuz” nomli she'rida ham Avloniy purma'no fikrlarini davom ettiradi:

*Kuz kuni ko'zlara yamon ko'rinur,  
Yafrog'i misli za'faron ko'rinur.  
Meva o'rniga bog' – u bo'stonda,  
Shaldirab qaqshagan xazon ko'rinur.  
Gullar o'rnida xor ila xashak.  
Bulbul o'rnida zag'izg'on ko'rinur.  
Ketgay Odam Atoni jannatidek,  
Jo'ylari bir sovur yilon ko'rinur.  
Yozni ko'rding, kuzni ham ko'rasan,  
Shodlig' ortidan fig'on ko'rinur [Avloniy 2006, 202].*

Kuz fasliga bag'ishlangan bu she'r orqali shoir bahor va yozda nafsga berilib, vaqtini behuda o'tkazgan, mehnat qilmay dangasalikni kasb qilganlarni tanqid ostiga oladi. Nafsga qul bo'lishda davom etsalar, hademay boshga qilich ko'tarib qahraton qish ham kirib kelishi mumkinligidan ogohlantiradi. She'rdagi yoz – mehnat, zahmat chekish, kuz-hazon, yig'im-terim, qish – mashaqqat, qiyinchilik fasli sifatida beriladi. Didaktik ruhdagi ushbu she'r mohiyatiga “qish g'amini yozda ko'r” maqoli mazmuni singdirilgan.

Shoir “Qish” she'rida shunday yozadi:

*Kelsa qish, bo'lsa sovuq, har kimg'a me'yoringa vor:  
Yo'qq'a – yo'xcha, borlarga – borincha vor.  
Boylar yog'liq palovni tanchada g'amsiz emas,  
Kambag'allar och-yalang'och chekg'on ozorincha vor.  
Yerlarga tushgan qirovlar ham daraxtda bulduruq,  
Yozni yashnab o'sadurgon sabza gulzorincha vor.  
Qish kuninda ho'l o'tinning achchig'i,  
Yoz kunining mushki totorincha vor [Avloniy 2006, 202].*

Abdulla Avloniyning ushbu she'rida qishning inson hayotidagi o'rni o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Shoir “bor-boricha, yo'q holicha” maqoli mazmunini she'r mohiyatiga singdirib, qishning sovuq va izg'irinli kunlari kishilar uchun mashaqqat ekanligiga urg'u beradi.

She'rda qishning ijtimoiy hayot bilan bog'liq jihatlarini tasvirlash bilan bir qatorda bu faslning o'ziga xos, betakror qirralarini ham yoritiladi. “Yerlarga tushgan qirovlar ham daraxtda bulduruq, Yozni yashnab o'sadurgon sabza gulzorincha vor”. Bunda yerga tushgan qirovlar, daraxtlardagi bulduruqlar yozdagi sabza

gulzorlardan kam emasligi ifodasi orqali qishning o'ziga xosligiga e'tibor qaratiladi.

Umuman, Abdulla Avloniyning yil fasllariga bag'ishlangan she'rlari nafaqat real hayot voqeligini nazarda tutuvchi, ramziy ma'noda esa inson umriga ham ishora qiluvchi ijod namunalari. Ularda umrimizning bahorini ya'ni yoshlik yillarimizni behuda o'tkazmay, doimo harakat va izlanishda bo'lsakgina baxt-u saodatga erishishimiz mumkinligi targ'ib etilgan.

Abdulla Avloniy ijodida "gul" obrazi ham o'ziga xos o'rin tutadi:

*Xor alindan bag'ri qon o'lmish, bo'yanmish qona gul,  
G'uncha bag'rin chok etub, afg'on qilur afsona gul...*

*Yuzdagi holi emas, zolim tikonning yorasi,  
Kecha – kunduz zahmi g'am birlan butun o'rtona gul...*

*Subhidamda yuzlarindan mavj uran shabnam emas,  
Xor zulmindan to'kar ko'z yoshini durdona gul* [Avloniy 2006, 205].

Bu she'rdagi obrazlar ma'shuqa go'zalligiyu, oshiq izzitroblari ni ifoda etmaydi. "Gul" obraziga chuqur ijtimoiy mazmun yuklangan bo'lib, gulning qizilligi xordan chekkan izzitroblari, g'unchaning gulga aylanishi barini choq qilishi, yuzidagi hol emas, zolim tikanning yarasi, subhidamdagi tomchilar esa shabnam emas, gulning ko'z yoshlaridir. Bunday tasvirlar mustamlakachilik istibdodidan bag'ri qon bo'lgan xalqning ramziy ifodasidir.

Hamza she'riyatidan ham yil fasllari vasfiga bag'ishlangan ko'plab misollarni keltirish mumkin:

*Bu Nihon qon yig'layur millat uchun laylu nahor,  
Yoz o'tub, qish keldi holo, bizga bo'lgan yo'q bahor,*

*Sarsari bodi jaholat qilmak istar tor-u mor,  
Chora shul: maktab ochaylik, shoyad o'lsun sabzalar,*

*Ey musulmonlar, qachon bir darda darmon istariz?  
Millata shavkat, taraqqiy, sha'nu davron istariz?* [Hamza 1988, 14].

Adabiyotshunos T.Matyoqubovanning ta'kidlashicha: "Mumtoz shoirlar ijodida ko'pincha qish baxtsizlik va musibat, kulfat, bahor yoshlik va go'zallik, mehnat va farog'at ramzi sifatida ifodalansa, kuz-

hazon fasli sifatida tushkun bir kayfiyatning bo'lajak fojeaning darakchisi tarzida tasvirlanadi" [Matyoqubova 2010, 90].

Hamzaning yuqoridagi misralarini shu nuqtai nazardan tahlil qilsak, yoz, qish, bahor ramziy ma'noda qo'llanilgan. Millat uchun qon yig'layotgan lirik qahramon yaxshi kunlar o'tib, qayg'u-li, musibatli kunlar boshlanganini yoz va qish ramzlari orqali ifoda etadi. Farog'atli kunlarni bahor ramzi orqali ifodalayotgan shoir uchun millat dardiga davo bu maktab ochib ma'rifatga erishishdir. Bu esa xalqni taraqqiyotga boshlaydi.

Ushbu she'rda millat va xalq kelajagi uchun iztirob chekayotgan lirik "men"ning ichki kechinmalari shoirona ifoda etilgan. Unda shoir fikr qarashlari turli obrazli ifoda va ramzlar orqali tasvirlangan.

### **Xulosa**

O'zbek adabiyoti tarixida jadid she'riyatining o'rni katta bo'lib, u nafaqat g'oyaviy yo'nalishi, balki badiiy o'ziga xosligi bilan ham yangi taraqqiyot pog'anasiga ko'tarilgan.

XX asrning boshlarida jadid she'riyatining shakli va mazmuni, obrazlar olamida yangilanishlar yuz bera boshladi. Asrlar osha ishq va u bilan bog'liq tuyg'u-kechinmalarni yoritishga qaratilgan bir qator an'anaviy obrazlar jadid shoirlari ijodida davr, zamon va ijtimoiy hayot bilan bog'liq muammolarni ifodalashga yo'naltirilgan.

Peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlarning jadid she'riyatida qo'llanilishi o'ziga xos bo'lib, u orqali shoirlarimiz olam, odam, jamiyat, tabiat va inson haqidagi badiiy qarashlarini tasvir etishgan. Peyzaj bilan bog'liq obrazlar jadid she'riyatining dunyoviy va ijtimoiy mohiyatini yanada chuqurlashtirgan.

Cho'lpon, Avloniy, Hamza singari shoirlar ijodida yil fasllari, tabiatning turfa xil manzaralari lirik qahramon ruhiy olami bilan bog'liqlikda tasvirlanadi. Bunda tabiatning ma'lum bir lavhasi yoki manzarasi ijodkor qalamida poetik obraz shakliga kiradi va uning badiiy maqsadi yo'lida xizmat qiladi.

Jadid shoirlari ijodida millatparvar lirik qahramon siymosini chizishda, erk, ozodlik, hurlik haqidagi qarashlarini ifodalashda, she'riyatning botiniy mazmunini yanada kuchaytirishda peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar muhim vosita rolini o'tagan.

### **Adabiyotlar**

- Мирзиёев, Шавкат. 2018, 18 май. *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*. Тошкент.  
Авлоний, Абдулла. 1998. *Танланган асарлар*. 2 жилдлик. 1-жилд. Т.:

Маънавият.

Афоқова, Нодира. 2006. *Ўзбек жадин адабиётида шеърий шакллар тараққиёти тамойиллари*. Филол. фан. докт. дисс... автореф. Тошкент.

Йўлдошев, Нормат. 1994. *Чўлпон шеъриясида пейзаж*. Филол. фан. номз. дисс. автореф. Тошкент.

Матёқубова, Тозагул. 2010. *Поэтик идрок ва маҳорат*. Тошкент: Фан ва технология.

Чўлпон. 1991. *Яна олдим созимни*. Т.: Адабиёт ва санъат.

Чўлпон. 2016. *Асарлар*. 4 -жилдлик. 1-жилд. Т.: Академнашр.

Қуронов, Дилмурод. 1998. "Йўл эсдалиги" да тағмаъно қатламига доир. *Шарқ юлдузи*. 1: 162. Тошкент.

Ҳамза, Ҳакимзода Ниёзий. 1988. *Тўла асарлар тўплами*. 5 томлик. 2-том. Т.: Фан.

## Description of poetic images related to landscape in Jadid poetry

Yakubova Sevinchoy<sup>1</sup>

### Abstract

This article analyzes the use of the artistic image related to the landscape, which is one of the topical issues in literary studies, in modern poetry, and its artistic and aesthetic functions. It analyzes the artistic images related to the landscape widely used in our classical literature, and it is explained that new meaning and meaning are given to these images in the works of modern poets.

This allowed the author of the article to gain a deeper understanding of the worldly and social nature of modern poetry. The article examines the role of images related to the landscape in Uzbek poetry of the beginning of the 20th century on the example of the poems of Cholpon, Abdulla Avloni, Hamza Hakimzada Niyazi. «sun», «moon», «star», «cloud», «leaf», «flower», «road», «morning», «wind», «purple», «winter», which are often found in the works of Jadid poets. the external and internal aspects of many images such as «koklam» were observed and certain generalizations were made. Keywords Image, modern poetry, tradition, originality, poem, verse, artistry, inner content.

**Key words:** *poetic work, literary genre, emotions and experiences,*

---

<sup>1</sup>Sevinchoy Yakubova, applicant for PhD researcher of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**E-pochta:** sevinchoy.yakubova@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-4299-0730

**For citation:** Yakubova S. 2022. "Description of poetic images related to landscape in Jadid poetry". *Uzbekistan: Language and Culture* 2(2): 42-53.

### **References**

- Mirziyoyev, Shavkat. 2018, 18 - may. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. Toshkent.
- Avloniy, Abdulla. 1998. *Tanlangan asarlar*. 2 jildlik. 1-jild. Toshkent: Ma'naviyat
- Afoqova, Nodira. 2006. *O'zbek jadid adabiyotida she'riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari*. Filol. fan. dokt. diss... avtoref. Toshkent.
- Yo'ldoshev, Normat. 1994. *Cho'lpon she'riyatida peyzaj*. Filol. Fan. nomz. diss... avtoref. Toshkent.
- Matyoqubova, Tozagul. 2010. *Poetik idrok va mahorat*. T.: Fan va texnologiya.
- Cho'lpon. 1991. *Yana oldim sozimni*. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Cho'lpon. 2016. *Asarlar*. 4 -jildlik. 1-jild. T.: Akademnashr.
- Quronov, Dilmurod. 1998. "Yo'l esdaligi" da tagma'no qatlamiga doir. *Sharq yulduzi* 1:162. Toshkent.
- Hamza, Hakimzoda Niyoziy. 1988. *To'la asarlar to'plami*. 5 tomlik. 2-tom. T.: Fan.

ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI

## Yozuvchi biografiyasi va bola ruhiyati o'ziga xosligi

Ruxsora Tulabayeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada o'zbek bolalar adabiyotining yirik namoyandasi yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboev asarlari tahlilga tortilgan bo'lib, ularda o'smir ruhiyati ifodasi, shuningdek, bola ruhiyatini tasvirlar ekan, unda yozuvchi biografiyasining qay darajada ishtirok etishi masalasiga ham batafsil to'xtab o'tilgan. Aslida, Har qanday badiiy asarda qaysidir darajada yozuvchining biografiyasi aks etishi tabiiy. Zero, yozuvchi asar yozar ekan, uning hayoti davomida duch kelgan voqealari hamda kechirgan his-tuyg'ulari o'sha asarda muhrlanib boradi. Biz yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboev asarlari tahliliga to'xtalar ekanmiz, ularda, avvalo, yozuvchining hayot yo'li, xarakteri (tabiati) aks etishini ko'ramiz.

Shuningdek, maqolada bugungi o'zbek bolalar adabiyotidagi bosh muammo – bola tarbiyasida uning ruhiyati birlamchi ekanini badiiy asarlar misolida yoritib berildi. Bolalar uchun yozigan badiiy asar bola ruhiyatining in'ikosi ekani ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** *yozuvchi, bola ruhiyati, biografik metod, yozuvchi biografiyasi, keksalar ruhiyati, komizm, mahorat, tahlil.*

### Kirish

Bolalar asarlari bolalar dunyosini aks ettirish bilan bir qatorda yozuvchining biografiga oid o'rinlarni ham aks ettirishi bilan xarakterli. Ularda qahramonlar ichki olami yozuvchining ham ma'naviy olamine ham namoyon etib turadi.

Yozuvchi har bir asarda o'zi va qahramon psixologizmini namoyon etishini aytib o'tdik. Demak, qahramonda yozuvchining o'zligi ham yashaydi. Lekin bu – qahramon aynan yozuvchining o'zidir, degan xulosaga olib kelmaydi. Chunki ayrim o'rinlarda qahramon

---

<sup>1</sup>Tulabayeva Ruxsora Sayfullayevna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-mail:** rtulaboyeva@navoiy-uni-uz; rtolaboy@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-7013-400X

**Iqtibos uchun:** Tulabayeva, R.S. 2022. "Yozuvchi biografiyasi va bola ruhiyati o'ziga xosligi". *O'zbekiston: til va madaniyat*: 2(2): 54-62.

yozuvchidan uzoqlashgan holda harakat qiladi. Biz bu o'rinda qahramonning o'ziga xosligini kuzatish imkoniga ega bo'lamiz.

X.To'xtaboyev asarlari, asosan, birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. "...roviiy bir yo'la bir necha vazifani bajaradi. Birinchidan, u voqealarni so'zlab beradi (yozuvchi funksiyasini bajaradi). Ikkinchidan, hikoya qilish orqali kitobxonga zavq-shavq beradi. Uchinchidan, roviy estetik kitobxon vazifasini ham bajaradi. Ya'ni uning o'zi ro'y berayotgan holat, hikoya tarzidan zavq oladi. Estetik kitobxon, oradan qancha zamon o'tmasin, yangi-yangi kitobxonlarga peshvoz chiqadi" [Rasulov 2009, 157-158]. Shu ma'noda, adib yaratgan qahramonlar bola-kitobxonlarning o'rtoq-hamdardlariga aylanadi.

### **Asosiy qism**

Roviiy hikoyalaridan dastavval hazil-mutoyiba ohangining yuqori ekanligi anglashiladi: "... Shu paytda qorin masalasida shikoyatim yo'q hisobi. Undan keyin atrofda: "Hoy, Mulla Hoshim, quloq o'zimizga ham kerak" – deb tanbeh beradigan biron kimsa ham ko'rinmaydi. Shartta ashulani boshlab yubordim:

*Xoh g'o'zam, xoh-xoh g'o'zam,*

*Hosili oppoq g'o'zam, –*

Deyman-u, buralib-buralib o'yinga tushib yuboraman. Keyin ikki qo'limni biqinima qo'yib, egilib, g'o'zalarga salom beraman-da:

*Xoh g'o'zam, xoh-xoh g'o'zam,*

*Hosili oppoq g'o'zam, – deb kuylab yo'lda davom etaman"* [To'xtaboyev 1982, 28]. Boladagi quvnoqlik, so'zga chechanlik, vaziyatni o'zicha idrok qilish – aslida bularning hammasi yozuvchi tabiatiga uyg'un keladi. Chunki Xudoyberdi To'xtaboyevning o'zi shunday bola qalbli, haqiqatgo'y inson. Adib hamisha bolalar davrasida, bolalar bilan muloqotda bo'lib kelgan. U pedagoglik faoliyatida ham, yozuvchilik faoliyatida ham, hatto hozirigi kunda televideniyaedagi faoliyatida ham bolalar bilan hamnafas ishlamoqda. Shunday ekan, bu bolalarga yaqinlik adibning ruhiy dunyosida namoyon bo'lmasligi mumkin emasdi. Bolalar bilan muntazam uchrashuvlar, suhbatlar adibning bola ruhiy olamiga yanada chuqurroq kirishiga xizmat qildi. Yozuvchi bolalar uchun yozilgan har bir asarida o'zini aynan o'sha bola o'rnida tasavvur qilgan, buning natijasida bola qalbi asarda teran aks etgan. Bunga biz yuqorida batafsil to'xtalib o'tdik.

Ma'lumki, Xudoyberdi To'xtaboyev 300 dan ortiq felyeton yozgan. Felyeton jamiyat manfaatlariga, qonunga zid borganlarga



qarshi yoziladi. Yozuvchi “Sariq devni minib”, “Mungli ko‘zlar” romanlarida militsiya xodimlari obrazlarini ishonarli yaratgan. Buning sababi, u felyetonnavislik faoliyatida turli jinoyatlarni, illatlarni fosh etish uchun tinimsiz kuzatuvlar olib borgan. Buning natijasida, jinoyatlar va illatlarning “koni”ni, ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni topib, aniq, mantiqiy xulosalar chiqarishga erishgan. Bu xususiyat ham uning asarlarida aks etmay qolmadi. A.Rasulov fikricha, X.To‘xtaboyev qaysi asarida qonun himoyachilari va qonunbuzarlar haqida yozsa, qalami erkin harakat qiladi. Chunki yozuvchi jurnalistlik kasbi tufayli qaltis holat, vaziyatlarni kuzatgan. Felyetonnavislik – qonunga suyanib ish yuritish yozuvchi tabiatiga singib ketgan. “Sariq devni minib” romanidagi ikki muhim qonunbuzarlik tarixi tasviri haqida to‘xtalamiz. Biri, Uzunquloq pirim ziyoratgohidagi firibgarliklar. Ikkinchisi, “Rohat” oshxonasi direktori Odil Abbosov (yoxud Odil battol) bilan polkovnik Salim Otajonov, polkovnik Ali Usmonov boshliq militsiya xodimlari aro hayot-mamot jangi. Har ikkala tarix detektiv tarzida tasvirlanadi. Yong‘oq qori, Bodom qori, Danak qorilar firibgarlik bilan xalqni aldab yotibdilar. Ular xaloyiq ko‘ziga farishta, hojatbaror bo‘lib ko‘rinadilar. Aslida esa odamlarni aldab, o‘z manfaatlari yo‘lida xizmat qildiruvchi firibgarlar edi. Hoshimjon sehrli qalpoqchani kiyib, ularning sirini birin-ketin fosh eta boshlaydi.

Yong‘oq qori o‘zini avliyo darajasidagi bir tabib deb ko‘rsatadi. Odamlarning uylariga kirib borib, ularning uyida kasal yotgan odam borligi, bu unga “xobida” ayon bo‘lganini, davosini ham o‘zi qilajagini aytadi. Evaziga odamlardan nima kerak bo‘lsa (pulmi, boylikmi), shuni talab qiladi. Uning bu “ishi”ga buvisining qistovi bilan shogirdlikka topshirilgan Hoshimjon aralashib qoladi va qing‘ir ishlarning guvohiga aylana boradi. Dastlab bola hayratdan lol bo‘lib qoladi, chunki qori pochchasining hayratga solib qo‘yadigan “amallari” ko‘p edi-da. Qori pochchaning tavsiyasi bilan kasal bolasini so‘yilgan sariq qo‘yning terisiga o‘rab, yetti xil mevaning novdasi bilan savalashgan, lekin buning natijasida kasali zo‘rayib ketib o‘lib qolgan bolaning onasi diydiyo bilan kelib qoladi. Yong‘oq qori aybini tan olmaydi, bolaning o‘limiga hech bir aloqasi yo‘qligini, buning ustiga u kasal bola ham, ismi ham “xobida” ayon bo‘lganini uqtiradi. Ammo bu ishlarning barchasida Hoshimjon bor edi. Qori pochchasining “xobida” ayon bo‘lmaganini, odamlar haqidagi ma‘lumotlarni uning o‘zi yig‘ib kelib, qori pochchasiga aytib berar edi. Bunday nohaqlik, yolg‘onni ko‘rib, bola chiday olmaydi: “Bo‘talog‘im!” deb, orqamni silab qo‘yishlarida gap bor ekan-da. Shartta o‘rtaga chiqdim:



- Xolajon, meni taniyapsizmi?
- Yo'q, seni tanimayman.
- Uyingizga kirib o'g'lingizning ismini, kasali nima ekanligini so'ragan edim-ku?
- Voy esim qursin! Kirgan eding, kasal qarindoshimizni axtarib yuribman, degan eding...

Shundan keyin butun voqeani to'planganlarga shartta-shartta gapirib berdim. Zodiyon, Makiyon, Elash, To'lash degan qishloqlarga ham borib, kasallarni surishtirib kelaman deb, yo'llarda rosa itlarga talangan edim. Ana shulargacha hammasini gapirib berdim" [To'xtaboyev 1982, 154].

Yong'oq qorining bunday kirdikorlari mantiqiy izchillik bilan fosh etiladi. Chunki yozuvchi tabiatida hayotga real qarash xususiyati mavjud edi. Bunga qaysidir ma'noda asar realizm metodi avjlangan paytda yozilganligini ham sabab qilib ko'rsatish mumkin. Faqat bu emas, yozuvchi Uzun quloq pirim ziyoratgohidagi hodisalarni ham real faktlar asosida ifodalab beradi. Ya'ni soxta qorilar Uzunquloq pirim ziyoratgohidan mo'maygina daromadga ega bo'lib turardilar. Aynan ziyoratgoh o'rniga pioner lageri qurilishi rejasi ularda norozilik uyg'otadi. Ular turli yo'llar bilan ishchilarni qurilish ishlaridan aynitishga, keltirilgan taxtalarni kechasi yoqib yuborishga ko'p bor urinishadi. Uzunquloq pirim ziyoratgohi haqidagi gaplar bir qarashda e'tiqodga zid dunyoqarashni esga soladi. Ammo yozuvchi shunday mohir yo'l tanlaganki, maqsad – ziyoratgohning tubida eshak yotganini aytish emas, balki sodda, go'l odamlarni aldayotgan, qori niqobiga kirib olib odamlarning e'tiqodini suiiste'mol qilayotgan ayrim kimsalarning firibgarligini ochish edi. Bu lavha sobiq tuzum davrida balki to'g'ri qarash, deb qabul qilingandir. Lekin bugungi kun nuqtai nazaridan asarga boshqacha qarash ham mumkin: odamlarning e'tiqodini poymol qilish, uning ustidan kulish, tahqir qilish mumkin emas! Buning uchun eng avval har bir insonning o'zi ziyrak, e'tiborli bo'lishi darkor. U nimaga e'tiqod qilayotgani, kimga va nimaga ishonayotganini bilmasa, jamiyat omi va go'l odamlar uyushmasiga aylanib qolishi hech gapmas. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: odamlar shunchalar go'lmidi? Nahotki, kasal bolasini shifokorga ko'rsatish o'rniga so'yilgan sariq qo'yning terisiga o'rab, yetti xil novda bilan savalashni buyurgan soxta qorining gapiga ishonish shunchalar oson bo'lsa? Axir, isitmalab yotgan kasalni qo'y terisiga o'rab savalash hech bir mantiqqa to'g'ri kelarmidi? Biz bunday savollarga javob izlar ekanmiz, o'sha paytda xalqimizning diniy bilimi, tibbiyotga oid tushunchasi anchagina sust bo'lgan, degan

xulosaga keldik. Yoki Uzunquloq pirim ziyoratgohi tarixi haqida hech kim qiziqmaydi: muhimi bu yerda bir avliyo yotibdi, xolos. Yozuvchi yana real mantiqiylikka murojaat qiladi. Odamlarni ziyoratgohga eshak ko'milganiga ishontirish uchun isbot kerak edi. Bu isbotning bir uchini Yong'oq qori pochchaning o'zi boshlab beradi (albatta, Hoshimjon ko'zga ko'rinmay uni qo'rqitib, shunga majbur qilgach). Xalq oldiga chiqib, avliyoning xokini boshqa joyga ko'chirishni e'lon qiladi va qabrni kavlashga kirishadilar. "Hash-pash deguncha Uzunquloq pirimning suyaklari ham chiqib qoldi.

– Ie, bu eshakning suyagi-ku! –dedi qabrdan suyaklarni olayotgan kishi" [To'xtaboyev 1982, 166].

G'ala-g'ovur boshlanadi. Har kim har xil taxmin bildiradi. Kimdir eshakning suyagi, kimdir otning suyagi, yana kimdir xachirning suyagi ekanligini uqtirmoqchi bo'lardi. Oxiri qassobni chaqirib, beli sinib o'lgan urg'ochi eshakning suyagi ekanligini aniqlashadi. Nihoyat, tog'ning ichkarisida yashaydigan bir yuz o'ttiz to'rt yoshli cholni olib kelishadi. Sababi, bu chol har gal shu ziyoratgoh oldidan o'tganda, "Ha, eshakka sig'inuvchilar", deb kulgancha o'tar ekan. Haqiqat ayon bo'ladi. Bir qari o'tinchi chol tog'dan o'tin terib kun ko'rar edi. Bir kun xuddi mana shu joyga kelganda o'zi nimjon eshagining beli sinib, o'lib qoladi. Chol eshagini ko'mib yig'lab o'tirganda, boshqa o'tinchilar savoliga "meni yigirma yildan buyon boqib kelgan... Uzun quloq pirimni ko'mdim..." deb yig'lab javob beribdi. O'tinchilar cholga rahmi kelib, har kuni bir, yarim tanga tashlab o'tadigan bo'lishibdi. Chol shu yerda bir qancha yil tilanchilik qilib o'tirgandan keyin olamdan o'tadi. Chol o'lgandan keyin Azizxon eshon degan bir odam bu joyga dahma soldirib, bog'rog' qiladi. Bu yerda Uzunquloq pirim qabri joylashgan, deb "boplab ma'ruza qildi". Eshitganlar hayratdan dong qotib qoldilar. Ular shu paytgacha e'tiqod qo'yib kelgan narsalari puchga chiqqanini hali hazm qilib ulugurganlaricha yo'q. Bu voqealar garchi Hoshimjon nigohi bilan kuzatilib, uning aqli bilan idrok etilsa-da, yozuvchining dunyoqarashi sezilib turadi.

A. Rasulov fikricha, "Sariq devning o'limi" roman ichra detektiv romandir. Detektiv adabiyotda jinoyatni fosh etish jarayoni ma'lum tartib-qoidalar asosida davom etadi. Detektiv asarda qotillik (yoki unga intilish) bo'lishi shart, kurashuvchi kuchlar nisbati deyarli teng bo'lishi lozim. Detektiv asardagi konflikt rasmiy muhokama tomonidan bostirib tashlanishi mumkin emas, asarda kurash uzluksiz jiddiylashib, sirlilik, vahimalilik kasb etib boradi. X.To'xtaboev savdo-sotiq, oshxona, omborxonalarda ro'y berayotgan

jinoyatlarning fosh etilganligini ko'rsatadi. Savdo yoxud jinoyat ob'ekti vakillari xilvat joylar, kasalxona, jinnixonadan jon saqlash maskani sifatida foydalanganlar. Yozuvchi jinnixonadagi voqealarni Hoshimjon hikoyasi orqali o'ta jonli, qiziqarli tasvirlaydi. Jinnixonona, jinoyatchilarning yerto'la - ziyofatxonadagi sharoiti, munosabat, muomalalari ishonarli tasvirlangan. Romanning shu o'rinlarida matn osti, matn ruhi, qamrovi aniq ko'rinadi. Yoki yozuvchi voqea orqali ichki, yashirin holatlarni ko'rsatadi. Odil battol gadoy topmas yerto'lada o'zini o'ta erkin tutadi: asl qiyofasi, mohiyatini ko'rsatadi. Nafaqat Odil battol, Sallabodroq amaki, o'g'ri Mutal, Orif chayqovchi, peshanasi yiltiroq amaki, omborchi ham yashirin xonada emin-erkin so'zlashadilar. Hoshim jinoyatchilar orasida o'zini yo'qotmaydi, tutingan otasi Otajonovga, Ali Usmonovga, guruh boshlig'i Xoliqovga ma'lumot yetkazib turadi.

Hoshimjonning militsiya xodimi bo'lib ishlashi haqiqiy detektiv voqealar bilan ko'rsatiladi. Odil battol va uning sheriklari yashirin "qarorgoh"larini topishda, ularni fosh etishda Hoshimjonga yana sehrli qalpoqcha yordam beradi: "Bir sakrab devordan oshib o'tdim. Hovli xuddi go'ristondek qorong'i, jimlik, tiq etgan ovoz eshitilmaydi... Uyning eshigi berk, derazaga parda tutilganga o'xshaydi - tirqishdan nursiz yorug'lik ko'rinib turibdi. Uyga qanday kirdim endi? Eshikni kim ochib beradi? Salgina ovoz chiqsa, hammalari hushyor tortib, rejamizni chippakka chiqarishi mumkin! Shu paytda qo'g'irchoq teatrida artist bo'lib ishlaganim juda qo'l kelib qoldi-da. Boshimga qalpoqchamni kiyib ko'zdan g'oyib bo'ldim-u, eshikka yaqinlashib, xuddi sovuq qotib qolgan mushuk bolaga o'xshatib zorlanib miyovlay boshladim, qo'llarim bilan taxtani tatalab tirnadim. Xayriyat, yalmog'iz kampir qulog'ini ding qilib o'tirgan ekan, darrov eshita qoldi..." [To'xtaboyev 1982, 369].

Shundan keyin voqealar rivoji tezlashib ketadi. Hoshimjon uyning yerto'lasiga tushadi va u yerda Odil battol boshliq jinoyatchilar to'dasining bazmu jamshidiga guvoh bo'ladi. Aslida jinoyatchilarni bildirmay kuzatish, ular qilgan jinoyatlarga guvoh bo'lib, isbot bilan tutib olish jamiki izquvarlarning orzusi bo'lsa kerak. Ana shu orzu Hoshimjonning sehrli qalpoqchasi yordamida amalga oshadi. Buni fantastik asar tabiatidan kelib chiqib, xayoliy ishlarning amalga oshuvi, deyish ham mumkin. Ammo mantiqan olib qaraganda, har qanday jinoyat o'z ildiziga, tarixiga, har qanday jinoyatchilar o'z makoniga ega bo'lishi tabiiy. Jinoyatlar ildizining topilishi jihatidan asardagi ba'zi bir o'rinlar Artur Konan Doylning fosh etish san'atini esga soladi. Faqat, ularning farqi Konan Doyl izquvar bo'lib, sirtidan

kuzatadi, o'rganadi, o'zida sinab ko'radi, jinoyatchilarni izidan yurib fosh qiladi.

Umuman, "Sariq devni minib" romanida hayotbaxsh ruh, harakatchan qahramonlar faoliyati yetakchilik qiladi. Ular bolalar didiga, ruhiy-ma'naviy ehtiyojiga nihoyatda mos kelgan.

Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida keksa odamlar – chol-kampirlar alohida mehr bilan tasvirlanadi. Hoshimjon buvisini, Akrom sartaroshni, polkovnik Salimjon Otajonovni nihoyatda hurmat qiladi. Akrom bilag'on Shirin qovunlar mamlakatida Dar Darajaday ustoz-suyanchiq topib olganidan behad quvonadi. "Besh bolali yigitcha" da Parpi bobo, To'ti xola, Pakana bobo, Abziy singari keksalar yetimlarning boshini silaydilar. Yozuvchining "Jannati odamlar" asarida esa Erka bobo, Matmusa bobo singari diyonatli, ilmi kishilar timsoli mehr bilan tasvirlangan. Buning sababi, yozuvchi ma'naviyatining kamolga yetishida uning bobosi va buvisi katta hissa qo'shganidir.

Adibning "Besh bolali yigitcha" romanida keksalar obrazi bir qancha. Ammo ularning har biri bir-biriga o'xshamagan tabiati, xarakteri, gap-so'zlari bilan kitobxon yodida saqlanib qoladi. Ulardan biri bolalarning qo'shnisi, uch o'g'li urushga ketib uyi huvillab qolgan Parpi buva va uning kampiri To'xta xola. Bu chol-kampir bolalar hayotida katta o'rin tutadi. Bolalarning boshiga ketma-ket kulfatlar tushganda shu ikki qariya ularning yonida bo'ladi. Otasi urushga ketgan, onasi traktor tagida qolib o'lgan bolalarga Parpi bobosining nasihatlari, To'xta xolasining pishirgan qotirmalari najot bo'ladi. Ular o'zlari muhtoj bo'la turib, shu yetim bolalarga darmon bo'lishga, ularning ko'ngillarini ko'tarishga o'zlarida kuch topadilar. Kunlarning birida bolalarni yetimxonaga olib ketish uchun davlat idorasidan uylariga mehmonlar kelishadi. Bu paytda Parpi buva kasal: bir tomoni ishlamay yotgan edi:

“– Orifjonlarni olib ketgani keldik, ota, – to'satdan gapni bu yoqqa burib yubordi direktor opa.

– Yetimxonagami? – nazarimda bir cho'chib tushgandek bo'ldi buvam, – o'tgan safar bo'lmaydi, deb aytuvdim-ku.

– Tanangizga bir o'ylab ko'ring, ota, o'zingiz kasal bo'lsangiz.

– Xudoga shukur, hali tirikman, qizim!” [To'xtaboyev 2005, 71]. Xullas, suhbat Parpi buvaning to tuzalgunicha bolalar yetimxonada turishlariga rozi bo'lishi bilan tugaydi. Bu chol va kampir asar oxirigacha olti yetimchaga qayg'urib, ulardan xavotir olib yashaydi. Garchi o'zlari ko'ngli o'ksik bo'lsalar-da, bolalarning ko'nglini o'ksitmaslikka intiladilar. Bu obrazlar o'zgacha bir mehr

bilan tasvirlangani anglashilib turadi.

Umuman olganda, yozuvchining biografiyasi yosh qahramonlarda o'ziga xos tarzda aks etadi. Ba'zan bu hodisada yozuvchilik ruhi ustunlik qilib, jamiyat ma'naviy hayoti yozuvchi tomonidan idrok qilinadi, ba'zan esa qahramon psixologizmi o'zining ruhiy-ma'naviy holatini yozuvchi ixtiyoridan tashqarida namoyon etadi. Bu borada professor Safo Matjon shunday yozadi: "Darhaqiqat, o'zi qalamga olgan qahramonlar ruhiyati ich-ichiga kirib borish, surati va siyrati tasvirining uyg'unligiga erishish orqali kitobxonning o'zligini anglashga yo'naltirilishini badiiy adabiyotning bosh vazifasi deb bilgan adib jahonga mashhur "Sehrli qalpoqcha", "Sariq devni minib" asarlarini yaratgunga qadar katta hayot va ijod maktabini o'taydi. Adib asarlari xususida gap ketganda, bolaligida boshdan kechirgan turmush mashaqqatlari, bobosi va buvisi tarbiyasi, o'qituvchilik faoliyati, gazetalar tahririyatidagi felyetonchiligi bo'lajak yozuvchini hayotga jiddiy ko'z bilan qarashga yo'naltirganini sezish qiyin kechmaydi" [Matjonov 2018, 5].

### **Xulosa**

Umuman olganda, har qanday yozuvchi badiiy asar yozar ekan, unda ba'zan istab, ba'zan istamasa-da o'z hayotini qaysidir darajada aks ettiradi. Yetimlik haqida yozar ekan, u albatta yetim bo'lishi, urush davri haqida yozar ekan, albatta urushning fojialarini qalban his qilagn bo'lishi shart. Shunday ekan, biz yozuvchi Xudoyberdi To'xtboevning ruhiy-ma'naviy olami, qalb iztiroblarini u yaratgan asarlar, u yaratgan qahramonlarda ko'ramiz.

### **Adabiyotlar**

- Расулов, Абдуғафур. 2009. *Бетакрор ўзлик*. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Тўхтабоев, Худойберди. 1982. *Сариқ девни миниб*. Тошкент: Ёш гвардия.
- Тўхтабоев, Худойберди. 1991. *Ширин қовунлар мамлакати*. Тошкент: Чўлпон.
- Тўхтабоев, Худойберди. 2005. *Беш болали йигитча*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Матжонов, Сафо. 2018. *Сеҳрли қалам ёхуд болалигини қўмсаган бобо*. Х.Тўхтабоев. "Қайлардасан болалигим" китобига сўзбоши. Тошкент.

# Biography of the writer and the uniqueness of the child's psyche

Rukhsora Tulabaeva<sup>1</sup>

## Abstrakt

In this article, the works of Khudoyberdi Tokhtaboev, a major figure of Uzbek children's literature, are analyzed. In them, the expression of the adolescent psyche, as well as the child's psyche, are discussed in detail. In fact, it is natural that any literary work will reflect the writer's biography to some extent. After all, when a writer writes a work, the events he encountered during his life and the feelings he experienced are imprinted in that work. When we analyze the works of the writer Khudoyberdi Tokhtaboev, we see that they reflect the life path, character (nature) of the writer.

Also, in the article, the main problem in today's Uzbek children's literature - that the child's psyche is primary in the education of the child - was highlighted on the example of artistic works. It is noted that the artistic work written for children is a reflection of the child's psyche.

**Key words:** *writer, child mentality, biographical method, biography of the writer, mentality of the elderly, comedy, skill, analysis.*

## References

- Rasulov, Abdug'afur. 2009. *Betakror o'zlik*. Toshkent: Mumtoz so'z.
- To'xtaboev, Xudoyberdi. 1982. *Sariq devni minib*. Toshkent: Yosh gvardiya.
- To'xtaboev, Xudoyberdi. 1991. *Shirin qovunlar mamlakati*. Toshkent: Cho'l-pon.
- To'xtaboev, Xudoyberdi. 2005. *Besh bolali yigitcha*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Matjonov, Safo. 2018. *Sehrli qalam yoxud bolaligini qo'msagan bobo*. X.To'xtaboev. "Qaylardasan bolaligim" kitobiga so'zboshi. 5. Toshkent.

---

<sup>1</sup>*Tulabaeva Rukhsora Sayfullaevna* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** rtulaboyeva@navoiy-uni-uz; rtolaboy@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-7013-400X

**For citation:** Tulabaeva, R. 2022. "Biography of the writer and the uniqueness of the child's psyche". *Uzbekistan: Language and Culture*. 2(2): 54-62.

## Abdulla Oripov she'riyatida xalqona uslub va milliy ruh uyg'unligi

Oybarchin Abdulhakimova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlarida folklor an'alarining o'rni tadqiq qilingan. Ijodkor badiiy-estetik tafakkuri yuksalishida xalq og'zaki ijodining ta'siri masalasi uch bosqichga bo'lib tahlil etilgan: 1) shoir ijodining ilk davrida xalq og'zaki ijodiga murojaat; 2) ijodkor poetik tafakkuri takomilida xalq og'zaki ijodi motivlari badiiy sintezining o'rni; 3) umr so'ngida yaratilgan she'rlarida xalq og'zaki ijodi an'alarining poetik yangilanishi. Tahlillar natijasida folklor an'alariga ijodiy yondashuv, ularni poetik yangilash va takomilga yetkazish Abdulla Oripov she'riyatining abadiyatini ta'minlab kelayotgan asosiy omillar ekani yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** *motiv, badiiy sintez, badiiy-estetik tafakkur, falsafiy-poetik xulosa, ramziy-majoziy obraz, poetik yangilanish, fenomenal hodisa, badiiy mahorat.*

### Kirish

Badiiy adabiyot yuzaga kelishining adabiy-estetik omili hisoblangan xalq og'zaki ijodi epos, qissa, ertak, hikoya, qo'shiq, maqol va topishmoq singari janrlarni o'z ichiga oladi. Xalq og'zaki ijodi yuksak iste'dod egalari uchun ilhom manbaidir. Haqiqiy ijodkor folklor materiallaridan ruh oladi, xalq dostonlari va ertaklarida mavjud obraz va timsollarni qayta ishlaydi, maqol va matallardagi oz so'zda teran mazmuni ifodalash usullaridan san'atkorona foydalanib, poetik jihatdan takomilga yetkazadi.

### Asosiy qism

Millatning ulug' shoiri Abdulla Oripov ijodi, bu jihatdan, tadqiqotlar uchun boy material beradi. Ijodkor badiiy-estetik tafakkuri yuksalishida xalq og'zaki ijodining o'rni masalasini quyidagi uch bosqichda o'rganish mumkin:

---

<sup>1</sup>*Abdulhakimova Oybarchin Nurboy qizi* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** [abdulhakimovaoybarchin@gmail.com](mailto:abdulhakimovaoybarchin@gmail.com)

**ORCID ID:** 0000-0003-2428-7547

**Iqtibos uchun:** Abdulhakimova, B. N. 2022. "Abdulla Oripov she'riyatida xalqona uslub va milliy ruh uyg'unligi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2(2): 63-71.



- ✓ shoir ijodining ilk davrida xalq og'zaki ijodiga murojaat;
- ✓ ijodkor poetik tafakkuri takomilida xalq og'zaki ijodi motivlari badiiy sintezining o'rni;
- ✓ umr so'ngida yaratilgan she'rlarida xalq og'zaki ijodi an'analarining poetik yangilanishi.

Folklor an'analarini teran bilish va ijod jarayonida qo'llash ijodkor badiiy-estetik tafakkuri takomilida alohida o'rintutadi. Chunki xalq og'zaki ijodi badiiy asardagi milliy ruh ifodasini kuchaytiradi. Badiiy ijod namunalarini mohiyatan xalqqa yaqinlashtiradi. Xalqni badiiyat sirlarini anglashga tayyorlaydi. Abdulla Oripov she'riyati teran falsafiy tafakkur va milliy ruhni yuksak darajada uyg'unlashtirgani jihatidan ham fenomenal hodisa. Shoir lirikasini ushbu kontekstda o'rganish shoir ijod laboratoriyasiga chuqurroq kirish, badiiy mahorati sirlarini nozikroq anglash imkonini beradi.

Ijodining ilk bosqichlaridanoq Abdulla Oripov she'riyatida milliy ruhiyatni inja ifodalashga intilish kuchli bo'lgani kuzatiladi. Xalq dostonlari va ertaklar, maqollaru hikmatli so'zlar, latifayu hangomalarni chuqur o'rgangan shoir ulardagi obraz va motivlarni, so'z o'yinlariyu qochirimlarni lirik asarlarida mahorat bilan qo'lladi. "To'g'ri, shoir adabiyot olamiga kirib kelgan kezlarda, uning hayotiy tajribasi yoxud ijodiy tayyorgarligi yetarli bo'lmagandir, lekin iste'dod egalarning o'ziga xos savqi tabiiysi, yana ham aniqroq aytganda "payg'omlar"ni qabul qilishga munosib qalb ko'zi ochiqligini inkor qilib bo'lmaydi" [Davlatova 2022, 15].

Abdulla Oripov xalq maqollarini gohida aynan keltirsa, ba'zan ular konstruksiyasiga juz'iy tahrirlar kiritadi. "Mumtoz she'riyatda xalq maqollaridan, masal va hikmatlardan foydalanish *irsoli masal* deb nomlanishi ma'lum. Ushbu badiiy san'at "...gapda yoki she'rda maqol, matal va hikmatli so'zlarni muayyan maqsadda tamsil yo'li bilan ishlatmoq" [Исхороков 2014, 47] ekani e'tiborga olinsa, shoirning bu boradagi tajribasi ijod ahlining bugungi avlodiga o'rnak bo'larli ekani ayon bo'ladi. "Abdulla Oripov zamonaviy she'riyatimizda bu san'atni yuksak mahorat bilan va eng ko'p qo'llagan shoir deyilsa, aslo mubolag'a emas" [O'sarova 2020, 62]. She'r matniga olingan maqollar konstruksiyasidagi o'zgartirishlar ba'zan ma'no yoki shaklga, ba'zan har ikkalasiga ham tegishli bo'ladi. "Haqiqat yo'llari" nomli she'ridagi: "*Ba'zan yomon ot qolur yaxshi odamdan, hatto. Qay bir yovuz kimsani yaxshi derlar erta kun*", degan satrlar buning isbotidir. "Yaxshidan nom qolur, yomondan dog'" xalq maqolining mazmuni shoir she'rida qarama-qarshi ma'noda qo'llangan. Ba'zida hatto yaxshi odamdan ham yomon ot qolishi mumkinligiga doir



ifoda shoir maqolga ma'no jihatdan ham, shakl jihatdan ham ijodiy ishlov berganini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, Abdulla Oripovning so'zga nechog'lik katta mas'uliyat bilan qaraganidan dalolat beradi.

She'rdagi *"Deydilar, har zamonning bordir o'z tarozusi, Oh naqadar rost erur ushbu buyuk haqiqat"* satrlari *"Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-u tarozi"* maqoli yangicha qo'llangani bilan alohida ajralib turadi. Maqolda urg'u makonga berilgan bo'lsa, shoir e'tiborni zamonga qaratadi. Natijada ko'lamli falsafiy-poetik xulosa chiqariladi.

Abdulla Oripov adabiy-estetikasiga xalq og'zaki ijodining ta'siri shoir asarlarida folklorizmlarning, xususan, ertaklarda uchrovchi motivlarning ko'p qo'llanishidir. Motivning syujet tarkibidagi halqalardan biri hamda voqelikni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur ekani e'tiborga olinsa, ularning shoir ijodida mahorat bilan qo'llanishi sabablari oydinlashadi. "Uyqu" va "Ko'zgu" she'rlari, bu jihatdan, alohida o'rin tutadi. Shoirning "Uyqu" she'ri 1965, "Ko'zgu" 2015-yilda yozilgan bo'lishiga qaramay, ular bir-birining uzviy davomidek taassurot qoldiradi. Bilamizki, xalq og'zaki ijodida "uyqu" va "ko'zgu" motivi bor. Dostonlarda ham voqelikni yuzaga keltiruvchi "uyqu" motivi ko'p o'rinlarda qo'llaniladi. Masalan, "Alpomish" dostonida Surxayil kampir Alpomishga uyqu dori berib, chohga tashlaydi va u uzoq muddat uyquga ketadi. Dostonlarda qahramonlarni uyquga ketkazish, ya'ni uyqu motivini qo'llash orqali salbiy qahramonlarning yovuzliklari amalga oshiriladi. Abdulla Oripov "Uyqu" she'rida barcha nohaqliklardan yiroqda bo'lish, jamiyatdagi voqea-hodisalardan ayro yashamoq niyatida uzoq vaqt uyquga ketish istagini mana bu tarzda badiiy talqin etadi:

*Odamlar uxlaydi, o'n yil, o'n besh yil,  
Sezmasdan, sevmasdan, hissiz va mudroq.  
Ba'zida ochiq gap, o'rtansa ko'ngil.  
Uxlagim keladi mening ham uzoq.*

Bu uyqu orqali shoir o'zi yashab turgan muhitdan, barcha narsadan uzilishni xohlaydi. Lekin ushbu holat muayyan voqelik va uning ta'siridagi kayfiyat mahsuli bo'lib, barqaror emas. Lirik qahramon iroda kuchi bilan bu kayfiyatni yenga oladi. Inson kurash uchun yaralgan, kurash tiriklikning asosiy sharti deb bilgan shoir uyquni o'limga mengzaydi. Natijada hayot falsafasining asl mohiyatini aks ettiruvchi mana bunday xulosaga keladi:

*Ammo bormi imkon bunday uyquga,  
Kurashga yaralgan jafokash inson.*

*Har qanday kurash ham hayotdir unga,  
Har qanday uyqu ham – o‘lim har qachon!*

Ushbu satrlar xalqimizning “Uyqu o‘limdan qattiq” degan mashhur maqoli bilan muayyan uyg‘unlikka ega. Ma‘lum bo‘ladiki, Abdulla Oripov xalq maqollarini yoki folklor asarlaridagi motivlarni aynan takrorlamaydi. Ularni ijodiy qayta ishlaydi, individual falsafiy qarashlari bilan boyitadi, poetik talqin jihatdan mukammal darajaga yetkazadi. Shoir fikricha, har qanday kurash – hayot belgisi, har qanday uyqu – o‘lim alomati. Kurash va uyqu, hayot va o‘lim tushunchalari hosil qilgan tazod muallif ifodalamoqchi bo‘lgan fikrning ta‘sir kuchini oshirib yuborgan.

“Ramz, ishora – badiiy ijodning bosh belgisidir. Hayotni boriday aks ettirishga qaratilgan odmi so‘z badiiyatga tegishli emas. Ta‘sirli, hissiy so‘zgina ko‘rkamlik yaratadi” [Yo‘ldosh Qozoqboy, 2018, 496].

Ma‘lumki, xalq og‘zaki ijodida, xususan ertaklarda hayvonlar ramziy-majoziy obrazlar sifatida badiiylikning asosiy omili vazifasini o‘taydi. Shu turdagi obrazlar vositasida hayotiy haqiqatlar badiiy haqiqatga aylantiriladi. Folklor materiallarida xalqning ruhiyati, kechinmalari, orzu-armonlari ramziy-majoziy obrazlarga ko‘chirilib tasvirlanadi. Xalq og‘zaki ijodida har bir jonivor muayyan ramzni ifodalab keladi. Masalan, bo‘ri – ochko‘zlik, ayiq – laqmalik, go‘llik, chumchuq – chaqimchilik, sher – kuch-qudrat, it – vafo, tulki esa ayyorlik ramzi. Abdulla Oripov ijodida ham ramziy-majoziy tasvir yetakchilik qiladi. Bu tipdagi obrazlar shoir badiiy-estetik qarashlarini o‘zida mujassam etishi jihatidan qimmatlidir.

Shoir lirikasida it obrazi faol qo‘llangan. Abdulla Oripov badiiy-estetik tafakkurining o‘ziga xosligi shundaki, u muayyan hodisaga yoki ma‘lum bir mavzuga kutilmagan tomondan yondashadi. Jumladan, xalq og‘zaki ijodiga xos obrazlar talqinida ham hech bir ijodkorni takrorlamaydi. Hech kimning xayoliga kelmagan ohorli tashbehlaru istioralarni qo‘llaydi. “Hikmatli gaplarga” (1979) she‘rining tahlili ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Hikmatli gaplarga quloq solmoq darkor.  
Quloq solmoq darkor xalqning so‘ziga,  
Lekin odamlarning bir odati bor,  
Maqol to‘qiydilar moslab o‘ziga.*

She‘rning ushbu boshlanma bandida hikmatli gaplar, xalqning so‘zi ahamiyatli ekani haqidagi poetik fikr o‘zani birdaniga kutilmagan tarafga buriladi. “Lekin” zidlov bog‘lovchisi shoir ijodiy

niyati o'zgacha ekaniga ishoradir. Odamlarning o'ziga moslab maqol to'qishi haqidagi ikki satr ijodkorning she'r muhibiga aytmoqchi bo'lgan fikri odatiy emasligidan ogoh etadi. O'quvchi she'r davomini intiqlik va alohida qiziqish bilan mutolaa qilishga tayyorlanadi:

*Masalan, it – vafo demishlar, hayhot,  
It egalari buni to'qiganlar zab.  
Birovning itidan bo'lgil ehtiyot,  
O'zingniki bo'lsa boshqa gap.*

She'rda "It – vafo..." degan mashhur maqolga o'zgacha rakursdan munosabat bildirilgan. Shoir itni ikki turga ajratadi: birovlar iti va o'zingniki. Begona it, odatda, o'zi tanimagan odamga bor kuchi bilan tashlanadi. Bundan tashqari, it egalari ko'ppagini o'zi yoqtirmagan odamga olkishlashi ham mumkin. Shoirning birovlar itidan ehtiyot bo'lishni tavsiya etayotgani sababi shunda. "O'zingniki bo'lsa boshqa gap" – bu satr "It egasini qopmas" degan bu jonivor bilan bog'liq boshqa maqolning o'ziga xos badiiy talqinidir. Ushbu obrazning majoziy ma'noda qo'llangani e'tiborga olinsa, shoir bir qancha ma'no qatlamlariga ega teran fikrni poetik ifodalagani ayon bo'ladi. Inson hayoti ham, xarakteri ham biz o'ylagandan ko'ra murakkab. Kimgadir ezgulik timsoli bo'lib ko'ringan kishi ba'zan arzimagan manfaat ilinjida uchinchi bir kimsaning qutqusi bilan boshqa birovga yomonlik qilishi ham mumkin. Bu she'r, aslida, jamiyat hayotidagi murakkab munosabatlar ramziy-majoziy obraz vositasida bor ziddiyatlari bilan talqin etilgani jihatidan badiiy yangilikdir.

Abdulla Oripov umrining so'nggi yillarida bebaho ijodiy samara manbai hisoblangan xalqona ohanglarga kuchliroq rag'bat ko'rsatdi. Xalqona ruh va falsafiy teranlik mutanosibligi bu davrda yangi poetik darajaga yuksaldi. Ayni shu xususiyat haqida shoir ijod laboratoriyasini o'rgangan Adiba Davlatova quyidagicha yozadi: "U she'riyat bilan birga o'sdi, ulg'aydi. Xuddi tuyg'ulari kamol topib, cho'nglashib borgani kabi adabiyotga qarashi, uning masalalariga muayyan munosabati ham shakllanib bordi. Har bir odam o'ziga xos individual qobiliyat va intellekt sohibi. Lekin buning o'zi yetarli emas. Odam ma'lum sohada muayyan natijaga erishishi uchun albatta ilmiy va amaliy maktablarni o'tamog'i lozim" [Davlatova 2022, 18]. Ijodkorning "Haj daftari" turkumidagi "Ona", "Ro'za" she'rlari shular jumlasidandir. Shoir "Ona" nomli she'rida:

*Qavmimni ranjitib qo'ymayin, ammo  
Tobut yasab kelgan er zoti doim.*

*Onalar bag'riga faqat beshik jo,  
Hayotbaxsh allalar aytgan, muloyim.*

Beshik – tug'ilish, ya'ni hayotning ibtidosi ramzi. Tobut esa o'limni, ya'ni umr intihosini ifoda etadi. Ramziy ma'noda, ular ikki eshikka mengzaydi: biridan hayot ostonasiga kiriladi, ikkinchisidan chiqib ketiladi. She'rda inson hayoti ana shu ikki eshik – beshik va tobut oralig'ida kechishi falsafiy talqin etilgan. Bu ikki ramziy obraz hosil qilgan tazod she'rning mazmunan teran, badiiy jihatdan mukammal bo'lishini ta'minlagan. “Beshik” va “hayotbaxsh alla” tanosubi ham she'rning ta'sir kuchini oshirgan. O'zbek onalari tug'ilgan go'dakni beshikka belab, allalar aytishi qadim-qadimdan odat bo'lib keladi. Alla – xalqimizning eng qadimiy qo'shiqlaridan bo'lib, asosan beshikdagi bolaga aytilgan. Demak, “beshik” va “alla” egizak tushunchalardir. Onalar alla orqali Allohdan farzandining umri uzoq bo'lishini, komil inson bo'lib ulg'ayishini so'rab niyat qilishadi. Ana shu ezgu tushunchalar she'rda milliy ruh va teran falsafa uyg'unlashuvini ta'minlagan.

“Ro'za” she'ri ham o'zbek ruhiyatini, xalqimizning toza tabiatini ifodalagani bilan alohida ajralib turadi. Musulmon ahli uchun Ramazon hayiti nechog'liq ulug' bayram hisoblansa, qadimiy milliy bayram hisoblangan Navro'z xalqimiz uchun shunchalik qutlug' ayyomdir. She'rda ana shu ikki muborak bayram ruhi o'ziga xos poetik tasvir vositalari orqali betakror talqin etilgan:

*Ramazon oyida, hayit chog'ida,  
Sumalak pishirdi ahli musulmon.  
Unni qovurdilar ahli musulmon,  
Halim tayyorladi kimda bor imkon.*

*Bahor keldi, mana, qishdan chiqoldik,  
Bergan rizq-ro'ziga, ne'matga sharaf.  
Tog'dayin zahmatni axir yiqoldik,  
Tabiatga sharaf, himmatga sharaf.*

Sumalak va halim shunchaki ovqat emas. Bu ikki taomni bir-ikki kishi emas, odatda, ko'pchilik pishiradi. “Ahli musulmon”ni birlashtiradigan, boshini qovushtiradigan, ahillik va birdamlik ramziga aylangan ne'matlardir ular. O'zbek xarakteri, millat ruhiyati shunday: har bir ne'matga shukr aytadi. Qishdan chiqib, bahorga yetgani uchun ham, rizq-ro'zini butun qilgani uchun ham, tog'dayin zahmatni yenga bilgani uchun ham shukr izhor etilayotgani she'rda milliy ruhiyat o'ziga xos badiiy talqin etilgani isbotidir.

“O’ng qovog’im uchdi-yo” she’riga shoir “Xalqona” deb izoh bergan. She’r shoir lirik kechinmalarini, milliy ruhiyatni ifoda etishdan tashqari, folklorga xos badiiy tasvir vositalaridan san’atkorona foydalanilgani bilan ham yuksak badiiy qimmatga ega.

*O’ng qovog’im uchdi-yo,  
Chap qovog’im uchdi-yo.  
Olislarda qolgan yurtim  
Birdan esimga tushdi-yo.*

She’r oxiriga 2016-yil 10-oktyabrda yozilgani qayd etilgan. Demak, shoir vafotidan roppa-rosa yigirma besh kun avval ijod etilgan she’r. Shaxs va ijodkor sifatida bir umr Vatan muhabbatini qismat deb bilgan Abdulla Oripov xalqona ohangda olislarda qolgan yurtini eslayapti. O’ngmi yoki chapmi, qovoq uchishiga e’tibor berish, bunga ma’no yuklash o’zbekning tiynatiga xos tushuncha. She’r, shu jihatdan, milliy ruhni ifoda etgani bilan ahamiyatlidir.

O’zbek – bolajon xalq. Bu elning tabiati shunday: qaerda, qay vaziyatda bo’lmasin, bolalari – jigarbandlarini, yaqin do’stlarini o’ylaydi. Ularga yaxshilik sog’inadi. Millatning ana shu fazilati umrining so’nggi kunlarini yashayotgan, ehtimol, buni ko’ngli sezib turgan buyuk shoir kechinmalari tarzida izhor etilyapti: *“Bolalarim omonmikan, Gulzorlarim chamanmikan. Davradoshu jo’ralarim Haliyam men tomonmikan”*.

Bunday kezlari, odatda dildagi armonlar ham eslanadi: *“Hayitda ham borolmadim, Jigarlarim so’rolmadim. Qancha hafta, oylar o’tdi, Qishlog’imni ko’rolmadim”*. Eng ahamiyatlisi, bu armonlar ham jigarlarga oqibat, ona zaminga muhabbat tuyg’usi bilan yo’g’rilgan. Lirik kechinma va toza tuyg’ular, xalqona uslub va milliy ruh uyg’unligida bitilgan bu satrlarni befarq o’qish imkonsiz.

*O’ng qovog’im uchdi-yo,  
Chap qovog’im uchdi-yo.  
Uzoqdagi shoir o’g’li  
Kimning yodiga tushdi-yo.*

Abdulla Oripov muhabbat haqida yozadimi yoki tabiatni vaf etadimi, ijtimoiy voqelikdan olgan taassurotlarini qalamga oladimi yoki hayot falsafasini talqin qiladimi, qat’i nazar, mavzuni jondan sevgan Vatani va ona xalqi tomonga buradi. Farzand sifatida ham, shoir sifatida ham qismatini Vatan va xalq taqdiri bilan uyg’un deb bildi. Xalqining kamolini, ona Vatanining taraqqiysini ko’rmoqni orzu qildi, butun kuchini, bor ijodiy salohiyatini ana shu muqaddas ishga safarbar etdi. Shu bois xalqning uzoqdagi shoir o’g’lini unutishi,

yod etmasligi uning uchun hayot-mamot masalasi bo'lgan. Ana shu iztirob shoir ko'nglini larzaga solgan. Bu hol umrining so'nggi lahzalarigacha shoir ona Vatan, jonajon xalqi yodi bilan yashaganiga yorqin dalildir. Bu hol Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlarining negizida Vatan va xalq muhabbati turgani haqidagi to'xtamga olib keladi.

### **Xulosa**

Abdulla Oripov ijod olamiga kirib kelgan dastlabki kezlaridan milliy folklor namunalarini qunt va sabot bilan o'rgangan. Milliy ruhiyatni betakror badiiy talqin etish, xalqona uslub imkoniyatlaridan san'atkorona foydalanish shoir she'riyatining asosini tashkil etgan. Xalq og'zaki ijodi motivlarining badiiy sintezi ijodkor badiiy tafakkuri takomilida alohida o'rin tutgan. Umr so'ngida yaratilgan she'rlarida ham xalq og'zaki ijodi an'analarini poetik yangilashga alohida diqqat qaratgan. Ushbu xususiyatlar, o'z navbatida, Abdulla Oripov she'riyatining abadiyatini ta'minlab kelayotir.

### **Adabiyotlar**

- Орипов, Абдулла. 2019. *Танланган асарлар*. Тошкент.  
Давлатова, Адиба. *Абдулла Орипов шеъриятида поэтик тафаккур тадрижи*. Филол. фан. док-ри.... дисс. 2022. Тошкент.  
Исҳоқов, Ёқубжон. 2014. *Сўз санъати сўзлиги*. Ўзбекистон. Тошкент.  
Йўлдош, Қозоқбой. 2018. *Сўз ёлқини*. Ғафур Ғулом номидаги НМИУ. Тошкент.  
Ўсарова, Лайло. 2020. *Абдулла Орипов асарларида миллий руҳифодаси*. Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри... дисс. автореферати. Тошкент.

## **Popular style and nationality in Abdulla Aripov's poetry the harmony of spirit**

Oybarchin Abdulhakimova<sup>1</sup>

### **Abstract**

In this article, Abdulla Aripov's literary and aesthetic views the role of folklore traditions is explored. The question of the impact of folk oral creativity on the rise of the artist's artistic and aesthetic thinking is analyzed in three stages: 1) appeal to folk oral creativity in the first period of the poet's work; 2) the place of the artistic synthesis of motives of folk oral creativity in the improvement of the poetic thinking of the creator; 3) poetic renewal of folk oral traditions in poems created at the end of life. As a result of the analysis, scientific conclusions were drawn that the creative approach to folklore traditions, their poetic renewal and improvement are the main factors that ensure the immortality of Abdulla Aripov's poetry.

**Key words:** *Motive, artistic synthesis, artistic-aesthetic thinking, philosophical-poetic conclusion, symbolic-figurative image, poetic innovation, phenomenal event, artistic skill.*

### **References**

- Oripov, Abdulla 2019. *Tanlangan asarlar*. Sharq. Toshkent.
- Davlatova, Adiba. *Abdulla Oripov she'riyatida poetik tafakkur tadriji*. Filol. fan. dok-ri.... diss. 2022. Toshkent.
- Is'hoqov, Yoqutjon. 2014. *So'z san'ati so'zligi*. O'zbekiston. Toshkent.
- Yo'ldosh, Qozoqboy. 2018. *So'z yolqini*. G'afur G'ulom nomidagi NMIU. Toshkent.
- O'sarova, Laylo. 2020. *Abdulla Oripov asarlarida milliy ruh ifodasi*. Filol. fan. bo'yicha falsafa dok-ri... diss. avtoreferati. Toshkent.

---

<sup>1</sup>*Abdulhakimova Oybachin Nurboy kizi* - Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** abdulhakimovaoybachin@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0003-2428-7547

**For citation:** Abdulhakimova, O. 2022. "Popular style and nationality in Abdulla Aripov's poetry the harmony of spirit". *Uzbekistan: Language and Culture*. 2(2): 63-71.



## Abdulla Oripovning xoriyda yaratilgan she'rlarida obrazlar tasnifi va tadriji

Gulrux Xudoyorova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada A.Oripovning xoriyda yaratilgan asarlaridagi obrazlar tizimi, ularning yangilanish bosqichi, nazariy tasnifi amalga oshirilgan. Obrazlar tasnifi asosida ulardagi o'zgarishlar, kechinmani ifodalashdagi o'rni tahlil etiladi. She'rlar yillar kesimiga muvofiq tarzda guruhlariga ajratilib, ulardagi tafakkur tadriji aniqlanadi. Vatan, ayol, yoshlik kabi mavzularda shoirning obrazlarni qo'llash mahorati, lirik kechinmani ifoda etish usullari xususida so'z yuritiladi. Xoriyda yaratilgan 8 turkumdagi she'rlar badiiyati o'zaro qiyos etiladi. Ularda shoir kechinmalarini aks ettirish yo'llari aniqlanib, she'rlar makon va zamon nuqtayi nazaridan tasnif etiladi. Inson, hayvon, geografik makon, detal obrazlarning o'zaro qiyosiy tahlili amalga oshirilib, ushu obrazlarni yaratishda shoirning badiiy mahorati tadqiq etiladi. Xorij safarida yaratilgan she'rlarning obrazlar tizimida lirik kechinma aks etilishi masalasi yoritiladi.

**Kalit so'zlari:** *tasnif, obraz, lirik kechinma, badiiy ifoda, safar lirikasi, inson obrazi, detal obraz, geografik makon obrazi.*

### Kirish

Obraz muallif tuyg'ularining ifodasi o'laroq vujudga keladi yoxud obraz shoir chizgan suratdir. Obraz elementlarida muallif lirik kechinmalari aks etadi. Shu jihatdan ham lirik kechinma tahlili jarayonida obraz muhim ahamiyatga ega. Jamoliddin Turdimov lirik kechinma va poetik obraz aloqasi haqida quyidagicha fikrlarni keltirib o'tadi: "Kechinma va poetik obrazning o'zaro aloqasini inkor qilib bo'lmaydi, chunki poetik obrazlarga baribir lirik kechinma she'rga bergan umumiy kayfiyat, bo'yoqning mazmunning nuqsi uradi. She'rdagi har bir nuqta kechinmadan kelib chiqadi va u bilan bevosita aloqador" [Turdimov 1999, 18].

Abdulla Oripovning xoriyda yozilgan asarlari Moskva,

---

<sup>1</sup>Xudoyorova Gulrux Normurod qizi – PhD, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** gulruxxudoyorova@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-1977-2225

**Iqtibos uchun:** Xudoyorova, G. 2022. "Abdulla Oripov she'riyatida lirik kechinma va poetik tasvir uyg'unligi". *O'zbekiston: til va madaniyat*. 2(2): 72-84.

Armaniston, Rim, Amerika, Italiya, Yaponiya, Jeneva kabi mamlakat va shaharlarga qilgan sayohatlari natijasi o'laroq yuzaga kelgan. Ular jami 8 ta to'plamdan iborat bo'lib, shartli ravishda "Moskva turkumi", "Armaniston turkumi" "Haj daftari", "Jeneva daftari", "Yapon ohanglari", "Italiya daftari", "Turkiya daftari", "Ummonorti ilhomlari" deb nomlanadi.

### **Asosiy qism**

Armaniston turkumida 5 ta she'r mavjud bo'lib, yaratilish davri 1967-yil deb belgilanadi. Moskva turkumidan esa 1981-yilda yaratilgan 4 ta she'r o'rin olgan. Bu ikki turkumdagi she'rlarda ijodkorning lirik, ishqiy, ijtimoiy xarakterdagi she'rlari jamlangan. "Haj daftari" shoirning 1992-yilning 25-may sanasidan 16-iyun oyiga qadar Makka va Madinada yozilgan 15 ta she'rni o'z ichiga qamrab oladi. Unda shoirning diniy va dunyoviy masalalarga oid qarashlari o'z aksini topadi. "Jeneva daftari" Abdulla Oripovning "Tanlangan asarlar"ida (Toshkent, Sharq, 2019) alohida ikki mustaqil qism sifatida, ammo ayni bir nom ostida beriladi. Bunda shoirning ilk safari natijasi o'laroq vujudga kelgan dastlabki to'plamda jami 10 ta she'r mavjud bo'lib, ular Abdulla Oripovning Jenevaga birinchi bor sayohat qilganida, ya'ni 1996-yilda yaratilgan. Shoirning ikkinchi bor Jenevaga qilgan safari natijasida yaratilgan to'plam birinchi to'plamga nisbatan hajman kattaroq. Unda jami 39 ta she'r mavjud bo'lib, muallif ushbu to'plamdagi she'rlarning ostiga 2003-yilning 7-iyul sanasidan boshlab 2004-yilning 26-noyabrigacha bo'lgan sanalarni qayd etadi. "Yapon ohanglari" esa 2003-yilda yaratilgan she'rlardan iborat bo'lib, 9 ta, "Italiya daftari" esa 2008-yilning Rim va San-Morino shaharlarida yaratilgan 10 ta she'rni o'z ichiga qamraydi. "Turkiya daftari" dan esa 17 ta she'r o'rin olgan bo'lib, ular 2003-yilda yaratilgan. Qolaversa, ishga Abdulla Oripovning Rimga safari natijasi o'laroq yaralgan "Tunislik bola" she'ri ham ishning manbasi sifatida olindi. Shoirning hajman va mazmunan eng yirik to'plami bu "Ummonorti ilhomlari" bo'lib, unda jami 166 ta she'r mavjud. Ushbu she'rlarning barchasini jamlaganda xorij safarlari mobaynida yozilgan she'rlarning umumiy hajmi jami 277 tani tashkil etib, ushbu she'rlarni obrazlar jihatidan tasniflash va ulardagi obrazlar tadrijini o'rganish, lirik kechinma masalasining obrazlarda qay tarzda aks etishini aniqlash bugungi kun adabiyotshunosligimizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Shundan kelib chiqilgan holda aytish mumkinki, Abdulla Oripov safarlari mobaynida vujudga kelgan to'plamlar obrazlar xilma-xilligi, badiiyati va chuqur mazmunga

egaligi bilan adabiyotshunoslikda obraz masalasini ilmiy jihatdan tadqiq qilish uchun yirik manbaa vazifasini bajara oladi. Shoirning xorijda yaratilgan she'rlaridagi lirik kayfiyatni ochib berish uchun 4 ta obraz asosiy o'rin. Ular:

- Geografik makon nomlari obrazi;
- Inson obrazi;
- Hayvon obrazi;
- Detal obrazlar

Ushbu obrazlar shoirning xorijda yaratilgan har 8 ta to'plamida ham shoirning badiiy maqsadini va lirik kechinmalarini ochib berishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda detal obrazlar masalasiga alohida to'xtalib o'tish joiz. Detal obrazlar xususida dastavval adabiyotshunos B. Sarimsoqov fikr yuritadi. Narsa-buyumlar, portretlar, peyzaj kabi tasvirlar detal obrazlarni tashkil etadi. Muallif ayni shu detal obrazlar vositasida o'z his-tuyg'ularini, maqsad va fikrlarini ochib beradi. Ba'zan detal obrazlar ramziy ma'no-mazmunga ham ega bo'ladi.

Shu jihatdan Abdulla Oripov she'riyatidagidagi 9 ta detal obraz tahlil qilinar ekan, ushbu detal obrazlarning nomlanishi, bajargan vazifasi, o'zbek xalqi urf-odati va an'alariga qay darajada murojaatiga ko'ra ham ularni ikkiga ajratishni maqbul deb topdik:

- Umumiy detal obrazlar;
- Milliy mentalitetga xos detal obrazlar;

Bu tasnifda umumiy detal obrazlar butun insoniyat uchun tanish va bir xil vazifa bajaruvchi obrazlar bo'lsa, milliy mentalitetga xos detal obrazlar faqat bizning xalq orasidagina qo'llanuvchi, milliy g'urur, iftixor timsollari vazifasini o'tovchi predmetlar, peyzajlar, urf-odatlar obrazidir.

Xorij safarlari mobaynida yaratilgan she'rlarda badiiy tafakkur va obrazlar tadriji, muallifning lirik kechinmalari bizning tasnifga ko'ra muallifning obrazlarga quyidagicha yondashuvi asosida ko'rinadi:

1. Kashfiyot obrazlar vositasida.
2. Turg'un va o'zgaruvchan obrazlar vositasida.

Xorij safarlarida yozilgan she'rlarda mavzu va obrazlar tizimi bir-biriga yaqin va o'xshashdir: ayol, vatan, muhabbat, insoniylik kabi. Ularning barchasi turli vaqtda, turli o'rinlarda yaratilganiga qaramay bu she'rlarda bir ijodkorning ruhiyati anglashiladi. Ammo

boshqa to'plamlardan farqli o'laroq "Ummonorti ilhomlari" da safar davomida yaratilgan shunday she'rlar mavjudki, ular mavzusi va yaratilgan obrazi jihatidan tamomila yangi va dolzarbdir. Muallifning "Mardikor" she'ri ana shunday mazmun jihatidan boshqa she'rlardan tubdan farq qiluvchi va o'ziga xos ijod namunasi sanalib, dastlab voqealar bayoni oddiy, barchamizga ma'lum va tanish jarayon haqida so'z yuritishdan boshlanadi: *Bajargin o'zingga mansub yumushni, Ovchi ham o'ljasin bir o'zi ovlar. Agar yoqtirmasa qandaydir ishni,*

*Mardikor yollaydi ba'zi birovlar.* Mumtoz adabiyotda "Musalsal g'azal" tushunchasi mavjud. Unda voqealar rivoji darajama-darajama rivojlanib boradi. Bunga Navoiyning mashhur "Jong'a chun dermen..." deb boshlanuvchi g'azali misol bo'lishi barchaga ayon. Abdulla Oripov mumtoz adabiyotdagi ana shu tadrijiylikni barmoq vaznida mohirona qo'llaydi. "Mardikor" she'ri oddiy kichik voqealar bayonidan boshlab asta-sekin rivojlanib boradi. Mahalladagi hasharlarda, shanbaliklarda pul yordamida mardikorlardan foydalanishga, bilimsiz farzandi o'rniga pul bilan bilimli bolani mardikor sifatida yollab o'qishga kiritish voqealariga borib ulanadi. Ammo tadrijiylikning eng yuqori darajasi bu emas. Hali fojialarning darajasi yanada yuqorilab boradi. Endi hatto azada ham mardikor ishlatilayotgani, ya'ni "mardikor yig'ichilar" haqida so'z ketadi. Asta-sekin shoir jamiyatning eng og'ir, og'riqli muammolari tomon boradi. Ammo asl fojia, ya'ni asar kulminatsiyasi she'r so'ngida ma'lum bo'ladi: *Hech kimning qo'rg'onin bosmasin xatar, Hatto zor qilmasin hamsoyasiga, Vatanning boshiga ish tushsa agar, Mardikor borgaymi himoyasiga.*

Tarixdan ma'lumki, janglarda ba'zan hukmdorlar yollanma jangchilar madadidan foydalanganlar. Ammo ularning ko'pchiligi mag'lubiyatlarga uchragani tarixiy fakt. Boisi yollanma jangchilar faqat pul uchungina jang qilgan. Ular uchun boshqa tuyg'ular begona. Ko'pchilik hollarda ularga kim ko'proq pul taklif qilsa o'sha tomonga o'tib ketaverishgan. Chunki ular uchun vafo, sadoqat hissi begona. Ular vatan va uning ozodligi uchun emas, aksincha, mol-dunyo uchungina jang qiladilar. Odatda yollanma jangchilar madadiga tayangan hukmdorlar oxir-oqibatda juda ko'p holatlarda mag'lubiyatga uchraydilar. Jumladan "Boburnoma" da Bobur Shayboniyxon bilan bo'lib o'tgan muhim janglarning birida yollanma mo'g'ul jangchilaridan foydalanganligini va bundan qattiq afus-nadomat chekkanligini yozadi: "Bizga ko'makka kelgan mo'g'ul lashkarining urushga toqatlari yo'q edi.

Urushmoqni qo'yib, o'zimizning elniyoq talab, otdan tushurishga kirishdilar" [Boburnoma 1028, 153]. Demak qachondir qo'llangan "yollanma jangchi" tushunchasini bugungi tilda shoir "mardikor" tushunchasiga tenglashtiradi va lirik kechinmalarini ochib berish uchun bu obrazdan unumli foydalalanadi. Shoir so'zlaridan ayonki "mardikorlar" – "yollanma jangchilar"ga himoyasi qolgan yurtning holiga voy. Shu bois yurtga, xalqqa mardikorlar emas, chinakam mard farzandlar, himoyachilar kerak. Zero, faqat yurtning o'z bolasigina o'z elini chinakam himoya qiladi, asrab-avaylaydi. Shoir ana shunday katta tushunchani "Mardikor" she'ri zamiriga jo qilar ekan, o'zining kelajakni ko'rishga qodir o'tkir nigohi bilan insoniyat boshiga tushishi mumkin bo'lgan ulkan xavf-u xatardan ogohlantiradi.

Inson fitratida bir paytning o'zida ham ezgulik, ham yovuzlik mavjud. Ular – bir narsaning ikki tomoni. Abdulla Oripov shoirga xos sinchi nigoh ila inson fitratidagi ayni shu ikki jihatni to'liq darajada anglaydi va o'z asarlarida bu holatni yorqin ifodalab bera oladi. Zero, inson – ham ijtimoiy, ham biologik, ham ruhiy ildizga ega, ularning jamini o'zida jo qilgan murakkab mavjudot. Adabiyotning har qanday mavzusi tag mazmunida inson obrazi, uning tuyg'ulari va hissiyotlari mujassam. *Inson obrazi* Abdulla Oripov she'riyatining ham bosh va yetakchi mavzularidan biri sanaladi. Ijodkor Insonni eng ulug' va mukammal yaratiq deb hisoblaydi. Chunki inson barcha mavjudotlardan ulug'roq kuchga – fikrlash, tafakkur qilish qudratiga ega. Shu bois faqat inson ertangi kunini yaratish, unga ta'sir qilish qudratiga ega. Tarixni ham insonning o'zi bitadi. Inson ta'siri bilan tarix yo shonli, yoxud qonli bo'lishi mumkin. Shoir nazdida inson nafaqat sharaflı yashamog'i, hattoki uning o'limi ham sharaflı bo'lmog'i joiz: *Odamsod mardlikni qilmasin kada, Pichog'in charxlar-ku hech bo'lmaganda. Qo'ying, jallodga ham yolchisin banda, Duch kelgan kimsaga topshirmang uni.* Aslida sharaflı o'lim topmoq uchun ham insonga mos va xos tarzda hayot kechirmoq lozim. Abdulla Oripovning xorijda yaratilgan she'rlarida inson obrazining o'ziga xos talqini mavjud. Shoir o'z she'rlarida inson obrazini *shifokor, muxbir, ovchi, olim, shoir* kabi kasb vakillari qiyofasida gavalantiradi. Ayni shu jarayonda shoirning mahorati va badiiy kashfiyoti namoyon bo'ladi. Abdulla Oripov turli kasb vakillari qiyofasida inson xarakteridagi qarama-qarshi jihatlarni, yovuz va ezgu niyatli inson qiyofalarini ko'rsatib beradi. Turli xil kasblar vositasida insonning turli xil xususiyatlarini ochib beradi. Masalan, uning "Jeneva daftari" tarkibiga kiruvchi "Muxbirlar" she'riga e'tibor qarataylik:

Odam ko'kka uchdi,  
Quchdi ummonni.  
Yetdi poyoniga kurash, ur-surlar.  
Gij-gijlatib qo'yib telba jahonni,  
Bu kun minbarlarga chiqdi muxbirlar.

Shoir muxbir qiyofasidan foydalanib inson xarakteridagi g'iybatchilik, fisq-u fasodni qoralaydi. Insonning o'zaro nizolarga sabab bo'luvchi xarakter-xususiyatini tanqid ostiga oladi. "Italiya taassurotlari" da esa "Jeneva daftari" dagi muxbir qiyofasiga qarama-qarshi, tamoman zid bo'lgan do'xtir qiyofasidan foydalanib insoniyat xarakteridagi ezgu fazilatlarini – mehr-u muhabbat, birodarlik, rahm-shafqat tuyg'ularini ulug'laydi: *So'rab o'tirmadi millatimni u, Tekshirib, qandaydir illatimni u. Oraga solmadi siyosatni ham, Mamlakat, din bilan diyonatni ham.* O'lis elda unga shifo bo'lgan do'xtir shoir qalbida inson farzandlariga nisbatan cheksiz mehr tuyg'usini uyg'otadi. Abdulla Oripovning bu ikki she'ri yaratilish o'rnini va vaqti jihatidan bir-biridan qat'iy farq qiladi. "Muxbirlar" she'ri 1996-yilda Jenevada yaratilgan bo'lsa, uning "Do'xtir" she'ri 2008-yilda Italiyaning Rimini shahrida yozilgan. Ijodkor Inson obrazini gavdalantirishda turli kasb egalarining har xil xarakter va portretini yaratish orqali Inson xakteri antitezisini yuzaga keltiradi va Inson obraziga murojaat etar ekan, an'anaviy sanalgan bu mavzuga yangicha ruh beradi. Abdulla Oripovning inson mavzusidagi she'rlarini yaratilgan yillariga ko'ra ketma-ketlikda tahlil etilsa, ularning barchasida ijodkorning bu mavzudagi lirik kechinmalari deyarli bir xil ekanligi ma'lum bo'ladi. Shu sababli ham biz Abdulla Oripov she'rlaridagi *Inson* obrazini *o'zgarmas obraz* sifatida baholadik.

Abdulla Oripovning xorijda yaratilgan inson obrazi sirasiga kiruvchi *ayol* mavzusi alohida o'rin va darajaga ega. Jumladan shoirning "Everest va ummon", "Jeneva daftari" to'plamlarida to'rttadan, "Italiya safari" va "Haj daftari" da bittadan, Moskva va Armaniston safarlaridaham aynan shuncha ona, yor, qiz mavzusidagi she'rlarga duch kelamiz.

Ma'lumki, ayol obrazi o'zbek adabiyotidagi an'anaviy obrazlardan biridir. Ammo o'zbek adabiyotida ayol obraziga alohida e'tibor va yondashuv shoirning xorijda yaratilgan she'rlarida kuzatiladi. Uning ijodida ayol mavzusi shunchaki mavzuligicha qolib ketmaydi, aksincha, obraz darajasiga ko'tariladi va an'anaviy obrazlardan biri bo'lgan bu obrazga murojaat jarayonida muallifning yuksak novatorligi bo'y ko'rsatadi. Shoir ijodida ayol obrazi *mehr, poklik, muhabbat, ezgulik, o'tmish va kelajak* timsoliga aylanib ketadi.

Ijodkor ayol obrazida xalqning o'tmishini, kelajagini ko'radi. Jumladan olis Xyustonda turib o'zbek ayoli qismatini, kecha va bugunini yodga oladi. "Yangi asr mo'jizalari" she'rida bu haqda shunday yozadi:

O'tgan davrlarning asoratlari  
Ko'zikkan yaraday bitib ketgaydir.  
Inshoolloh, eng oliy murodlar sari,  
O'zbek ayoli ham borib yetgaydir.

Demakki, shoir nazdida ayol qalbida olis moziyning jarohatlari va kelajak quyoshining porloq nurlari mujassam. Shul bois Abdulla Oripov ijodida ayol obrazi olis o'tmish va porloq kelajak timsolidir.

Haqiqatan, shoir ta'kidlaganidek, ayol KELAJAK timsolidir. Chunki har bir ayol, har bir ona beshikda ertangi kunni, porloq kelajakni, Hazrati insonni ulg'aytiradi. Muallifning "Haj daftari" tarkibiga kiruvchi "Ona" she'rida ana shu ma'no-mazmun yanada oydinlashadi. Ayol obrazi shoir ijodida yana bir pog'ona balandlaydi: *Qavmimni ranjitib qo'ymayin, ammo, Tobut yasab kelgan er zoti doim. Onalar bag'riga faqat beshik jo, Hayotbaxsh allalar aytgan, muloyim – deya ta'kidlaydi. Ayol farzandga hayot baxsh etadi, unga hayotbaxsh allalar aytib voyaga yetkazadi. Shuning uchun ham ayol o'z-o'zidan HAYOTNING, TIRIKLIKNING timsoliga aylanadi va shu sabab ayol obrazini tiriklik, hayot timsoli bilan uyg'unlashtiradi.*

Abdulla Oripov she'riyatida ayol obrazi yanada mazmun va badiiy jihatdan mukammallashib, badiiylik kasb etib boraverganiga ishonch hosil qilamiz. Xususan muallifning "Jeneva daftari" tarkibiga kirgan "Jamayka" she'ri bu jihatdan e'tiborga molikdir. Ushbu she'rda shoir ko'ngil qo'ygan sanam "Ming bir kecha" ertaklarida ta'riflangan sanamlardanda go'zalroqdir. Bu suluv muallifning yodiga olislarda qolgan yoshligini soladi:

Boqib jamolingga, yuragimda mung,  
Olis yoshligimni esga olayin.  
Ortingdan "Jamayka, Jamayka", deb so'ng,  
U sirli qo'shiqni kuylab qolayin.

Aniq va ravshan ko'rinib turganidek, bu she'rda sevikli yor – YOSHLIK ramzi. Jamaykaning go'zal qizi shoir qalbini to'lqinlantiradi va uni eng baxtiyor damlariga – yoshlik kezlariga qaytaradi.

Nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotiga e'tibor qaratilsa, ularning qariyb barchasida ayol obrazi (Ularning aksari qandaydir ismlar bilan ataladi) mavjud ekani kuzatiladi. Abdulla Oripov ijodida Kamilla ("Italiya safari"), Salminaxonim (Armaniston safari), Irina



(Moskva turkumi) Erkin Vohidovda Azganush ("Kavkaz she'rlari"), Sergey Yeseninda Shahina ("Fors taronalari") kabi ismlarga duch kelamiz. Ushbu she'rlarda e'tiborni tortuvchi bir jihat borki, ayni shu jihat yuqorida nomlari sanab o'tilgan barcha ayollar obrazidagi mohiyatni birlashtiradi. Har uchala ijodkor ham o'zga yurtdagi go'zal qiyofasida o'z yurtida qolgan muhabbatini yodga oladi va o'zga yurtdagi sevgisi unga Vatani, undagi muhabbatini eslatib yuboradi. Bundan ko'rinadiki, nafaqat Abdulla Oripov ijodida balki, boshqa shoirlar ijodida ham ayol VATAN obrazi sifatida gavdalanadi.

Erkin Vohidovning ijodida Azganush ismiga duch kelamiz. Shoir o'zga yurtning bu go'zaliga mehr qo'ygan. Ammo uning yonida qololmaydi. U bilan xayrlashishi lozim. Chunki oshiq o'z diyori sari oshiqmoqda. Uni qadrdon Vatani, yor-u birodarlari kutmoqda: *Kechagina kelgan edim, go'yo tush, Bir nafasda o'tib ketdi hafta ham. Xayr senga, xumor ko'zli Azganush, Xayr endi, ko'rishguncha, jonginam.* Ayni shu kabi ifoda rus shoiri Sergey Yeseninga ham begona emas. Uning ham Sharqda ko'ngil qo'ygan yori (Shahina) shoirga Shimolda unga intizor bo'lgan o'z muhabbatini, o'z Vataniing dilbar qizini eslatadi:

Shahinam, o mening Shahinam,  
Shimol yoqda bir nozanin bor.  
Senga o'xshar, g'oyatda dildor,  
Balki meni o'ylar ul sanam...  
Shahinam, o mening Shahinam.

Abdulla Oripov she'rlarida turli millat ayollari obrazi uchraydi. Shoir ularning har birini hurmat va muhabbat bilan tilga oladi. "Jeneva daftari"dagi "Jamayka", "Habash qiz", "Italiya safari" tarkibidan joy olgan "Kamilla" Armaniston safaridagi Salminaxonim, Moskva safarida kuylangan Irina kabi ayollar turli millat vakilidirlar. Ularning tili, dini, ko'rinishi, dunyoqarashi bir-biridan farq qilishi tabiiy hol, albatta. Ammo shoir bekorga ularga e'tibor qaratmadi, bekorga ularga atab she'r bitmadi. Boisi ularning har biridagi qaysidir jihat shoirning o'z yurtidagi muhabbatini yodiga soladi, qaysidir jihati bilan ular shoir sevgan, ardoqlagan o'zbek qiziga o'xshab ketadi. Shoirning "Habash qiz" she'ridagi ushbu misralar fikrimiz tasdig'i bo'la oladi: *Nari ketolmayman bir habash qizdan, Juda o'xshar ekan Senga ko'z-qoshi. Bilmadim, o'sha payt, qay biringizdan, Nusxa olgan ekan falak naqqoshi.* Ana endi Abdulla Oripov ijodidagi ayol obrazining chinakam mohiyati ayon bo'lgandek, asl ildizlari ko'ringandek, nazdimizda. Shoir xoh Jenevadagi, xoh Italiyadagi, xoh Yaponiya, xoh Amerikadagi ayol obrazini yaratmasin

ularning barchasida qandaydir o'xshashlik, umumiylik bor. Ularning barchasi qaysidir jihatdan bir-biriga kelib bog'lanaveradi, bir-birini takrorlaydi. Abdulla Oripovning xorijda yaratilgan she'rlaridagi barcha millat ayollari obrazini umumiy yaxlitlikda tutib turuvchi zanjir bu – O'ZBEK AYOLI timsolidir.

Ko'rinib turganidek, har uchala shoir olis yurtlarda ham o'z Vatanini yodga soluvchi, o'z yurtidagi dildorni eslatuvchi ayolga mehr qo'yadi va bu holat uning lirik kechinmalarida o'ziga xos tarzda aks etadi.

Abdulla Oripov she'rlarida uchragan Kamilla, Irina, Salminaxonim, Sergey Yesenin ijodidagi Shahina, Erkin Vohidov lirikasidagi obrazlarning real yoxud norealligi adabiyotshunos uchun u qadar muhim ham emas, nazdimizda. Bu obrazlarni yaratishdan shoirlarning ko'zlagan badiiy maqsadi adabiyot uchun muhimroqdir. Shulardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, Abdulla Oripov o'z ijodida ayolni yorqin obraz darajasiga olib chiqa olgan va obrazga hayotiylik baxsh etgan. Abdulla Oripov she'riyatida ayol – YOSHLIK, ayol – HAYOT, ayol – KELAJAK va eng muhimi – VATAN demakdir.

Oripov she'riyatida shunday obrazlar mavjudki, ular vaqt o'tgani sari bosqichma-bosqich boshqa qiyofaga kira boshlaydi, tadrijiylik asosida o'zgarishga yuz tutadi. Shunday obrazlardan biri BOLA obrazidir. Bilamizki, bola obrazi G'arb va Sharq adabiyotida poklik, mehr timsolidir. Ispan adabiyoti vakili Lorca she'riyatida, qirg'iz adabiyotida Aytmatovning "Oq kema" qissasida va o'zbek adabiyotida bola obrazi an'anaviy qiyofa kasb etadi, ya'ni u ezgulik ramzidir. Abdulla Oripov ijodida esa bu obraz jamiyatning shoir badiiy tafakkuriga ta'siri asnosida o'zgarishga yuz tutadi. Masalan, "Haj daftari" dan o'rin olgan "Tilanchi bola" she'ridagi bola obrazi pokizalik timsolidir. Undagi bola bu dunyoning hech bir voqeligiga qiziqmaydi. U faqat insonlarni ezgulikka chorlaydi, mehr-muhabbat ulashadi: *Jim boqar, ishlari go'yo sarishta, Faqat nigohida o'tinch porlardi. Mening nazarimda u bir farishta, Mehr-u saxovatga unsiz chorlardi.* Ammo qachonlardir farishtadek beg'ubor bo'lgan bola obrazi bugungi kunga kelib, ya'ni "Everest va Ummon" to'plamida butunlay yangi qiyofa kasb etadi, o'zgardi. Endi u o'zini o'ylaydigan, birovlariga orqa qiladigan xudbin inson qiyofasiga kira boshladi. Bola endi avvalgidek faqat ezgulikni ko'zlamaydi, aksincha, nima qilib bo'lsa-da o'z maqsadiga erishishga intiladi. Maktabdan ikki olib qaytganida bobolarga va otasiga orqa qiladi. Bola ruhiyatida bo'layotgan bunday o'zgarish shoir nigohidan chetda qolishi aslo mumkin emas. Shu bois endi shoir "Tilanchi bola" she'ridagi kabi

ma'sum bola obrazini emas, aksincha, "Ikkichi bola" she'ridagi kabi xato yo'ldan ketayotgan bola obrazini tasvirlaydi: *Otajonim, xafa bo'lmang, Axir bizga omad yor, "Ikki" olsam olibman-da, Beruniy bobomiz bor*. Ko'rinib turibdiki, bu obraz ijtimoiy muhit ta'sirida tadrijiy o'zgarishga yuz tutyapti va shoir sijdida bu o'zgarish aks etmoqda, shoir tafakkur tadriji asnosida o'zgarishga yuz tutyapti. Ayni shu sabablar bunday obrazlarga *o'zgaruvchan obrazlar* deya nom berish mumkinligini ko'rsatadi.

Abdulla Oripov lirik kechinmalari ifodasida majozdan ham mahorat bilan foydalanadi. Bu jarayonda ijodkor uchun hayvonlar obrazi eng ma'qul obrazdir. Nafaqat o'zbek, qolaversa, butun dunyo adabiyotida hayvonot dunyosidan foydalangan holda kechinmalarning bayoni akslantirilishi eng ommalashgan holatdir. Oripov ijodida *arslon, fil, kiyik, toshbaqa, chumchuq, sichqon* kabi hayvonlar obrazi keng qo'llanadi. E'tibor qaratsak hayvonlar tanlovining o'zidayoq qarama-qarshilik kuzatiladi: Arslon va sichqon, kiyik va toshbaqa. Ularning biri kuch-qudrat timsoli bo'lsa, biri – iniga bekinib yashaydigan ojizlik timsoli; biri yugurik jonivor bo'lsa, biri imillab yashaydigan jonzot. Shoir obrazlarni o'zaro qarama-qarshi qo'ygan holda chuqur falsafiy mushohadalar yuritadi va teran xulosalar chiqaradi. Muallifning "Everest va ummon" to'plami tarkibiga kirgan "Xonaki fil", "Kiyik va toshbaqa", "Chumchuq", "Tenglik" kabi she'rlarida ayni holat kuzatiladi.

Abdulla Oripovning "Xonaki fil" she'ri boshdan oxiriga qadar intoq san'ati asosiga qurilgan bo'lib, undagi barcha voqealar xonaki filning o'zi tomonidan bayon qilinadi. Bu holat kechinmaning yanada tiniqroq va jonli bo'lishini ta'minlaydi:

*Yillarim o'tdilar,  
O'rgandim qo'lga,  
Aylandim siz ko'rgan  
Xonaki filga.*

Shoir she'riyati falsafiy mazmunning zalvorliligi, badiiy ifodalarning teran falsafiy mohiyat bilan favqulodda birlik hosil qilishi, o'xshatishlarning originalligi, ezgulikning yovuzlikka ayovsiz munosabati asosiga qurilganligi bilan ajralib turadi. Shoirning falsafiy fikri hodisalarga teran munosabati va fikr mantiqiyliigi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bu holat ayni shu she'rda namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, eng qudratli bahodirlarni ham odatda hiyla va firib bilan mag'lub etadilar. Qudratli fil taqdiridagi firibga aldanib, asirga aylanish holati aslida bu insoniyat bilan bog'liq jarayondir. Zero xalq dostonlarida ham raqiblar qahramonlarni hech qanday

kuch bilan yenga olmagach, ularni hiyla va firib yo'li bilan tuzoqqa tushiradilar. "Xonaki fil" she'ri zamirida ham ayni shu fikrlar yashirin bo'lib, bu o'rinda shoir intoq san'ati vositasida aslida o'zi aytmoqchi bo'lgan so'zni aytadi, lirik kechinmani xonaki fil qismati vositasida aniq va jonli tasvirlashga erishadi. Bu jihat shoirning "Kiyik va toshbaqa" she'rida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lumki, kiyik tez harakatlanuvchi yugurik jonivor. Toshbaqa esa aksincha, juda sekin va imillab harakatlanadi. Abdulla Oripov ayni shu holatdan falsafiy mazmun kashf etadi. Bu dunyoga endigina kelgan, yashash zavqi bilan yongan inson – yoshlik misoli kiyikka o'xshaydi. Aslida hayot ham shoir nazdida kiyikdek yugurik. Tez o'tib ketadi, ba'zan sezmay ham qolamiz. Shoir ayni shu lirik kechinmalar ifodasini quyidagicha jonlantiradi:

*Tiriklikning sirlari ko'p,  
Kuzatsang agar,  
Toqat bilmas, bu dunyoga  
Kelganda inson.  
Beshikda ham tinch yotmaydi,  
G'oyatda o'jar,  
Kiyik kabi sakraydi so'ng,  
Tolmas, chopag'on.*

Ammo bu dunyo o'tkinchi. Hamma buni yaxshi bilsa-da, hech kim bu yorug' olamni tark etishga shoshilmaydi. Ketish gali kelganda endi inson bolasi xuddi toshbaqadek imillaydi. Bu hayotni tark etishni aslo istamaydi:

*Yillar o'tib, oxirlaydi  
Foniy bu dunyo,  
Inson uchun jannatlardan  
Aslo kam emas.  
U dunyo gar chorlab qolsa,  
Eshitmas go'yo,  
Toshbaqadek imillaydi,  
Borgisi kelmas.*

Shoir ayni shu ikki jonzot vositasida bu hayotga kelish va ketish kabi teran falsafiy tushunchani ifodalab beradi. She'r hajman u qadar katta emas. Muallif kichik shakl vositasida kechinmalarining betakror qiyofasini yaratish iste'dodini ayni shu she'rda yorqin tarzda ko'rsatib beradi.

### **Xulosa**

Abdulla Oripovning majoziy xarakterga ega bo'lgan she'rlaridan yana biri "Chumchuq" she'ri bo'lib, "*Derazamga qo'ndi bir chumchuq, Angladimki, uning qasdi yo'q*" misralari bilan boshlanadi. Shu o'rinda Dilmurod Quronovning badiiy mazmun haqidagi quyidagi fikrlari yodimizga tushadi: "Badiiy mazmun haqida gapirganda, avvalo, badiiy asarda tasvirlanayotgan va badiiy idrok etilayotgan narsani farqlash zarur. Chunki ko'pincha asarda boshqa narsa tasvirlangani holda butunlay boshqa narsa idrok etilayotgan bo'ladi" [Quronov 2002, 96].

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodining eng ommabop janrlaridan bo'lmish ertaklarning an'anaviy boshlanmasi mavjud: "bor ekan-u yo'q ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan...". Bu boshlanmalar an'anaviy va o'zgarmas. Sababi qadim-qadimdan o'zbek xalq og'zaki ijodida chumchuq chaqimchilik timsoli bo'lib, u nuqul gap tashiydi va ig'vo uyushtiradi. Buni juda yaxshi bilgan shoir g'iybatchi kishi obrazini ochib berish uchun aynan chumchuqni tanlaydi va o'zining lirik kechinmalarini aks ettiradi. An'anaviy shakl va mazmun vositasida o'zining badiiy yangiligini mohirona yaratadi.

Abdulla Oripovning xorij safarlarida yaratilgan she'rlaridagi badiiy tafakkur va obrazlar tadriji haqida gapirar ekanmiz, shoir falsafiy qarashlari, lirik kechinmalari yillar o'tgani sayin teranlashganiga, she'rlar tub zamiridagi mazmun yanada chuqur ildiz otganiga guvoh bo'lamiz.

### **Adabiyotlar**

Бобур. 2018. *Бобурнома*. Тошкент. Ўқитувчи.

Абдулла, Орипов. 2019. *Танланган асарлар*. Тошкент. Шарк.

Дилмурод, Куронов. 2002. *Адабиётишуносликка кириш*. Тошкент. Фан

Жамолитдин, Турдимов. 1999. *Лирик кечинма табиати*. Тошкент.

филол. фан. номз. дисс.

# Classification and development of images in Abdulla Oripov's poems written abroad

Gulrukh Khudoyorova<sup>1</sup>

## Abstract

In the article, the system of images in A. Oripov's works created abroad, the stage of their renewal, and theoretical classification are implemented. Based on the classification of images, the changes in them, their role in expressing the experience are analyzed. Poems are divided into groups according to the years, and the mood of thinking in them is determined. The poet's ability to use images and ways of expressing lyrical experience are discussed in topics such as motherland, woman, and youth. The art of poems in 8 categories created abroad will be compared. The ways of reflecting the poet's experiences are defined in them, and the poems are classified in terms of space and time. A comparative analysis of human, animal, geographical space, detailed images is carried out, and the poet's artistic skill in creating these images is studied. The problem of the reflection of lyrical experience in the system of images of the poems created during the trip abroad is highlighted.

**Key words:** *classification, image, lyrical experience, artistic expression, travel lyric, human image, detailed image, geographical space image.*

## References

- Bobur. 2018. *Boburnoma*. Toshkent. O'qituvchi.  
Abdulla, Oripov. 2019. *Tanlangan asarlar*. Toshkent. Sharq.  
Dilmurod, Quronov. 2002. *Adabiyotshunoslikka kirish*. Toshkent. Fan.  
Jamoliddin, Turdimov. 1999. *Lirik kechinma tabiati*. Toshkent.

---

<sup>1</sup>*Khudoyorova Gulrukh Normurod kizi* - Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-pochta:** gulruxkhudoyorova@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-1977-2225

**For citation:** Khudoyorova, G. 2022. "Classification and development of images in Abdulla Oripov's poems written abroad". *Uzbekistan: Language and Culture*. 2(2): 72-84.

## She'riyatda Me'roj kechasi tasviri

(Alisher Navoiy, Furqat va Abdulla Oripov ijodi misolida)

Dilfuza Avazova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada Me'roj kechasining she'riyatda aks etishi muhokama qilinadi. Me'roj kechasini tasvirlashda Alisher Navoiy, Furqat va Abdulla Oripovning ijodidan misollar keltirib, tahlil qilinadi va bu uch ijodkor she'rlaridagi mavzuning mushtarak va farqli jihatlari o'rganiladi. Payg'ambarimiz Muhammad (s. a. v.) ga na't yanglig' yaratilgan asarlarda me'roj kechasining tasviri alohida o'rin tutishi, bu kechaning musulmon sharq adabiyotida o'ziga xos obraz darajasiga ko'tarilgani, shuningdek, Isro va Me'roj kechalarining farqi xususida mulohazalar bayon etilgan. Bu tasvirlar mumtoz shoirlarimizda yuksak pafos bilan yo'g'rilganligi va A.Oripovda sokin va bosiq holatda yoritilganligi badiiy asarlardan keltirilgan misollar yordamida dalillanadi. Me'roj kechasidagi voqea-hodisalar ketma-ketligi har uchala ijodkorning she'riy asari misolida ko'rib chiqiladi va shular asosida ilmiy xulosalar chiqariladi.

**Kalit so'zlar:** *Me'roj kechasi, isro kechasi, Muhammad (s. a. v.), Bu-roq, Rafraf, shafolat, ummat, tasvir.*

### Kirish

So'z faqat muloqot vositasigina emas, odamzod tafakkurining, ruhiyatining namoyon bo'lish usuli hamdir. Inson qalbi, uning o'y-xayollari va tuyg'ulari she'rda yana ham ta'sirliroq ifodalanadi. Mumtoz o'zbek adabiyotining asosiy mavzusi bo'lgan ishqning mohiyatini Alloh taolo va uning Rasuliga bo'lgan muhabbat tashkil etadi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijodida Haq taologa hamd bilan birga Rasululloh alayhissalom vasfi yetakchi o'rin tutadi. Ulug' shoir asarlarida Payg'ambarimiz (s.a.v.) obrazi yuksak fasohat va balog'at bilan tasvirlangan. Alisher Navoiy she'riyati, bu jihatdan, undan keyingi barcha shoiru adiblar ijodi uchun o'ziga xos poetik mezon vazifasini o'tagani ayon.

Payg'ambarimiz (s. a. v.) tasviri bor o'rinda, albatta, Me'roj

---

<sup>1</sup>Avazova Dilfuza Ravshanovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

**E-mail:** dilfuzaavazova2206@mail.ru

**Iqtibos uchun:** Avazova D. 2022. "She'riyatda me'roj kechasi tasviri (A.Navoiy, Furqat va A.Oripov ijodi misolida)". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2(2): 85-94.



tuni ham madh etiladi. Me'roj Hazrat Payg'ambarimizga berilgan ulug' mo'jizalardan biridir. Boshqa biror payg'ambarga bunday ulug' maqom berilmagan. Me'roj voqeasiga insonning aqli yetmaydi. Uning zamon, makon va masofa kabi tushunchalarni anglatishga har qanday qalam ojiz. Shunday bo'lsa-da, shoirlar bu voqelikni u yoki bu darajada o'z badiiy asarlarida namoyon qilishga harakat qilganlar.

Adabiyot tarixida Me'roj voqeasiga bag'ishlangan alohida asarlar yaratilgan. Shu bilan birga, muayyan badiiy asar tarkibida bu ilohiy hodisani yorituvchi boblar yoki qismlar keltirilgan. "Navoiy asarlarining izohli lug'ati"da "me'roj" so'zining birinchi ma'nosi "shoti", "narvon", ikkinchi ma'nosi "yuqoriga (ko'kka) ko'tarilish", uchinchi ma'nosi Muhammad payg'ambarning Makkadan Quddusga borishi va Quddusdan ko'kka chiqishi, deb izoh berilgan [1, 432]. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Nubuvvat va risolat kitobi"da Me'roj va Isro hodisasi to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Muhaddislar rivoyat qilishlaricha, Payg'ambarimiz sollallohu vasallam xufton namozidan so'ng Ummu Honi' binti Abu Tolibning uyida uxlab yotganlarida Isro hodisasi boshlandi. O'sha kechada Baytul Maqdisga Buroq nomli hayvonga minib bordilar. So'ngra u yerdagi katta xarsangtosh ustida turganlarida Me'rojga ko'tarildilar" [7; 176]. Ma'lum bo'ladiki, izohli lug'atda me'rojning istilohiy ma'nosini ta'riflashda Isro hodisasi ham qo'shib yuborilgan. Isro bilan me'rojni bir-biridan farqlash lozim. Isro – bu Muhammad (a.s.) ning Makkadan Qudsga – Aqso masjidiga borishlari. Me'roj Aqsodan osmonga ko'tarilib samoviy sayr qilib qaytganlaridir. Shu me'roj kechasida musulmonlar zimmasiga besh vaqt namoz o'qish farz qilingan. Isro va me'roj kechasi har yili rajab oyining 27-kechasi diniy bayram sifatida nishonlanadi.

Bu hodisa "Qisasi Rabg'uziy"da quyidagicha tasvirlangan: Me'roj kechasi voqealari beriladi. Bu kechada Muhammadning (sollallohu alayhi va sallam) ko'ksini farishtalar yorib, yuragini imon va hikmat to'la oltin idishda yuvib, joyiga qo'yadilar. Buroqqa mindirib, Makkadan Baytul Maqdisga olib chiqadilar. Hazrati Jabroil bilan birinchi osmonda Odamni (alayhissalom), ikkinchi osmonda Iso va Yahyoni (alayhimussalom), uchinchi osmonda Yusufni (alayhissalom), to'rtinchi osmonda Idrisni (alayhissalom), beshinchi osmonda Horunni (alayhissalom), oltinchi osmonda Musoni (alayhissalom), yettinchi osmonda Ibrohimni (alayhissalom) ko'radilar.

Alloh Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) ummatlari uchun bir kunda 50 marta namoz o'qishni buyurdi. Muhammad

(sollallohu alayhi va sallam) rozi bo'lib tushayotganda, Muso (alayhissalom): «Ummatlarning bir kunda 50 marta namoz o'qishni uddalay olmaydilar, qaytib chiqib, uni kamaytirgin», deb maslahat beradi. Muhammadning (sollallohu alayhi va sallam) qayta-qayta so'rovidan so'ng ummatlarga bir kunda besh vaqt namoz farz qilingan. Yana uqtirildiki, ikki rakat namozdan so'ng «Attahiyot...»ni o'qish savobi yetti qavat osmondagi barcha farishtalarning bir kungi ibodati savobiga teng bo'lur.

Muhammadni (sollallohu alayhi va sallam) jannatga olib kirdilar. Jannat ajoyibotlarini ko'radi. Jannatda Idris (alayhissalom) bilan uchrashdilar. Idris (alayhissalom): «Ey Muhammad, qani endi men sening ummating bo'lsam edi», deb orzu qiladi.

### **Asosiy qism**

Me'roj haqida yozish har bir shoirda uchraydigan an'anaviy mavzu bo'lgani haqida M.Muhiddinov yozadi: "Qayd etamizki, Payg'ambar me'roji haqida shoirlar ko'p yozganlar, bu voqea o'zining xayolot va tasavvurotlariga boyligi, sufiyona karomatu tavajjuh va ishu oshiqlik tushunchalari bilan yaqinligi balki bunga sabab bo'lgandir. Me'roj kechasi haqida qasida va g'azallar ham yozilgan. Aftidan, bu an'anaviy mavzulardan hisoblanib, har bir shoir bunda ham kuchini sinab ko'rgan" [3; 50].

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida 5 bob me'roj kechasiga bag'ishlangan. Me'roj xabari keltirilishi Navoiyda quyidagicha tasvirlangan:

«Ki yetsun olam ahlidin nihoni,  
Muhib sarvaqtig'a mahbubi joni».  
Bu so'z mahbub eshitgach lol bo'ldi,  
Navidi vasldin behol bo'ldi [4; 18].

Bu yerda olam ahlidan yashirin holatda sevgan huzuriga sevimli keltirilsin, degan fikrni eshitgach, Payg'ambarimiz (s. a. v.) ning holatlari ham tasvirlangan: Bu so'zni eshitgan sevimli hayron bo'ldi, vasl xushxabarini eshitib beholga aylandi. Navoiy mana shu tarzda o'quvchini Me'roj voqeasiga tayyorlab boradi.

Furqatning "Hajnoma" sida ham me'roj talqini mavjud. To'rtinchi tarji' ayni voqelik tasviriga bag'ishlangan. Tarji' quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

Risolat tojdori shohi "Lav lak",  
Nubuvvat bahrida bir gavhari pok.  
Baytda "Lav laka lama xolaqtu-l-aflak" - (Ey Muhammad,)

agar sen bo'lmasang edi, men bu falaklarni yaratmagan bo'lardim") mazmunidagi hadisi qudsiydan qisman iqtibos olingani haqida professor N.Jabborov dissertatsiyasida ma'lumot uchraydi [2; 100]. Aksar ilmiy asarlarda, jumladan, "Qisasi Rabg'uziy"da bayon qilinishicha, payg'ambar alayhissalom me'rojga chiqqanida xuddi shu mazmundagi hadisi qudsiy nozil bo'lgan. Furqat xuddi shunga ishora qilmoqda. Demak, mazkur baytdagi "Lav lak" ham iqtibos san'ati namunasidir. Furqat Payg'ambarimiz (s.a.v)ni "Lav lak" hadisining shohi bo'lgan zot, nabiylk dengizining pok gavhari deb ta'riflaydi.

Shoirning yozishicha, nabiyl alayhissalom shunday bir maqomga ko'tarildiki, hilol ul zot mingan ot-Buroqning oyog'iga taqa bo'ldi:

Hilol erdi Buroqi summig'a na'l,  
O'shal oqshomki, qildi sayri aflok.

Bu o'rinda tashbeh, mubolag'a kabi she'riyl san'atlar orqali butun borliq Allohning izni bilan Muhammad (s. a. v.)ning ko'kka chiqishi uchun xizmat qilgani tasvirlanadi.

Bu kabi tasvirlar Alisher Navoiyda ham bor. "Farhod va Shirin"da keltirilgan me'roj tasvirida butun koinot bu tashrifdan mamnunligi ochib beriladi:

Qamarg'a chun xiromi tavsan aylab,  
Yuzy xurshedi oni ravshan aylab.  
Atorud bodroyidin bo'lub shod,  
Berib avroqu ajzosini barbod.  
Yeturgach Zuhraga davlat rikobi,  
Dafin yirtib qudumi ehtisobi.  
Quyoshqa chun surub gardun xiromin,  
Uyotdin yer quyi aylab maqomin.  
Chopib Bahromg'a raxshin chu yaksar,  
Bo'lub ul nahsi ag'sar Sa'di Akbar.  
Tushub chun Mushtariy sori mururi,  
Quyoshni yoshurub har lam'a nuri.

Navoiy shu tariqa Oy, Venera, Yupiter, Merkuriy, Mars kabi sayyoralarni sanab o'tar ekan, ularning har birini o'z xususiyatidan kelib chiqqan holda tasvirlaydi. Ularni umumiy bir jihat: payg'ambarimiz (s. a. v.) tashrifidan xursandlik birlashtirib turadi. Shu sababli ham Oyning nuri Nabiyl(s. a. v.)ning yuzidan qaytgan nur tufayli ravshan bo'lishi, Atorud (Yupiter, kotib sifatida tasvirlanadigan sayyora) qog'oz qalamlarini unutishi, Marsning baxt

yulduziga aylanishi Muhammad (s. a. v.)ning ko'kka parvozi bilan bog'liq holda tasvirlanadi.

Alisher Navoiyda Buroq timsoli quyidagicha tasvirlangan:

Chu Kursi to'ridin piroya topib,  
Biyik Lavhu Qalamdek poya topib.  
Yuqorroq ko'rguzub chun raxshi novard,  
Chiqorib lomakon maydonidin gard.  
Tushub andin biyik chun ittifoqi,  
Borib andoqki tebranmay Buroqi.  
Samandin tashlagach ul ma'naviy ganj,  
Samandidek tutub paykin dog'i ranj.  
Quvonib roybo'si birla Rafraf,  
Maloyik yer O'pub ollida saf-saf.

Payg'ambar (s. a. v.)ni ko'kka, Lavhul Mahfuzga chiqargan ot – Buroq Muhib va mahjubni xoli qoldirishi, shundan so'nggina uning oldida saf-saf bo'lib yer o'pgan maloikalar paydo bo'lishi tasvirlangan.

Furqat ijodida bu holat quyidagicha:

Buroqu, Jabroilu qoldi Rafraf,  
Yetushdi o'zi Haq qurbig'a cholok.

Hamma sheriklardan xoli bo'lgan holatda Haqqa yetishdi degan fikr yuqoridagi baytda badiiy istifodasini topgan. Ya'ni Alloh va Muhammad (s. a. v.) o'rtasida hech bir vosita, aloqa qolmagandan keyin ular bir-biriga yetishdi. Buni qaysidir ma'noda dunyoga doir hech bir ehtiyoj qolmaganda Haqqa yetishish mumkin, deb talqin qilsak ham bo'ladi.

Yuqorida ko'rganimiz Alisher Navoiy hamda Furqat asarlarida me'roj kechasi batafsil tasvirlangan bo'lsa, Abdulla Oripovning "Haj daftari"da 3 bandli she'r orqali bayon etilgan. She'rning birinchi bandi quyidagicha:

Arshning suluv oti – nurqanot Buroq,  
Eltdi Muhammadni oliy dargohga.  
Tasviri joizmas bu holni, biroq  
Visol nasib etdi Rasulullohga.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, A.Oripov tasvirida qisqalik va aniqlik ustuvor. Shoir bir baytning o'zidayoq Buroq orqali Arshi a'loga ko'tarilgan Muhammad (s.a.v)ning holatlarini so'z bilan bayon etarkan, bu holning tasviri joiz emas, degan fikrni ilgari suradi. Bu bilan shoir ikki holatni nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Birinchidan,

ruh bilan bog'liq sirlar ta'qiqlangan ilmlar sirasiga kirishi islom olamida ma'lum va mashhur. Me'roj kechasi ham ayni ruhoniyyat bilan bog'liq jarayon bo'lganligi tufayli ham shoir joiz emas, deb yozgan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, Yaratganning vasliga, Oliy Jamolga yetgan bandaning holatini, undagi hayrat va sururni qaysi so'z bilan tasvirlash mumkinligini bilmaganligi uchun ham tasviri joizmas bu holni, deb yozgandir. Har ikki holatda ham ifoda go'zal, tasvir aniq.

Visol holati Navoiyda quyidagicha:

Chiqorib o'zlugi tufrog'idin gard,  
Ne o'zluukim, o'zidin ham bo'lub fard.  
Makoni bo'lmayin juz bemakonliq,  
Nishoni qolmayin juz benishonliq.  
Chu qolmay ne nishoni, ne makoni,  
Topib maqsad makonidin nishoni.  
... Inoyat ilgi olamdin nihoni,  
Harimi vahdat ichra chekti oni.

Muhammad (s. a. v.) ning Haq bilan yuzlashuvi tasvirida ul zotning o'zlik tuprog'idan ajralgani, lomakonlik, ya'ni makondan tashqarilik, nishonsizlik, ya'ni jismning ma'lum bo'lmasligi, vahdat ichida mavjud bo'lishi kabi holatlar yuksak pafos bilfn sug'orilganini kuzatish mumkin.

Furqatning "Hajnoma" sida Haq bilan yuzlashish quyidagicha:

Dedi Tangri: "Habibim, yo Muhammad,  
Tila mandin bu dam "Inno a'toynak".

Shuni e'tiborga olish lozimki, Furqat ushbu asarida hadis va qur'on oyatlaridan o'rinli foydalangan. Iqtibos she'riy san'atining go'zal namunalari yaratgan. Yuqoridagi baytda ham "Kavsar" surasining birinchi oyatidan parcha keltirmoqda va bu bayt mazmuniga ham, tarji'bandning umumiy qofiyasiga ham mos tushgan. Alisher Navoiyda ham oyatlarga ishora qilingan o'rinlar anchagina. Chunonchi:

Sururgach «Motag'o» tufrog'in ul bog',  
Chekildi nargisiga kuhli «mo zog'».

Baytidagi "Motag'o", "mo zog'" kabi so'zlar Muhammad (s. a. v.) madh qilingan oyatdan olingan so'zlar sirasiga kiradi. Bu o'rinda Navoiy ham iqtibos san'atidan foydalangan.

Furqat va Alisher Navoiyda iqtibos asosidagi oyat va hadislarini keltirish holati ko'p uchraydi. Ammo bu holat Abdulla Oripovning "Haj daftari" da uchramaydi. Lekin mazkur to'rhplamda

hadislar mazmuni she'riy shaklda sharhlangan. Istiqlolning dastlabki yillaridayoq yaratilgan bu badiiy obida adabiyotga irfon, ilohiyot kabi mavzularning qayta jonlanishi uchun debocha vazifasini bajargani aniq.

Alisher Navoiy Muhammad (s. a. v.)ning ummatlari gunohini Fllodan so'rab olishini quyidagicha ifodalagan:

O'zin Kim aylabon, lekin topib Haq,  
Ko'runmay kimsa Haqdin ayru mutlaq.  
Vujudi ko'rmadi juz Haq vujudi,  
Tuzuldi Haq kalomidin surudi.  
Surudi nag'mau lahni kamohi,  
Shafoat aylamak ummat gunohi.  
Chu aylab Haq tilidin ul shafaat,  
Bo'lub ham Haq javobidin ijobat.

Ulug' shoir Payg'ambarimizning vasldagi holatini Haqdan boshqani mutlaq ko'rmasdi, degan ifoda bilan nihoyatda aniq tasvirlar ekan, Haqning so'zlaridan o'ziga kelganini ta'kidlaydi. Shuningdek, "tila tilagingni", degan xitobga javoban ummat gunohini shafaat aylamoqni so'rashi Muhammad (s. a. v.) ning naqadar jonkuyar, ummatlariga mehribon zot bo'lganini ko'rsatadi.

Shafoat tilash Furqatda quyidagicha tasvirlangan:

Shoir nabiyalar sarvarining faqat ummatlari g'amini o'ylagan mehribon zot bo'lganligini ummatlarning osiyu saffoku bebok kabi sifatlarini ketma-ket keltirish orqali tansiqu-s-sifat san'ati vositasida shunday ifodalaydi:

Dedikim: "Ummatimni mag'firat qil,  
Erurlar osiyu saffoku bebok".  
Abdulla Oripovda bu holat quyidagicha:  
Ne-ne payg'ambarlar jam bo'lib biryon  
Rasulni o'zlarin qavmi deb bildi.  
Minnatdor Muhammad shod bo'lib chunon  
Allohdan shafqatni iltimos qildi.

Sodda, ravon holatda payg'ambarimizning ummatlari uchun shafqat so'ragani bayon etilgan.

Keyingi baytlarda shoir Haq taolo tilidan payg'ambar alayhissalomning "Shafi' ul-muznibdin" (Hadisdan olingan. Ma'nosi: gunohlarni shafaat qiluvchi), "rahmatan lil-olamin" kabi sifatlarini zikr qiladi:

Dedi Haqkim: "Shafi' ul-muznibinsan,

Gunahdin ummati osiyg'a ne bok?  
Vujuding rahmatan lil-olamindur,  
O'lursan, yo habibim, nega g'amnok?"

Ushbu misralardagi umidbaxshlik, Yaratganning cheksiz marhamatidan umidvorlik Navoiydagi *Kimki ulus ichra gunahkarroq, Afvu muruvvatga sazovorroq* baytini yodga soladi.

Abdulla Oripovda afv etish holati quyidagicha tasvirlangan:

Arshdan javob keldi: — Ayo, Muhammad,  
Avval bir gapimni fahm etib ko'rgil.  
Do'stlikda iltimos bo'lmagay minba'd,  
Men ham buyurgayman, sen ham buyurgil.

Bu o'rinda Muhammad (s. a. v.)ning Habib (do'st) sifatiga urg'u berilgan. Shu sababli ham do'stlar bir-biriga iltimosgina emas, balki buyrq berishi ham mumkinligi aytilgan she'rda.

Navoiyda:  
Taolallo, ne Hayyu Qodiri pok,  
Ki, Aqli Kull anga deb: «Mo arafnok».

Furqatda:  
Zihi zotiki, avsofida xoma,  
Hurufi yozmadi juz "Mo arafnok".

Har ikki shoir ham "Seni keragicha bilmaganmiz..." so'zlari bilan boshlanuvchi oyatga ishora qilmoqda va ikkala o'rinda ham Yaratgan nazarda tutilgan. Ayni shu o'rinlarda tazarru, nadomat kabi tuyg'ular o'quvchiga ham yuqadi. She'rning, umuman, adabiyotning ruhni tozartiruvchi kuchi, ehtimol, shundadir.

Furqatning "Hajnoma" tarji'bandidagi me'roj kechasiga bag'ishlangan to'rtinchi tarji' quyidagi misralar bilan tugaydi:

Hamisha ravzasida yastanib xok,  
Ki yetmish ming malakdir posboni.

### **Xulosa**

Yuqoridagi mulohazalarimiz asosida quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Me'roj kechasi va Isro tuni ayni bir tushunchani ifodalamaydi.

2. Me'roj kechasi adabiyotda Payg'ambarimiz Muhammad (s. a. v.)ga na't yanglig' bitilgan bitiklarda ham, alohida dostonning boblarida ham uchraydi.

3. Alisher Navoiy, Furqat va Abdulla Oripov ijodida me'roj



kechasi o'ziga xos tarzda o'zaro mushtarak holatda tasvirlangan.

4. Iqtibos san'ati (oyat va hadislardan she'rda misol keltirish) Navoiy va Furqatda ko'p uchragani holda, A.Oripovda deyarli uchramaydi. "Haj daftari" muallifi oyat va hadislarini aynan keltirmasdan, mazmunini saqlagan holatda berishga harakat qilgan.

5. Me'roj voqeasi tasviri Navoiy va Furqatda yuksak pafos bilan tasvirlangan bo'lsa, A.Oripovda bir qadar bosiqlik va sokinlik bilan yoritilgan.

### **Adabiyotlar**

- Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1984. Эргаш Фозилов таҳрири остида. 3-том. Тошкент: Фан.
- Жабборов, Нурбой. 2004. *Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси*. Филол. фан.докт.дисс. Тошкент.
- Муҳиддинов, Муслиҳиддин. 2015. *Комил инсон – адабиёт идеали*. Тошкент. Маънавият.
- Алишер, Навоий. 1991. МАТ. 8 жилд. Тошкент: Фан.
- Орипов, Абдулла. 1993. *Ҳикмат садолари*. Тошкент. Фан.
- Насуриддин, Рабғузий. 1991. *Қисаси Рабғузий*. Тошкент: Ёзувчи.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2006. *Нубувват ва рисолат китоби*. Тошкент. Мовароуннаҳр.
- Жабборов, Нурбой. 26.07.2019. *Ҳаж маърифати. Ўзбекистон адабиёти ва санъати*. №30.

## **The image of the night of miroj in poetry** (Example of the works of A. Navoiy, Furkat and A. Oripov)

Dilfuza Avazova<sup>1</sup>

### **Abstract**

This article discusses the reflection of Miraj night in poetry. In the description of the Miraj night, examples from the works of Alisher Navoi, Furqat and Abdulla Oripov are analyzed and the common and different aspects of the theme in the poems of these three authors are studied. The description of the Night of Miraj occupies a special place in the works dedicated to our Prophet Muhammad (blessings to him and his relatives), the

---

<sup>1</sup>*Avazova Dilfuza Ravshanovna* – a doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** dilfuzaavazova2206@mail.ru

**For citation:** Avazova, D.R. 2022. "The Image of the Night of Miroj in Poetry (Example of the Works of A.Navoiy, Furkat and A.Oripov)". *Uzbekistna: language and culture* 2(2): 85-94.

fact that this night has risen to the level of a unique image in the literature of the Muslim East, as well as comments on the difference between the nights of Isra and Miraj. It is proved with the help of examples from artistic works that these images are expressed with high pathos in our classic poets and in A.Oripov in a calm and subdued state. The sequence of events on the night of Miraj is considered as an example of the poetic works of all three artists, and scientific conclusions are drawn based on them.

**Key words:** *Miraj night, Isra night, Muhammad (blessings to him and his relatives), Buraq, Rafraf, intercession, ummah, image.*

### References

- Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1984. Ergash Fozilov tahriri ostida. 3-tom. Toshkent: Fan.
- Jabborov, Nurboy. 2004. *Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi*. Filol. fan. dokt. diss. Toshkent.
- Muhiddinov, Muslihiddin. 2015. *Komil inson – adabiyot ideali*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Alisher, Navoiy. 1991. *MAT*. 8 jild. Toshkent: Fan.
- Oripov, Abdulla. 1993. *Hikmat sadolari*. Toshkent: Fan.
- Nasuriddin, Rabg'uziy. 1991. *Qisasi Rabg'uziy*. Toshkent. Yozuvchi.
- Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. 2006. *Nubuvvat va risolat kitobi*. Toshkent: Movarounnahr.
- Jabborov, Nurboy. 26.07.2019. *Haj ma'rifati*. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. №30.

## MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

Jurnalning “**Adabiyotshunoslik**” seriyasida o‘zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o‘zbek mumtoz adabiyotining qo‘lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e‘lon qilinadi. O‘zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so‘nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo‘lishiga e‘tibor beriladi.

“**Adabiyotshunoslik**” seriyasida O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning e‘tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

### I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo‘llash mumkin.

Barcha qo‘lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma‘lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

O‘zbek va ingliz tillarida 100–150 so‘zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo‘limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo‘limlari sarlavhasi – to‘q bo‘yoqda, 14 hajm.

### **III. Maqolada tarjimalardan foydalanish**

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

### **IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi**

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

### **V. Havola va izohlar berish**

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

### **VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi**

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

### **VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi**

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

### **VIII.1. Kitoblar uchun**

#### **Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

#### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi. Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

**Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi.** Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

**Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

**Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

**Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

### **Elektron kitobni bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

### **Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago:

Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

## **VIII.2. Jurnal maqolasi uchun**

### **Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

### **Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

### **Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

### **Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

**VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

**Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

**Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

**Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

**Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russskiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.



## IZOHLAR

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

**Manzil:** Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos  
Hojib ko'chasi 103-uy.  
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.  
Website: [www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)  
E-mail: [adabiyotshunoslik2022@gmail.com](mailto:adabiyotshunoslik2022@gmail.com)

Bosishga 20.12.2022-yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.  
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.  
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.  
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,  
58-a harbiy shaharcha.